NAFOSAT OLAMI

O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI NASHRI

№1 2022

Surat muallifi: **Toir Sharipov**

MUNDARIJA

2 **OZODBEK NAZARBEKOV**
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri

3 **SHUXRAT TO'XTASIMOV**
O'zbekiston davlat xoreografiya akademisi rektori

4 **IBROHIM YO'LDOSHEV**
Filologiya fanlari doktori, professor

5 **ILM-FAN TARAQQIYOTI — FAROVONLIGIMIZNI OSHIRISHNING MUHIM YO'NALISHIDIR**
MIRMUXSIN GAPUROV

8 **ТАНЦЕВАЛЬНОЕ ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА: ВОПРОСЫ ИСТОРИИ**
МУХАББАТ ТУЛЯХОДЖАЕВА

17 **INKLYUZIV TA'LIMDA RAQS MASHG'ULOTLARI OLIB BORISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**
SHAHZODA XUDOYNAZAROVA

21 **RAQS TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**
RAVSHAN JOMONOV

26 **БОГАТСТВО ТАНЦЕВАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА. ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ**
ЕЛЕНА КАРИ-ЯКУБОВА

31 **MUSIQIY MEROSIMIZ SARCHASHMASI**
BAXTIYOR ASHUROV

37 **TEATR SAN'ATI: YANGI MARRALAR SARI**
PO'LAT TASHKENBAYEV

43 **LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARNING O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARIDA AKS ETISHI**
HULKAR HAMROYEVA

49 **O'ZBEK XALQ LAPARLARIGA XOS JANR XUSUSIYATLARI**
NOZIM QOSIMOV

54 **O'ZBEK MAROSIM FOLKLORINING O'RGANILISHI TARIXIGA AYRIM CHIZGILAR**
MATLUBA MURODOVA

59 **MUSIQA NAZARIYASI VA INNOVATSION TA'LIM**
NODIRA ALIMDJANOVA

63 **"XOREOGRAFIYA SAN'ATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH" FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI**
MAVLUDAXON ADASHEVA

69 **YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIDA MADANIY MEROSNING TARBIYAVIY AHAMIYATI**
JAHONGIR G'ANIYEV

74 **TAKRORNING A'ZAM O'KTAM VA MINHOJIDDIN MIRZO SHE'RIYATIDA QO'LLANISHI**
TO'MARIS BUTUNBOYEVA

80 **УРОКИ МАСТЕРА**
ИЛЬДАР МУХТАРОВ

87 **YOSHLARDA MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA NAFOSAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH**
DILDORA QOSIMOVA

92 **KINOQISSALARDA ALOHIDA OLINGAN SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI**
MEHRINISA XOLMURADOVA



Ozodbek NAZARBEKOV,
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri

Bugun yurtimizda barcha sohalarda ulkan islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishlar davri kechmoqda. Jumladan, islohotlar jarayonida xalqimizning turmush darajasini yaxshilash barobarida, boy milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarimizni o‘rganish, ilmiy-amaliy tadqiq etish, moddiy va nomoddiy madaniy merosimizni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodga bus-butun yetkazish va albatta dunyo xalqlari orasida keng targ‘ib qilish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017 yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta'kidlagan edi: «Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim».

Darhaqiqat, insoniyat ma'naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san'atsiz kechmaydi. So‘nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o‘zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda.

Natijada, ajdodlar an'anasini davom ettirish, targ‘ib etish, san'at orqali tinchlik, do‘stlik, ahillik, qardoshlik kabi fazilatlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan xalqaro maqom anjumani, baxshichilik, “Lazgi” festivallarini o‘tkazib kelinmoqda.

Mazkur fetivallar, jumladan joriy yilda o‘tkazilgan “Lazgi” festivali orqali raqs sohasida ham tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilayotganini guvohi bo‘ldik. Bugun esa O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi sohani yana-da rivojlantirish maqsadida xayrli ishga qo‘l uribdi — akademiya qoshida “Nafosat olami” jurnali ta'sis etilibdi. Bugun uning ilk — nishona soni qo‘lingizda turibdi.

Mazkur jurnalda o‘zbek raqs san'atining tarixi, tarixiy an'analari, nomlari va usullarini tiklash hamda boyitish, milliy raqs tarixini vatanimizning o‘tmishi, jahonga mashhur allomalarimizning hayoti va ijodiga oid ilmiy maqolalar soha rivojiga katta hissa qo‘shadi. Shuningdek, nashr mamlakatimizda madaniyat, san'at, tilishunoslik, adabiyotshunoslik hamda axborot texnologiyalarining barchaga sohaga birdek tatbiq etish jarayonlarini ilmiy asoslab beradigan maqolalar bilan axborot maydonidagi o‘rnini mustahkamlash, soha nufuzini yuksaltirish maqsadiga xizmat qiladi.

Shuhrat TOXTASIMOV,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori

Shunday san'at turlari borki, uni faqat ko‘rib, his etib zavq olish mumkin. Raqs insonning turli harakatini o‘zida mujassam etadi.

Bugun mamlakatimizda milliy raqs san'atini yana-da rivojlantirish, o‘ziga xos xususiyatlari, jahon madaniyatida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va tahlil etish hamda uning yangidan-yangi milliy namunalarini yaratish, raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yana-da takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlashimiz zarur.

Prezidentimiz qarori bilan Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi. Shu bilan birga, akademiya uchun zamonaviy o‘quv binosi hamda talabalar turar joyi qurilib, shaxsan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan tantanali tarzda ochib berildi. O‘tgan yillar davomida akademiyamizda kadrlar tayyorlash jarayoniga sohaning yetuk va malakali mutaxassislarini jalb qilish orqali ilm-fan va ta'limning o‘zaro integratsiyasini ta'minlash, raqs san'ati bo‘yicha yuqori malakali bakalavr va magistrlarni, shuningdek, ushbu sohada chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash yuzasidan talay ishlar amalga oshirilmoqda.

Talaba-yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahalliy va xalqaro grantlar asosida ularning xorijda ta'lim olishi, ilmiy-ijodiy ishlar olib borish samarali yo‘lga qo‘yilgan. Hali oldimizda bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar ko‘p. Soha mutaxassislarini xorijiy turdosh oliy ta'lim muassasalarida qayta tayyorlash va malakasini oshirish, stajirovka o‘tash tizimini tashkil etish, talabalarning ilmiy-tadqiqot muassasalari bazalarida hamda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlarida tizimli ravishda qisqa va uzoq muddatli amaliyotlarni tashkil etish kabi ishlarni bajarishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

Ibrohim Yo‘ldoshev,
Filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi muassisligida nashr etilayotgan “Nafosat olami” jurnalining ilk soni barchamizga muborak bo‘lsin! Bunday yangilik O‘zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi behad quvontirdi.

Bir yilda to‘rt marta o‘zbek, rus, ingliz tillarida chop etiladigan, ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal sahifalaridan o‘rin egallagan ijodiy ishlarda, eng avvalo, milliy o‘zligimiz, betakror qadriyatlarimiz va an'analarimiz, qadimiy hamda boy madaniyatimiz, san'atimiz targ‘ib qilinadi. Milliy va jahon raqs san'atining namunalari xususidagi ma'lumotlar xalqimizga yetkaziladi.

Xoreografiya san'atining mumtoz hamda milliy raqs turlari bo‘yicha yetuk mutaxassislarining, fan arboblarining, professor-o‘qituvchilarning, madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan san'atkorlarning maqolalarini nashr etish orqali ularning ilg‘or tajribalari ommalashtiriladi. Ishonchli manbalarga asoslangan, nazariy-metodologik, uslubiy jihatdan mukammal darajada yozilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor muammolar yechimiga qaratiladi, degan umiddamiz.

Ushbu jurnal maqsadli professional munozara va tahlillar uchun yangi, shaffof ilmiy maydonga aylanadi hamda yana-da samarali ilmiy muloqotlar hamda tadqiqot natijalari almashinuviga yordam beradi. Unda mamlakatimizda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion g‘oyalar, eng so‘nggi izlanishlar natijalari e'lon qilinadi.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, “Nafosat olami” ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali uchun tayyorlangan maqolalar orqali adabiy va ijtimoiy hayotdagi eng dolzarb masalalarga jamoatchilikning diqqat-e'tibori qaratiladi. Qolaversa, ajoyib ijodiy ishlarda bayon etilgan fikr-mulohazalar yangi O‘zbekiston yoshlarining ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongu shuurini turli yot g‘oyalardan asrashga, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, yangi iste'dodlarni kashf etish hamda yoshlarning badiiy-estetik didini shakllantirishga, yosh avlodni milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

ILM-FAN TARAQQIYOTI — FAROVON-LIGIMIZNI OSHIRISHNING MUHIM YO‘NALISHIDIR

Mirmuxsin Gapurov

O‘zDXA “Ilmiy ishlar va innovatsiyalar” bo‘yicha prorektori, professor v.b.



Ilm-fan bilan shug‘ullanish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimizni mehnati tahsin va rag‘batga munosib

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ilm-fan mamlakat taraqqiyoti va farovonligining asosidir. Ayniqsa, barcha sohada yangiliklarga intilish hamda raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davr iqtisodiy salohiyatni mustahkamlab borish uchun ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnikaviy yutuqlardan samarali foydalanishni talab etmoqda.

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri mazkur sohani va olimlarni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O‘zbekiston zamini jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo‘nalishini ma'lum darajada belgilab bergan ulug‘ allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Prezidentimizning “Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi.

Oldimizga jiddiy vazifalar qo‘yildi. Xususan, Prezident qarorida sohada chuqur tadqiqotlar olib borish zarurligi qayd etilar ekan, raqs sohasidagi ilmiy faoliyatni kengaytirish va chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Raqs san'ati millatning tarixi, madaniyati, tafakkur tarzini ifoda etadi. Uni tadqiq qilib o‘zimiz va o‘tmishimizni taftish etgan bo‘lamiz. Bunday izlanishlar bugungi o‘zbekistonliklarda milliy g‘urur va oriyat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois davlat rahbari oldimizga soha yo‘nalishida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifasini qo‘ydi. Buning natijasi o'laroq, xalqaro hamkorliklarimiz kundan-kunga rivojlana boshladi. Bugun Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Belorussiya, Qozog‘iston, Tojikiston kabi davlatlarning yetakchi san'at dargohlari bilan o‘zaro shartnoma va memorandumlar imzolandi.

ILMIY SALOHIYATNI YUKSALTIRMAY, XALQARO ILMIY HAMJAMIYAT BILAN UZVIY ALOQAGA KIRISHMAY TURIB OLDINGA SILJIB BO‘LMAYDI.

Akademiyada faoliyat ko‘rsatayotgan 4 ta kafedrada jami 42 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat olib boradi. Ulardan 3 nafari professor, 10 nafari dotsent, 4 nafari fan nomzodi, 5 nafari fan doktori (PhD), 1 nafari fan doktori (DSc), 1 nafari O‘zbekiston xalq artisti, 1 nafari Qoraqalpog‘iston xalq artisti, 3 nafari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, 1 nafari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san'at arbobi, 1 nafari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlarini tashkil etadi.

Bugungi kunda akademiyamiz professor-o‘qituvchilari respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, qator nufuzli tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘z ilmiy maqolalari bilan faol ishtirok etishmoqda. Jumladan, Xalqaro konferensiyalarda – 28 ta, Respublika miqyosidagi konferensiyalarda – 54 ta, Xalqaro ilmiy jurnallarda – 14 ta, Respublika ilmiy jurnallarida - 31 ta, Respublika gazetalarida 63 ta maqola va tezislar e'lon qilindi.

Hozirda 5 ta darslik, 2 ta elektron darslik, 37 ta o‘quv qo‘llanma, 4 ta monografiya, 2 ta Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami nashr etildi.

Bilim va tajriba almashish, o‘zbek milliy raqs maktablarini dunyoga tanitish kerak, albatta. Biroq soha rivoji uchun buning o‘zi kamlik qiladi. Ilmiy salohiyatni yuksaltirmay, xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan uzviy aloqaga kirishmay turib oldinga siljib bo‘lmaydi. Shu ma'noda endilikda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nafaqat amaliyotchi mutaxassislar, balki salohiyatli ilmiy kadrlarni ham tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Yana bir jihat, ta'lim muassasamizda doktorantura bo'limi ochilmagani bizni ko'pdan beri qiynab kelayotgandi. Lekin doktoranturaning yo'qligi Akademiyada tadqiqotlar umuman olib borilmaydi, degani emas. Professor-o'qituvchilar, yosh mustaqil tadqiqotchilar hamda magistrantlar o'zbek milliy raqsi va xoreografiya san'ati, baletshunoslik yo'nalishlarida ko'plab izlanishlar olib bormoqda. Oxirgi yillarda olimlarimiz tomonidan O'zbekiston folklor raqslari, ularning janr xususiyati va zamonaviy musiqa ijodiyotiga ta'siri, baletmeysterlik an'analari, shuningdek, Sharq xalqlarining milliy va mumtoz raqs maktablari o'tmish hamda zamonaviylik kesimida o'rganilmoqda. Bugun esa oldimizga qo'ygan oliy maqsadimiz va orzuimiz amalga oshdi — akademiyamizda doktarantura bo'limi tashkil etildi. Bu esa o'z navbatida raqs san'ati bo'yicha ham yangidan yangi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borishimizga yo'l ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan "Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan multimedia mahsulotini yaratish" va "Bolalar raqslari fanidan 3D tizimli interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanma yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasi tanlovida ishtirok etildi.

Unda filologiya fanlari nomzodi, professor v.b. R.Jomonov hamda filologiya fanlari doktori H.Hamroyeva rahbarligidagi amaliy loyihalar bo'yicha g'oliblik qo'lga kiritildi.

Shuningdek, "Yosh olimlar kengashi" faoliyati ham kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Yosh olimlarning safi kengayib borayotgani esa bizni yana-da quvontiradi. Akademiyamiz qoshidagi "Raqs olami" gazetasi esa nafaqat san'atshunoslarimiz uchun mahorat maktabi, balki, xoreografiya yo'nalishida bilim olayotgan talabalarimizni ham raqs san'atining bugungi kundagi rivoji, raqqos va raqqosalar ijodiy faoliyatini yoritishga xizmat qilmoqda. Yutuqlarimiz bilan maqtanishga arzigulik ishlarimiz bisyor, ammo kamchiliklar ham yo'q emas. Biroq, maqsadlar katta. Bularning bari hali boshlanishi. Hali oldimizda bajarishimiz kerak bo'lgan vazifalar juda ko'p.

ТАНЦЕВАЛЬНОЕ ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА: ВОПРОСЫ ИСТОРИИ

Мухаббат Туляходжаева,

доктор искусствоведения, профессор ГИИК Уз



Annotatsiya: Maqolada zamonaviy san'at tarixining dolzarb masalalari kontekstida O'zbekiston raqs san'ati tarixi, uning asosiy bosqichlari va rivojlanish davrlari masalalari ko'rib chiqiladi. Raqsning kelib chiqishi masalalari ko'rib chiqiladi, mamlakat raqs madaniyatining janr va uslubiy xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: san'atshunoslik, teatrshunoslik, raqs, xoreografiya, madaniyat, raqs kompozitsiyalari, sharq miniatyuralari.

Аннотация: В статье, в контексте актуальных вопросов современного искусствоведения, рассматриваются вопросы истории танцевального искусства Узбекистана, его основные этапы и периоды развития. Затрагиваются вопросы происхождения танца, определяются жанровые и стилистические особенности танцевальной культуры страны.

Ключевые слова: искусствоведение, театроведение, танец, хореография, культура, танцевальные композиции, восточная миниатюра.

Annotation: In the article, in the context of topical issues of contemporary art criticism, the issues of the history of dance art of Uzbekistan, its main stages and stages of development are considered. The questions of the origin of dance are touched upon, genre and stylistic features of the country's dance culture are determined.

Key words: art history, theater studies, dance, choreography, culture, dance compositions, oriental miniature.

ТЕАТРУ СРЕДНЕЙ АЗИИ БОЛЕЕ ДВУХ С ПОЛОВИНОЙ ТЫСЯЧ ЛЕТ

Основными источниками изучения истории искусства являются археологические памятники, данные геологии, антропологии, истории, мифологии, фольклора, живописи, скульптуры. С середины 19 века история искусств открывала для себя все новые разделы. Благодаря успехам археологии вопрос о периодизации искусства был поставлен на научную основу.

В искусствоведении Узбекистана вопросам истории искусства, его периодизации посвящены исследования М. Е. Массона, Г. А. Пугаченковой, Л.И. Ремпеля, Э. В. Ртвеладзе. Академик АН РУз А.А. Хакимов в своей книге «Искусство Узбекистана. История и современность», выпущенной издательством журнала «San'at» в 2010 году, определяет следующую периодизацию. Первый – II тыс. до н.э., когда на территории современного Узбекистана складываются три историко-культурных региона – Бактрия, Согд и Хорезм. Второй – I пол. I тыс. до н.э., - искусство ранних государственных образований. Третий – конец IV в. до н.э. - IV в. н. э. – эпоха эллинизма был ознаменован высоким подъемом художественной культуры. Четвертый – V-VIII вв., когда формируется своеобразный тюрко-согдийский художественный симбиоз, искусство государств раннего средневековья. Пятый – IX-XIII века – культура и искусство государств Мавераннахра. Шестой – XIV – начало XVI вв. – искусство эпохи Амира Темура и Темуридов. Седьмой – XVII – первая половина XIX вв. – искусство узбекских ханств – Хивинское, Бухарское, Кокандское. Восьмой – вторая половина XIX – конец XX вв. – искусство периода колонизации Туркестана царской Россией и вхождение региона в состав советского тоталитарного государства. Девятый – с 1991 года – искусство независимого Узбекистана как наследника и продолжателя многовековой истории, культурных традиций, искусства. [1. 13-23]

В театроведении Узбекистана вопросами истории искусства занимались видные ученые М. Р. Рахманов, М. Х. Кадыров, Л. А. Авдеева. В известной книге академика М. Р. Рахманова «Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года», выпущенной издательством литературы и искусства имени Г. Гуляма в 1981 году, на основе археологических находок, исторических, филологических данных, памятников изобразительного и прикладного искусства, фольклора, древних письменных источников было выявлено, что узбекский театр представляет собой сложную историко-художественную систему, обладающую богатыми древними традициями, что театру Средней Азии более двух с половиной тысяч лет.

Ранее исследователь А. Ф. Корсакова в своем научном труде «Узбекский оперный театр» также заключает, что «археологические находки на территории Средней Азии свидетельствуют о существовании здесь эллинистических театров не только в период Греко-Бактрийского государства, но и в следующие века, в эллинистических государствах – Хорезме, Парфии, Согдиане. [3. 11-38]

В научном труде М. Рахманова театральное искусство, вбирающее в себя слово, действие, музыку, песню, танец, пластику, в своем

развитии подразделяется на шесть периодов. Первый – I тыс. до н.э. – IV в. до н.э. Второй – эллинистический театр Средней Азии III век до н.э. – IV век н.э. Третий – театр раннего средневековья V-IX вв. Четвертый – театр в эпоху развитого феодализма IX – XVII вв. Пятый – театр XVIII – конец XIX вв. Шестой – начало XX века рождение нового узбекского театра. Данной периодизации возможно придерживаться и при рассмотрении исторического развития танцевального искусства Узбекистана.

С древних времен свои радости, печали, беды, стремления, надежды народ высказывал в массовых гуляниях, игрищах, плясках, основу которых составлял синтез песен, драматического, пластического действия. Существуют научные предположения, что профессиональный танец выделился из народных игр, культовых обрядов, магических ритуалов, религиозных мистерий. Танцевали жрецы, жрицы, участники культовых действ, изображая богов, полубогов, героев эпических преданий, используя при этом разнообразные комбинации телодвижений и жестов. Как правило, это были специально подготовленные танцовщики, хорошо владеющие исполнительской техникой, пластикой тела. В процессе исполнения культовых обрядов, религиозных мистерий движения подвергались художественному обобщению, своеобразно передавая через пантомиму, ритмические жесты – мировосприятие, способ мышления, мысль, эмоциональное настроение, душевное состояние человека. Танец становился пластическим выражением мысли, чувства, страсти.

Постепенно танец обретал новое содержание, проникался метафорической выразительностью. Обратившись к явлениям живой природы и эмоциональному, душевному миру человека, танец стал занимать в культуре нашего региона прочное место, сопровождая труд, жизнь, досуг людей, отображая в пластических формах их чувства и переживания. Ни одно празднество, ни одна торжественная религиозная процессия не проходила без танца. В своей основе танец – это ряд телодвижений, согласованных с настроением человека и подчиненных музыкальному ритму. А музыкальный ритм – это музыка и песня, которым подчиняются телодвижения, выражающие различные чувства.

О древности танца говорят легенды, обычаи, изображения на предметах первобытного изобразительного искусства. На керамике эпохи неолита и бронзы встречаются фигурки костюмированных танцовщиков. На одном из наскальных изображений эпохи неолита, обнаруженных на территории Узбекистана зафиксирована группа их трех человек, движущихся хороводом. «Выразительные и подчеркнутые силуэты, близкие к танцевальной пластике, говорят о существовании в древности танцевальной культуры с присущими ей формами, жанрами, лексикой, семантикой, композицией, числом участников. Воплощая ритуальные пляски, художник в зависимости от вида обряда использовал те или иные предметы, одежду (Саймали – Таш, Кирбукан). Наиболее характерные элементы он выражал ритмом и динамикой фигур, а коллективный характер танца – идентичностью плясовых телодвижений. В отдельных петроглифах ощущается не только темперамент исполнителей, но и лирический настрой художника, переданный плавными контурами фигур, лег-

кой посадкой колен (Сармышсай, Саймали – Таш). [4. 11-12]

Среди наскальных изображений, обнаруженных при раскопках в Средней Азии можно видеть фигуры пляшущих людей с хвостами. На этих изображениях древние люди не только фиксировали процесс охоты, а воспроизводили какие-то, видимо, магические действа, связанные с поклонением животному. Известно, что древние охотники пользовались приемами маскировки под животных, что помогало им приблизиться к стаду. Изображение ряженых плясунов рассказывает не только о приемах охоты, но и об отношении к окружающему миру. Человек «подражал» животному, он повторял его движения, повадки. Можно сделать вывод, что исполнение своеобразных пантомим и плясок являлось «подражанием» бытовым и трудовым действам. [2. 24]

На наскальных рисунках, найденных в горах Сармиш (близ города Навои), датируемых 1 тыс. до н. э. есть изображение танцующих пар. Они принимают участие либо в празднике, либо в народной игре. «Движения пластичны, выражают радостное приподнятое настроение. Их руки взлетают, принимают форму полукруга и опускаются вниз. Линии их движений мягкие, пластичные. Немного оторвав носок от земли они мелко и осторожно переставляют ноги. Головной убор этих танцоров очень похож на головной убор древних актеров, которые носили конусообразные колпаки с наконечниками». [2. 31-32]

О давнем происхождении танца говорят и представления масхарабозов (лицедеев, скоморохов, потешников, шутов), в которые входили – пантомима, танцевальная пантомима, пляска, акробатика, трюкачество, жонглирование и другие цирковые жанры. Необходимыми атрибутами масхарабозов Хорезма являются, например, маска, изготовленная из козьей шкуры и конусообразная двурогая или просто лохматая шапка из козьего меха. По традиции масхарабоз одевает маску и костюм, привязывает к обуви колокольчик. Любое представление масхарабозов начиналось с напева мелодии песни актером и затем исполнялась пляска, которая в Хорезме и сегодня носит название «гуль уфари» (смешной танец). Самые старые масхарабозы Хорезма утверждают, что когда-то пляска называлась «маймун уфари» - «танец обезьяны», который можно назвать потешным кривлянием, пляской-дразнилкой. Сохранились сведения, что еще в начале 30-х годов двадцатого века эти танцоры надевали на себя маску обезьяны. [2. 26]

Мифологическая система обожествляла персонифицировала явления природы. В священной книге религии зороастризма «Авесте» (VII-VI вв. до н. э.) бог солнца, правды, победы Митра был могучим мужественным юношей, бесстрашным героем, а богиня воды Анахит представала в образе прекрасной сильной девушки, облаченной в роскошную мантию. Такими они представали в ритуальных танцах, действиях. Памятники изобразительного искусства сохранили разные варианты образа Анахит. Ученые доказывают, что обряды, посвященные ей, проходили оживленно, бурно, включали диалоги, хороводы, танцы. [2. 28]

Наряду с официальной зороастрийской религией, существовали и первобытные религии – языческие. Народы праздновали церемонии, обряды не только весной, но и осенью после уборки урожая. В народных играх, культо-

вых обрядах разыгрывались разнообразные веселые действа, пелись шуточные песни, исполнялись танцы, комические сценки, которые связаны были с подражанием животным, птицам, повадкам людей. Пантомимы преимущественно были связаны с трудовыми действами, обрядовыми традициями, спортивные – демонстрировали силу, навыки, пластику танцоров.

Танец бытовал в храмах, дворцах, открытых площадях, базарах, ярмарках, пиршествах, воинских состязаниях, домашних условиях и сопровождался мелодиями, песнями, ударными инструментами, групповыми инструментами, карсаками, звучащими предметами (ножами, саблями, палками), звуковой поддержкой голосом, восклицаниями танцующих. С точки зрения изобразительных, лексических, пластических, технических средств узбекский танец воплотил в себе разнообразные выразительные приемы, которые зародились в древности.

Центральная Азия наследница великих культур – и об этом свидетельствуют памятники изобразительного искусства, найденных при раскопках археологом С. Толстовым. Во дворце Топрак-кала (дворец хорезмских царей, III век н.э.) высотой 4-х этажного дома, на стене одного из залов сохранилось изображение двух танцующих юношей. Там же обнаружен специальный зал для танцев. На его настенных росписях частично сохранились изображения большого танцевального ансамбля, выступающего в масках. [2. 73]

В письменных источниках «Древняя история Тан» (618-907 вв н.э.), династия, которую называют золотым веком Китая, можно найти сведения о деятельности музыкантов, актеров, танцовщиков из Самарканда, Бухары, Кашгара, гастролировавших труппами в Китае. В них описывается, что в то время широко были распространены сотни танцев туркестанских народов. Особым успехом пользовались танцовщицы из Самарканда и Бухары, которые «с быстротой ветра, порывисто кружились влево и вправо, их фигуры, ноги, движения головы, мимика лица были выразительны, пластичны, их станы изгибались подобно дуге и где бы они ни выступали – во дворце, среди народа, в храмах – всегда показывали свое высокое искусство и очаровывали зрителей». [2. 100]

В XIV – XV века в эпоху Тимура и тимуридов наука, литература, изобразительное искусство, музыка, театр, танцевальное искусство достигают своего апогея. Множество рукописей и исторических трудов, дневники послов свидетельствуют, что Темур, создавший мощное, сильное государство, большое место уделял благоустройству страны и прежде всего своей столице Самарканд, которую он превратил в «сияющую точку мира». В трудах испанского посла Клавихо, ученого Али Езди есть множество подробных описаний массовых театрализованных празднеств, карнавалов в Самарканде в честь побед Темура, которые сопровождались музыкой, танцами, играми, пиршествами, различными песенными, танцевальными композициями, цирковыми номерами.

Источники свидетельствуют также о том, что во второй половине XV и в начале XVI века популярными были так называемые пляски дервишей зикри самоъ, ритуальный танец суфиев, последователей суфийского течения, в которых активное участие принимали музыканты, певцы, танцоры. [5. 68-69]

О танцевальном искусстве эпохи темуридов наглядно сви-

детельствует и восточная миниатюра. Изобразительное искусство гератской школы миниатюры – это уникальное явление, привлекающее особым видением мира прекрасного. Одновременно она является неоспоримым бесценным документальным свидетельством культурной жизни людей. Г. Пугаченкова пишет: «Характерной чертой восточной миниатюры является и то, что какой бы исторической давности не были изображенные на ней события, они передаются в современной художнику среде и обстановке. Будь то легендарный царь Джамшид, реальные Александр Македонский или Чингисхан, их костюмы, архитектура, бытовые детали соответствуют времени и месту создания миниатюры. Исследователям это всегда помогает в определении страны создания миниатюры, к познанию разного рода реалий соответствующего времени и места». [6. 9]

Многофигурные композиции восточной миниатюры позволяют видеть одновременно и архитектурный декор экстерьера и интерьера. Вместе с тем художники-миниатюристы: Камалиддин Бехзад, Мирак Наккаш, Махмуд Музаххиб, Касым-Али и другие умело отображали реальный быт того времени, запечатлевали внешний облик людей, отражали внутренний духовный мир человека. Особенно привлекало К. Бехзада изображение человека в действии: в труде, в охоте, в боевых сражениях, во время пиршеств. Художника интересовал процесс общения людей друг с другом, процесс игры на музыкальных инструментах, исполнения танца, пантомимических сцен, ритуальных обрядов.

Удивительной энергетикой проникнута одна из миниатюры художника Мирак Наккаша. По центру изображены фигуры четырех танцовщиков, возможно дервишей, которые темпераментно и иступлено исполняют танец, образуя круг. На них халаты с удлиненными рукавами, на головах чалма. Можно предположить, что это обрядовый танец или ритуал изгнания злых духов. Здесь же музыканты, играющие на нае и бубнист, отбивающий ритм. Художник передает непрерывность и интенсивность движений танцующих. Энергичные повороты головы, корпуса в разные стороны, размашистые взмахи рук вверх и вниз, развевающиеся полы халатов все это вместе создают атмосферу магии, гипнотического таинства происходящего.

Иной атмосферой проникнута миниатюра, где основное внимание сосредоточено на исполнительнице танца, находящейся в центре композиции. На ней синий длинный камзол с короткими рукавами, который подчеркивает стройность ее фигуры. Из-под полов камзола видны серые шаровары. На голове платок с налобными украшениями. Печально склонив голову, она смотрит вниз. Стан танцовщицы изогнут, колени немного согнуты. Выразительна гибкая пластика рук. Левая рука устремлена вверх, а правая вниз. Танец проникнут лирикой и драматизмом, навеян грустью и печалью.

На другой миниатюре можно видеть пиршество, где уже две танцовщицы легкими, плавными движениями идут по кругу. Они одеты в длинные платья, поверх которых надеты длинноватые, но с короткими рукавами камзолы. На голове у них платки, налобные украшения.

Атмосфера восторга, веселья, радости передана в миниатюре «Пир Бабура в Кабуле по случаю рождения Хумаюна». В центре танцовщица, одетая в желтое шелко-

вое платье, перетянутое в плечах белым шарфом. На голове конусообразная шапочка, украшенная узорчатым рисунком, на шее золотые украшения, а в ушах поблескивают серьги. На руках у танцовщицы кастаньеты, на босых ногах колокольчики.

Справа сидят женщины, играют на дойрах. Они поют песню. Слева сидят мужчины. Отчетливо видны музыкальные инструменты, на которых они исполняют жизнерадостную, задорную мелодию: тамбур, зурна, двойной барабан. Музыканты образуют круг, в котором танцовщица увлеченно отплясывает танец вместе с мужчиной, в руках у него сабли, буквально рассекающие воздух. Движения девушки легкие, быстрые, страстные, а у мужчины они выразительные, смелые, размашистые. Оба они темпераментно и эмоционально танцуют, отбивая ритм ногами.

На миниатюре из Тегеранского музея изображено пиршество девушек и женщин. Танцовщица исполняет изящный танец, ей аккомпанирует на дойре другая женщина, а третья – поет. Есть еще миниатюры в этом же музее, где изображены и мужчины – танцовщики Герата, которые обладали удивительным мастерством ритма, высокой изобретательностью. Двое исполняют смешной пантомимический танец, а в центре танцор, который сопровождает свой танец пением.

Еще на одной миниатюре, хранящейся в Тегеранском музее изображена одна из сцен пиршества, которое происходит в султанском дворце Хусейна Байкары. В прекрасном зале дворца 12 танцовщиц, образовав круг, исполняют хороводный танец. У них чуть открыты уста, видимо они поют танцуя, следуя за словами песни. Руки двигаются плавно, грациозно и изящно, они скользящими движениями танцуют на кончиках пальцев ног. Движения рук и ног синхронно, что говорит об исполнительском мастерстве, технической подготовленности. Это дает возможность предположить, что при создании танца проводились репетиции и при дворе Хусейна Байкары существовал коллектив танцовщиц и были мастера хореографы.

В частности, известный историк Зайниддин Махмуд Васифи, писатель, поэт, автор сборника исторических, биографических записей, мемуаров «Удивительные истории», где предстает широкая картина различных сторон жизни многих городов и регионов Средней Азии 15-16 веков, писал, что в те времена существовали школы, где обучали молодых людей искусству пения, танца, музыки.

Исторические памятники изобразительного, прикладного искусства Узбекистана, миниатюры гератской школы представляют собой поистине великое культурное наследие, убеждают в том, что узбекский танец на протяжении своего развития проходил достаточно интенсивный процесс развития. Формировались собственная танцевальная лексика, своеобразная пластика, свои приемы соотнесения движения и музыки. Язык танца складывался из комбинации жестов, положения рук, ног, движения корпуса, присущих пластике народа, его мыслям, чувствам, настроению. Тематика и содержание танцев были связаны с календарными празднествами, фольклором, народным эпосом, классической поэзией Востока.

Рядом с традиционным массовым народным танцем обретает значение и светский танец, где танцовщицы выступают в роскошных дворцах перед правителями, име-

нитой знатью в честь торжественных событий. Тематика, стиль и композиция светского танца были продиктованы событием, которому был посвящен праздник или пиршество. Почти всегда музыка включала вокальное сопровождение и движения танца следовали за текстом и словами песни.

Светский танец имел свою особую исполнительскую технику, которой были присущи свободная выразительность пластики тела, изящество осанки, мастерство владения существующими традициями, техническими приемами, навыками исполнительского мастерства, актерской игры. И еще способность к творческой интерпретации. Поэтому и исполняли этот танец преимущественно профессиональные танцовщицы и танцовщики, об этом можно судить по многочисленным восточным миниатюрам. Это были сольные, парные танцы, совместные женские и мужские. Здесь было все продумано до мелочей – сюжет, рисунок, композиция танца, его стилистические особенности, манера исполнения, костюм, украшения, головной убор, обувь, кастаньеты, колокольчики.

С ростом городов профессиональные исполнители объединялись в особые цеха. Различные культовые торжества и церемонии, свадьбы, народные игры не проходили без участия актеров, танцоров, комедиантов, музыкантов. Интерес народа к искусству расширял круг деятельности исполнителей. Существовали степные танцы, танцы горцев, мужские и женские танцы, культовые и светские, народные и профессиональные, которые в свою очередь подразделялись на лирические, героические, комические, пантомимические, ритуальные, обрядовые, спортивные, бытовые.

В конце XIX начале XX века узбекское танцевальное искусство было представлено танцами больших форм, общее название которых «катта уйин» и танцами малых форм «хона базм», а также группой театрализованных танцев, цирковых танцев и плясками-импровизациями. Выделялись три группы, получившие название: ферганская, бухарская, хорезмская школа. Каждая из этих школ писала известный театровед по истории хореографического искусства Узбекистана Л. Авдеева имеет свои особенности и своеобразие, обладает собственным стилем, манерой исполнения. [7. 15]

В середине 20-х годов XX века начинают активно организовываться государственные профессиональные танцевальные и танцевально-песенные коллективы, творчество которых основывалось на синтезе традиционных танцевальных ценностей и поиске новых путей развития уже узбекского сценического танца. В этом процессе участвовали знаменитые мастера танцевального искусства Тамара Ханум, Мукаррам Тургунбаевой, Исахар Акилов, которые творчески переосмысливали достижения традиционного народного танца. Их запоминающиеся сольные и массовые танцы, концертные программы становились яркими явлениями танцевального искусства Узбекистана, обогащали образную структуру танцевального языка разнообразием форм, стилей, жанров.

Знаменитый ансамбль «Бахор» можно без преувеличения назвать вершиной отечественной хореографии, вершиной узбекского сценического танца, вершиной мастерства М. Тургунбаевой. Блестящий хореограф, великолепный балетмейстер она создавала ори-

гинальный репертуар, обновляла выразительные средства танца, разрабатывала принципы хореографического текста, хореографических структур. Её поиски крепчайшими узами были связаны с классическими традициями и достижениями исполнительского мастерства. Интересные, самобытные решения формировали и развивали узбекский сценический танец, выявляли в искусстве ансамбля своеобразие национальных танцевальных традиций. Танцовщицы блестяще осваивали все тонкости академической школы классического танца и танца народного. Величавость и сдержанно-экспрессивная манера исполнения сочетались с восточной грацией и технически безупречным мастерством танцовщиц. В каждом танце присутствовали выразительность, одухотворенность, лирическая поэтичность, темпераментность, романтическая возвышенность.

Сегодня танцевальное искусство Узбекистана бережно сохраняет накопленные веками традиции, опыт ведущих хореографов и балетмейстеров страны. Однако вопрос о соотношении богатейших традиций танцевального искусства с современными тенденциями обновления остается актуальным и ждет своего решения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1) А.А. Хакимов «Искусство Узбекистана: история и современность» - Ташкент, изд-во журнала «San'at», 2010.

2) М.Р. Рахманов «Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года» - Ташкент, изд-во Г. Гуляма, 1981.

3) А.Ф. Корсакова «Узбекский оперный театр». Глава «Из глубины веков до 1917 г.» - Ташкент, 1961.

4) Назилов А.Д. «Наскальные изображения в графике (проблемы композиции и реконструкции)». Автореферат кандидатской диссертации, 2010

5) М.Х. Кадыров «Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана», том 1 – Ташкент, изд-во журнала «San'at», 2010

6) Г.А. Пугаченкова «Среднеазиатские миниатюры» - Ташкент, Главная редакция энциклопедий.

7) Л.А. Авдеева «Танцевальное искусство Узбекистана» - Ташкент, 1963.

INKLYUZIV TA'LIMDA RAQS MASHG'ULOTLARI OLIB BORISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shahzoda Xudoynazarova

O'zDXA o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda yangi O'zbekistonda xoreografiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar borasida so'z yuritilgan. Jumladan, yurtimizda imkoniyati cheklangan bolalarni hayotga bo'lgan faolligini oshirish, bu borada xoreografiya sohasining nechog'lik ahamiyatli ekanligi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xoreografiya, raqs, san'at, psixologiya, inklyuziv ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассказывается о работе, которая в настоящее время проводится в новом Узбекистане в области хореографии, о достигнутых успехах. В частности, речь пойдет о повышении жизнедеятельности детей с ограниченными возможностями в нашей стране, о том, насколько важна сфера хореографии.

Ключевые слова: хореография, танец, искусство, психология, инклюзивное образование.

Abstract. This article describes the work that is currently being carried out in the new Uzbekistan in the field of choreography, about the successes achieved. In particular, we will talk about improving the life of children with disabilities in our country, about how important the sphere of choreography is.

Keywords: choreography, dance, art, psychology, inclusive education.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda har sohada bo'lgani kabi xoreografiya sohasida ham bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'zbek xoreografiyasini rivojlantirish borasida ko'plab ijobiy yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida o'zbek xoreografiyasi tarixida shu kungacha "Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati

cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish" mavzusida biror-ta ilmiy ish qilinmagan edi. Ammo bu yil bu mavzuga juda katta e'tibor qaratildi, hatto bu mavzuni atroflicha to'liq o'rganish va jamiyatga tatbiq etish maqsadida davlat tomonidan grant ham ajratildi. Bularning barchasi O'zbekistonda xoreografiya sohasini har tomonlama ravnaq toptirish, O'zbekistonda milliy raqsni, xoreografiya akademizmi faoliyatini keng yo'lga qo'yish uchundir. Ta'kidlash joizki, ayni kunlarda O'zbekistonda yagona bo'lgan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida ko'plab yetuk kadrlar tarbiyalanmoqda. Ular orasidan nafaqat ijodkorlar, balki olimlar ham yetishib chiqmoqda. Hozirga qadar xoreografiya sohasida o'zbek tilida yozilgan adabiyotlar, ayniqsa chet el adabiyotlari juda kam edi. Hozirga kelib akademiya murabbiylari tashabbusi bilan bir qator ilmiy adabiyotlar tarjima qilindi. Shu bois Xoreografiya akademiyasi kutubxonasi kun sayin ilmiy asarlar bilan boyib bormoqda. Bizda avvallari amaliyotga kuchli e'tibor berilardi-yu, ammo ilmiy asarlar yetishmasligi sababli nazariya oqsab qolayotgan edi. Biroq so'ngi yillarda xoreografiya sohasida olimlarimizning izlanishlari o'z samarasini berdi, nazariya amaliyot bilan tenglashdi, akademiyaning ilmiy salohiyati, kadrlar saviyasi ko'tarildi. Bularning barchasi yangi O'zbekistonda bizga berilgan imkoniyatlar tufaylidir.

Shu kunlarda eng dolzarb mavzulardan biri, bu - biz yoritayotgan "Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish" mavzusidir. Bu borada, yuqorida ta'kidlanganidek, juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki bu mavzu nafaqat bizning yurtimizga, balki butun dunyo imkoniyati cheklangan bolalari uchun o'ta dolzarbdir. Agarda biz ushbu mavzumizni keng omma e'tiboriga havola eta olsak va amaliyotda to'g'ri qo'llasak, bu holat o'z samarasini beradi hamda ko'plab imkoniyati cheklangan bolalarning hayotda faolligini oshiradi. Shu ma'noda, nogiron va imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish, ularni ijtimoiy himoyalash, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishiga yordam berish masalalari kun tartibiga qo'yilmoqda.

XOREOGRAFIK HARAKATLAR ORQALI IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSDA TIBBIY-FIZIOLOGIK O'ZGARISHLAR SODIR BO'LADI

Bugunga kelib ularga ta'lim berishning turli usul va vositalari qo'llanilmoqda. Bizning nazarimizda, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishda san'at turlaridan, shu jumladan, xoreografiya san'atidan foydalanish juda samarali hisoblanadi. Chunki xoreografik harakatlar: raqs, ritmika, musiqa va jismoniy mashqlarning bir paytda hamohang bajarilishi imkoniyati cheklangan bolaning jismoniy, ruhiy-psixologik va aqliy rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratib bo'ladi, bolada o'ziga ishonch, qat'iyat bag'ishlaydi[1]. Xoreografik harakatlar orqali imkoniyati cheklangan shaxsda tibbiy-fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi, unda san'at orqali olamni anglash ko'nikmalari shakllanadi, uning estetik didi oshadi, eng

muhimi, o'zini jamiyat uchun kerakli shaxs deb hisoblay boshlaydi.

Ma'lumki, xoreografiya darslarida mashg'ulotlar ko'pincha xona devorlariga o'rnatilgan maxsus jihoz – moslama (stanok) oldida bajariladi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham uskuna oldida bajariladigan mashqlar juda muhim. Chunki bunday mashqlarni amaliy va nazariy jihatdan to'g'ri bajarish bola gavdasining, mushak va suyaklarining to'g'ri o'sishini ta'minlaydi, qaddini raso qilib, o'ziga bo'lgan ishonchni yana-da orttiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda o'qituvchi raqs san'ati tarixi, rivojlanish yo'llari, san'atning boshqa turlari bilan aloqasi to'g'risida turli xil suhbatlar olib bormog'i, bahs-munozaralar uyushtirmog'i zarur bo'ladi. Ayni paytda o'quv dasturlarining asosini o'zbek milliy raqslarini o'rganish tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Negaki, o'zbek milliy raqslaridagi turli harakatlarni: bosh, qo'l va oyoqning har xil holatlarini o'rganish, raqsda millat ruhi aks etganini anglab yetish orqali ularda o'z Vataniga muhabbat, o'z millatidan g'ururlanish va iftixor tuyg'ulari shakllanib boradi.

Bizningcha, respublikamizdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda ritmika va raqs fanlarini yo'lga qo'yish, buning uchun o'qituvchi-pedagog kadrlarni tayyorlash, maxsus o'quv dasturlari va qo'llanmalarni tayyorlash zarur. Chunki raqs va ritmika bilan shug'ullanish har qanday organizm uchun, xususan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun nihoyatda muhim bo'lib, ular uchun zarur bo'lgan sport yuklamasini beradi. Binobarin, ritmik va xoreografik harakatlar bolaning sog'lig'ini yaxshilaydi, ruhiy kayfiyatini ko'taradi, o'z tengdoshlari bilan muloqotni yaxshilaydi, o'zidagi nuqsonlarni yengib o'tib, jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga ko'maklashadi.

Bu jarayon, aslida, ancha murakkab bo'lib, bolaning tibbiy-psixologik holatlarini aniq hisobga olishni taqozo etadi. Nazarimizda, bu jarayonda musiqaga katta e'tibor beriladi, chunki musiqa orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini izhor eta oladilar.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ritmika darslari raqs o'rganishning boshlang'ich qadami hisoblanadi. Negaki, ritmika darslarida turli harakatlar musiqa jo'rligida bajariladi. Ritmika bilan shug'ullanish esa nogiron bolalarda abjirlikni, chaqqonlikni rivojlantiradi, shu jumladan, ularda gavda mutanosibligini ta'minlab, ulardagi ruhiy taranglik - stress va siqiluvchanlikni bartaraf etadi. Ritmika darslarida o'z badanini tushunishni o'rganadi.

Bunday darslar o'ziga xos yondashuvlarni taqozo etadi. Masalan, ritmika darslarini o'yin tarzida olib borish bolaning darsga qiziqishini orttiradi. Topshiriqlar ham didaktik prinsiplar asosida: oddiydan murakkabga, yengildan qiyinga qarab beriladi. Ritmika darslarining dasturlari ertak, hikoya shaklida bo'lishi yoki mashhur she'rlar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning maktab tadbirlarida, turli festivallarda, konsertlarda raqs nomerlari bilan qatnashishi ularda zavq-shavq, iftixor hissini uyg'otadi, natijada ular hayotda dadil, qo'rqmas bo'lishga o'rganadilar.

Sog'lom bolalarning xoreografik ta'limi jismonan kuchli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, harakatlarning muvofiqlashtirilgan koordinatsiyasi, harakatlanish dinamikasi, o'qitilgan xotira va diqqat markazida bo'ladi. Aksariyat bolalar uchun raqs darslari bir qator psixologik muammolarni hal qilish, tengdoshlari va o'qituvchilari bilan

muloqot qilishda aloqa muammolarini yengishga imkon beradi. Xuddi shu narsani maxsus bolalarning xoreografik ta'limi jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Tuzatish pedagogikasi bo'yicha nazariy ishlarda biz buning tasdig'ini topamiz. Masalan, tadqiqotchi E.G.Rechiskaya yozadi: «Sinfdan tashqari ishlarda kar va ko'zi ojizlar uchun nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, balki bolaning o'qituvchilar bilan yoki umuman guruh bilan muloqotini faollashtirish uchun hissa qo'shadigan ritmik va raqs darslari taklif qilinishi mumkin, ularning muammolarini aniqroq ifodalash, ichki qarama-qarshiliklar tajribasidir"[4] deya ta'kidlaydi.

Shaxsiy amaliyot natijalariga ko'ra, biz guruhga kiradigan eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalar darhol moslasha olmasligini ta'kidlaymiz. Guruh raqamlarini sahnalashtirish ularga o'zlarining psixo-emotsional holatlarini raqs orqali ifodalashning yangi usulini topishga imkon beradi. Boshqa bolalar bilan muloqotda ular yana-da ochiq bo'lib, his-tuyg'ularini ifoda etishning yangi plastik usullarini izlaydilar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limda raqs mashg'ulotlari olib borish juda muhimdir. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun xoreografiya san'atining o'rni va ahamiyati katta. Nogironligi bo'lgan bolalar bir necha tadqiqot va xoreografiya darslaridan so'ng ijobiy dinamika ko'rsatdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агафонова Н. А., Храмцов П.И. Физическое развитие и состояние здоровья старших дошкольников компенсирующих ортопедических групп // Гигиена и санитария. 2007.
2. Александрова Н.А. Балет. Танец. Хореография: краткий словарь танцевальных терминов и понятий. СПб.: Лань; ПЛАНЕТА МУЗЫКИ, 2008.
3. Алямовская В. Физкультура в детском саду: теория и методика организации физкультурных мероприятий. М.: Чистые пруды, 2005.
4. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании: пособ. для студ., аспирантов и препод, ин-тов физ. кул-ры. М.: ФиС, 1978.

RAQS TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Ravshan Jomonov

O‘zDXA professori v.b.,
filologiya fanlari nomzodi



Annotatsiya: Ma’lum bir fanni, kasb-korni egallashda, ta’lim-tarbiya tizimida terminlar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, o‘zbek raqsini ifodalovchi so‘z va terminlar ham mazkur sohani o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Lekin hozirga qadar o‘zbek raqs terminlari to‘liq o‘rganilmagan, ma’lum bir tizimga solinmagan. Bu borada yetarli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan, soha lug‘atlari juda kam. Shu sababli ham o‘zbek raqsiga doir terminlarni to‘plash, tizimga solish, ularning asosiy muqobillarini aniqlab, iste’molga kiritish dolzarb masalalardan sanaladi.

Kalit so‘zlar: raqs, o‘zbek raqsi, raqs terminlari, raqs maktablari, o‘zbek terminologiyasi muammolari, tushuncha va termin masalalari, terminologik lug‘atlar, izohli lug‘atlar.

Аннотация: Термины играют важную роль в изучении определенной науки, определенной специальности, в системе образовательно-воспитательного процесса. В том числе, слова и термины, выражающие узбекский танец, имеют особого значения в данной отрасли. Однако, до сих пор термины узбекского танца не изучены тщательном образом и не систематизированы, не проведены научно-изыскательные работы. Очень мало словарей по этой области. По этой причине собрать, систематизировать термины узбекского танцевального искусства, определить основные их эквиваленты является очень актуальным вопросом.

Ключевые слова: танец, узбекский танец, танцевальные термины, танцевальные школы, проблемы узбекской терминологии, вопросы понятия и термина, терминологические словари, толковые словари.

Annotation: Terms play an important role in the study of a certain science, a certain specialty, in the system of the educational process. In particular, the words and terms expressing the Uzbek dance are of particular importance to this industry. However, so far the terms of the Uzbek dance have not been thoroughly studied and systematized, scientific research work has not been carried out. There are very few dictionaries in this area. For this reason, to collect, systematize the terms of the Uzbek dance art, to determine their main equivalents is a very topical issue.

Key words: dance, Uzbek dance, dance terms, dance schools, problems of Uzbek terminology, issues of concept and term, terminological dictionaries, explanatory dictionaries.

Har qanday jamiyat rivojida, xususan, ilm-fan taraqqiyotida terminlar muhim rol o'ynaydi. Negaki, termin ma'lum bir fanning aosiy tushunchalarini aks ettiradi, qo'yilayotgan masalaning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Shu sababli ham fanlarni yoki muayyan bir sohani o'rganishda o'sha sohaga xos bo'lgan terminlarga jiddiy e'tibor qaratiladi. Jumladan, raqs san'ati ham o'ziga xos terminlar tizimiga ega. Binobarin, o'zbek raqs terminlari ham ma'lum bir davrda shakllanib, takomillashib bormoqda.

Shu o'rinda termin so'zining o'ziga maxsus to'xtalib o'tish zarur bo'ladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'rsatib o'tilishicha, termin "fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan tushunchaning aniq va barqaror ifodasi" hisoblanadi [1, 73]. Demak, raqs terminlari ham mazkur sohadagi tushunchalarning aniq va barqaror ifodalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, raqs terminlarini to'plash, tizimga solish, asosiy muqobillarini saralash va iste'molga kiritish ham muhim vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, o'zbek raqsi o'zining uzoq yillik tarixiga ega. Lekin undagi terminlarning shakllanishi, takomillashib borishi va qo'llanish doirasi turli bosqichlardan o'tgan. Asrlar davomida o'zbek raqsini ifodalovchi so'zlar maxsus terminlar sifatida qo'llana boshlagan. Bu borada "Katta o'yin" turkumidagi raqslarda ishlatilgan so'zlarni misol keltirish mumkin. "Albatta, har bir terminologik sistemaning shakllanishi va rivojlanishi ayni shu sohaning tarkib topa borishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liq va o'ziga xos jihatlariga ega. Shunga o'xshab, o'zbek tili xoreografik terminologiyasining o'zbek milliy raqs san'atining tarkib topishi, shakllanishi va rivojla¬nishi bilan bog'liq o'z yo'li va genetik asoslari mavjud" [2, 5].

Jumladan, o'zbek raqs terminologiyasi ham o'z shakllanish tarixiga ega bo'lgan. Avvalo, insoniyatning ilk davridanoq paydo bo'lgan mehnat qo'shiqlari ta'sirida paydo bo'lgan raqslarni ifodalovchi so'zlar ham shakllanib borgan. Ular juda ibtidoiy bo'lib, masalan, tosh, qayroq kabi so'zlar bilan bog'liq bo'lgan. Kishilik jamiyatining rivoji bilan birga narsa-hodisalarni nomlash, ulardagi nozik jihatlarni atash ham takomillasha borgan. O'zbek tilining qadimiy ildizlari qaysi davrlarga borib taqalsa, raqs terminlari ham taxminan o'sha davrlarga borib taqaladi. Biroq tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida san'atga, jumladan, raqs san'atiga bo'lgan munosabat o'zgarib turganligi sababli terminlarning rivojida ham to'xtalishlar bo'lgan. Ochig'ini aytganda, XX asrning boshlariga kelib o'zbek raqsi terminlari qat'iy tarzda shakllanib, takomillashib bor-

gan. XX asrning 2-yarmiga kelib, ayniqsa, raqsga bo'lgan e'tibor va talabning oshishi tufayli o'zbek raqs terminologiyasi takomillasha boshlagan.

O'zbek raqs terminlarini bir necha hududlar kesimida ham o'rganish mumkin. Chunki hozirgi o'zbek raqsida Farg'ona, Xorazm va Buxoro raqs maktablari bir-biridan ijro uslubiga ko'ra farqlanib turadi. Tabiiyki, ularda qo'llanadigan terminlar ham o'zaro farqlanadi. Shu ma'noda mazkur raqs maktablaridagi raqs terminlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni farqlay olish, bir tushunchani ifodalovchi lug'aviy sinonimlarni ajratib olish, ular orasidagi asosiy lug'aviy birlikni belgilash ham muhim terminologik vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, san'atning bir turi hisoblangan raqsda axborot uzatish to'lig'icha noverbal vositalar - bosh, gavda, qo'l, oyoq, qo'l panjalari, ko'z, qosh, ularning holat va harakatlari, imo-ishoralari orqali amalga oshiriladi. Uning boshqa san'at turlaridan ajralib turadigan eng muhim xarakterli jihati ham shunda. Shu noverbal vositalarning nomlari esa raqs san'atining terminologik tizimini tashkil etadi. Mana shunday noverbal vositalar orqali ifodalanadigan harakat, holat va imo-ishoralar turli hududlarda turlicha nomlanishi ham mumkin. Masalan, Buxoro va Farg'ona raqs maktabalarida qo'llanadigan, ma'nosi bir-biriga yaqin, ammo ma'no-mazmun jihatidan farq qiladigan quyidagi terminlar mavjud:

Yelpish -Buxoro raqsida ayollar va erkaklar tomonidan ijro etiladigan, musiqiy o'lchami 2\4 bo'lgan, 1 taktli asosiy aralash harakatlardan biri. Siljish bilan ijro etiladi. Dastlab oyoqlar 6-holatda, chap oyoq oyoq uchida, tizzalar bukilgan bo'ladi; o'ng qo'l 1-va 6-holatlar orasida tirsakka bukilib, tirsak pastga yo'naladi, kaft tashqariga, barmoqlar yuqoriga qaragan; chap qo'l dastlabki holatda ko'ylakni polda sudraydi. Gavda 3-, bosh 1-holatda. 1-taktda oyoqlarning "Yon yo'rg'a" harakati bilan oldinga yurish qilinadi. Bir deganda o'ng oyoqda to'lig'i bilan katta bo'lmagan shaxdam qadam tashlanadi. Ayni paytda o'ng qo'l kaftini ichkariga keskin qaratib, panjani yuzga yaqinlashtiradi, bosh o'ngga qayriladi. Bir deganda chap oyoq 6-holatda o'ng oyoqqa oyoq uchiga yaqinlashadi. Ikkinchida oyoqlarning birinchidagi harakati takrorlanadi, ayni paytda o'ng qo'l harakatni teskari tartibda bajaradi, bosh chapga qayriladi.

Yeng hilpillatish - Farg'ona raqsida ayollar ijro etadigan qo'l harakatlaridan biri. Uzun, ammo unchalik keng bo'lmagan ko'ylak yengi bilan ijro etiladi. Kamzulning yengi tor. a) qo'llar dastlabki holatda: o'ng qo'l 1-va 6-holatlar orasidan o'tib, yeng uchi chap yelkaga tekkiziladi. Panja kafti bilan chap yelkaga qayriladi. Ayni paytda chap qo'l 1-holat orqali o'tib, sirti bilan bel orqasiga qo'yiladi. So'ngra o'ng qo'l 6-va 1-holatlar orqali 2-holatga ko'tariladi, panjani kaft bilan yuqoriga itqitib, yeng uchi boshga tushiriladi; "Qiyg'ir bo'yin" bajariladi. b) qo'llar dastlabki holatda. O'ng qo'l 1- va 6-holatlar orqali o'tib, ichkariga va tashqariga "Yuzni yeng bilan yelpish" harakatini qiladi, so'ngra 6-va 1-holatlar orqali bosh darajasiga ko'taradi. Panja kafti bilan yuqoriga yo'naladi. "Qiyg'ir bo'yin" bajariladi. O'ng qo'l harakati vaqtida chap qo'l dastlabki holatda qoladi. [3, 71-72].

Ko'rinadiki, raqs harakatlari turli hududlarda turlicha nomlanishi, o'ziga xos ma'no nozikligiga ega bo'lishi mumkin. Biz raqs terminlaridagi ayni shunday nozik nuqtalarga e'tibor qaratishimiz, ma'no tovlanishlarini his etishimiz hamda o'z o'rnida qo'llay olishimiz zarur. Masalan, 1952-yilda

sahnalashtirilgan “Pilla” raqsidagi terminlarga e’tibor qaratsak, bir qator lisoniy hodisalarni kuzatish mumkin: Mazkur raqsda mehnat jarayoni, ipak qurtini boqish, keyin esa pilladan ipak matolar to‘qish ko‘rsatilgan. Raqs ipak ro‘molcha - so‘zana tikish bilan yakunlanadi. Raqsning leksik qatlami kator terminlar bilan xarakterlanadi, ular orasida raqqosaning libosi va bezaklarini anglatuvchi atamalar ajralib turadi: do‘ppi, nimcha, lozim (kizil xonatlasdan jiyagi bilan), kavushcha (yalang oyoqqa kiyiladi), sirg‘a, taqinchoqlar, bilaguzuk. Qo‘l, oyoq, gavdaning bu raqsdagi harakatlari alohida terminlar orqali ifodalanadi. Oyoq harakatlari: oddiy yurish, rasmi ufori, tez mayda yurish, oqsatma, charx qadam. Qo‘l harakatlari: gulbargi, barg uzish, barg tashlash, shox, un tortish, un aylantirish, rez, to‘qimachilik harakati, uyalish, kelin salom, iyak harakati, labi g‘uncha, yeng tortish, chevar harakati, ipni ninaga o‘tkazish, so‘zana tikish, qo‘l silkitish, belbog‘ boylash [2, 29]. Keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, ma’lum bir raqsda qo‘llangan terminlarning o‘zi ham bir qator leksikografik muammolarni hal etishni taqozo etadi.

Xoreografik terminlar masalasidagi yana bir muammo ko‘p tarkibli terminlar masalasidir. Ma’lumki, terminlar bir so‘zdan iborat bo‘lishi yoki bir necha so‘zlardan ham tarkib topishi mumkin. Masalan, baliq, belbog‘, belquchar, dovul, gardish, gulruh, ilon, jiyak, mo‘ralash, oqsatma, qaychi, xayol kabi raqs terminlari bir so‘zdan iborat. Ikki aylanish, ilon izi, ko‘ngil jilvasi, ko‘nglim senda, labi shakar, nuqtali yurish, qiyg‘ir bo‘yin, qosh uchirish, to‘rt tepish, yon yo‘rg‘a, yonimda bo‘l, yoqa o‘yin kabi ikki so‘zdan iborat terminlar ham bor. Ayni paytda larzon yo‘rg‘ali aylanish, oyoq uchida tepma, uch qadam va kichik sakrash, zang o‘yin yurishi, chalmash sakrashli yurish, chalmash yon yo‘rg‘a, bir joyda nuqtali aylanish kabi uch yoki to‘rt qismli terminlar ham uchraydi. Mazkur terminlarni tartibga solishda ham leksikografik, ham imloviy muammolar yuzaga keladi. Avvalo ularni qo‘shib yoki ajratish masalasi kelib chiqadi. Chunki ularning ko‘pchiligi hanuzga qadar yaxlit bir urg‘u atrofida birlashadigan holatda emas. Shu boisdan ularni alohida ajratib yozish lozim bo‘ladi. Ayni paytda belquchar, belbog‘ kabi yaxlit bir lug‘aviy ma’no angalatadigan, yagona mantiqiy urg‘uga ega bo‘lgan so‘zlar ham bor. Demak, bunday terminlarni lug‘atlarda berishda bir qator munorazali holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Tekshirishlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek raqsini ifodalovchi terminlar etimologik jihatdan bin necha tillardan o‘zlashtirilgan. Jumladan, hozirgi o‘zbek raqsi terminlari orasida fors-tojik, arab tillaridan, shuningdek, rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar ham mavjud. Ayniqsa, fors-tojik tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar anchagina: gulruh, sildirma, mushak, labi g‘uncha, larzon, mokki, ufori, xayol, shodlik va h.k. Shuningdek, spiral aylanish, sadr, muqomlar kabi boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar ham uchraydi. “So‘z o‘zlashtirishdagi asosiy sabablardan biri sifatida o‘zlashmalardagi terminologik aniqlik va barqarorlikni ko‘rsatish mumkin. Ayni shu xususiyatlar, nazarimizda, so‘zning o‘zlashib ketishi uchun juda muhim. Chunki qabul qiluvchi tildagi birliklarning aksariyati ko‘p ma’noli bo‘lishiga qaramasdan, ilm-fan taraqqiyoti natijasida yuzaga kelayotgan lisoniy ehtiyojlarni qondira olmaydi, obyektiv borliqda mavjud bo‘lgan predmet va voqea-hodisalarni nomlashga ojizlik qiladi. Buning ustiga o‘z qatlam so‘zlari ijtimoiy-tarixiy sabablarga ko‘ra turg‘un

iboralar – frazeologizmlar bilan bog‘lanib ketadi. Ayni shu holat ham o‘zlashayotgan yangi tushunchani ifodalashga monelik qilishi mumkin" [4, 16].

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki,o‘zbekraqsterminologiyasini tartibga solish, tizimlashtirish hamda ulardan oqilona foydalanish uchun bir qator ishlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Binobarin, kundan-kunga boyib, takomillashib borayotgan raqs terminlari orasidan terminologik talablarga to‘liq javob bera oladigan so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olish zarur. Tavsiya etilayotgan terminlar imkoni qadar o‘zbekcha bo‘lishi yoki o‘zbekcha qolipda yasalmog‘i maqsadga muvofiqdir. Har bir tavsiya etilayotgan terminda milliy mentalitet ufurib turmog‘i, o‘zlashshib ketishi oson bo‘lishi hisobga olinishi darkor. Raqs terminlarini tartibga solgan holda terminologik, imlo va izohli lug‘atlar tayyorlash va tezda chop ettirib talabalarga yetkazish zarur. Ayni paytda har bir mashg‘ulotda raqs terminlarining ijtimoiy, siyosiy-madaniy va ilmiy jihatlari tushuntirib borilmog‘i o‘rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. To‘rtinchi jild. O‘zbekiston ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, - T.: 2020.

2. Po‘latova O‘. O‘zbek xoreografiya terminologiyasining shakllanish manbalari va rivojlanishi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. –T.: 2001.

3. O‘zbek raqsi terminlari izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: Jomonov R., Murodova M., Xudoynazarova Sh., Oripov D. –T.: Fan ziyosi, 2021.

4. Jomonov R. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imlo muammolari. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2013.

БОГАТСТВО ТАНЦЕВАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА. ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ

Елена Кари-Якубова,

преподаватель ГАХ Уз

Аннотация. В статье рассматривается процесс формирования узбекского народно-сценического танца, особенности национальных локальных стилей, создание системы обучения, вклад мастеров искусств в развитие основных школ узбекского танца, узбекское танцевальное искусство на современном этапе

Ключевые слова: формирование школ узбекского сценического танца, преемственность, сохранение аутентичности, перспективы развития.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalq sahna raqsining shakllanish jarayoni, milliy mahalliy uslublarning xususiyatlari hamda o‘quv tizimini yaratish masalalari muhokama qilinadi. O‘zbek raqs san’ati asosiy maktablarining rivojlanishiga san’at ustalarining qo`shgan hissasi va o’zbek raqs san’ati hozirgi bosqichdagi faoliyati tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek sahna raqsi maktablarining shakllanishi, uzviyligi, aslini saqlash, rivojlanish istiqbollari.

Annotation. The article examines the process of formation of the Uzbek folk-stage dance, the peculiarities of national local styles, the creation of a training system and the contribution of art masters to the development of the main schools of Uzbek dance. Uzbek dance art at the present stage.

Key words: formation of schools of Uzbek stage dance, continuity, preservation of authenticity, development prospects.

У народов Средней Азии на протяжении многовекового исторического развития сформировался синтез духовной культуры, объединённый территориально, имеющий схожие этнические черты, верования, традиции. Узбекистан всегда находился на перекрёстке Великого шёлкового пути, в центре различных миграций и исторических событий. Постоянное общение с другими народностями способствовало взаимопроникновению и обогащению культур, различных сфер жизни.

«Следует особо отметить, что прошедшие испытание временем и укоренившиеся в быту узбеков и других на¬родов Средней Азии общественные праздники, традиции и обряды отражают все лучшее в человеке, подлинно на¬родные и общечеловеческие ценности. В положительных традициях и обрядах народа находят свое выражение его национальный дух, его мышление и сознание, особеннос¬ти характера и психологии. Формировавшиеся в течение веков и бережно хранившиеся положительные обычаи традиции, такие, как преданность родным, уважение старших, забота о родителях, сиротах и пожилых, гос¬теприимство, взаимная поддержка родственников, стрем¬ление оберегать честь семьи и достоинство женщин, сохранение светлой памяти об умерших родных и близ¬ких находят яркое выражение в народных праздниках и обрядах, имеющих общественный характер». [1, с.190-191]

Танцевальный фольклор носит синкретичный характер, где народный танец, музыка, песня, слово, игра, народно-прикладное искусство раскрывают характер и особенности носителей культуры конкретной местности. С развитием общества, изменением общественно-экономических и политических условий происходит разделение единого синкретического народного искусства на отдельные жанры - танец, песня, музыкально--инструментальное, декоративно-прикладное творчество.

В свою очередь, танцевальное искусство, развиваясь, выделяет характерные локальные черты, присущие непосредственно определённому региону с его этническими особенностями.

Разнообразие танцевальной культуры является достоянием Узбекистана. Каракалпакстан, Фергана, Бухара, Хорезм, Сурхандарья, другие области – при определённом сходстве танцевальной лексики имеют свои яркие неповторимые краски, пластику и способ самовыражения, присущие своему региону.

Начало XX века ознаменовано формированием и стремительным развитием сценического танцевального искусства. Это время сильных, энергичных, незаурядных личностей, влюблённых в народное творчество, песни, танцы, поэзию.

Созданная Народным артистом Узбекистана Мухитдином Кари-Якубовым в 1926 году Первая Этнографическая труппа, активно собирает и бережно обрабатывает материалы, собранные во время гастрольных поездок по родной стране. Родной узбекский танец, сохраняя аутентичность, возвращается народу в сценической форме.

Юсуп Кызык Шакарджанов, Уста Алим Камилов, Тамара Ханум разрабатывают систему обучения узбекскому танцу «Дойра дарс», на основе ритмов и движений ферганского танца «Каттта Уйин». Талантливая ученица и последователь Мукаррам Тургунбаева продолжила развитие цикла уроков, опираясь на свою сценическую и педагогическую практику. Цикл уроков «Дойра дарс» сформирован по принципу от простого к сложному, на сегодняшний день состоит из пяти частей и

является основой изучения узбекского танца.

Уроки «Дойра дарс» были полностью описаны хореологом Народной артисткой Узбекистана Розиёй Каримовой, в сотрудничестве с Народным артистом Каракалпакстана, Заслуженным деятелем искусств Узбекистана Коркмасом Сагатовым. Эти учебные пособия позволили изучать узбекский танец в отдалённых районах.

Благодаря великим мастерам, Народным артистам Узбекистана, танцевальное искусство Узбекистана обрело профессиональную сценическую форму.

Это Тамара Ханум, первая танцовщица, которая шагнула на сцену с открытым лицом вместе со своим наставником Уста Алимом Камиловым, который аккомпанировал своей ученице на дойре.

Это Мукаррам Тургунбаева - её сольное исполнение навсегда покорило сердца зрителей, а созданный ею в 1957 году ансамбль народного танца «Бахор» стал легендой. Постановки Мукаррам Тургунбаевой – «Катта уйин», «Баёт», «Андижанская полька», «Фергана рубаи», «Тановар» и многие другие - являются классическими образцами ферганской школы танца.

Это Исахар Акилов артист и главный балетмейстер «Большого ансамбля песни и танца» (с 1937 года) - яркий представитель бухарской школы танца, которую активно развивал и в своих постановках предал своим многочисленным ученикам. «Большой бухарский танец Тантана» в который входит «Мавриги» и «Ларзон», «Давра» - образцы бухарской школы танца. Ансамбль песни и танца «Шодлик», являясь преемником «Большого ансамбля песни и танца», в настоящее время под руководством балетмейстера Народного артиста Узбекистана Кадыра Муминова принимает активное участие в праздничных концертах и с успехом гастролирует по стране и за рубежом.

Это Гавхар Рахимова, которая в 1968 году привезла в Ташкент группу артистов из Хорезма и организовала ансамбль «Лязги», который под её руководством на протяжении долгих лет радовал зрителей своим искусством. Ансамбль «Лязги» и сегодня продолжает свой путь.

Это Елизавета Петросова формировала и развивала каракалпакский народный сценический танец, который был не просто принят народом, а прочно вошёл в его жизнь. Красота духовной культуры каракалпаков нашла яркое отражение в традиционных игрищах, обрядах, праздничных ритуалах. Вдохновение народа отражается в песнях и сказаниях, в дастанах и в уникальных произведениях прикладного искусства. В основе тематики мужских танцев лежат трудовые, подражательные, игровые сюжеты. В женском танце используются приемы народного женского рукоделия, особенности быта, нравов и обычаев ткачих и вышивальщиц, а также элементы свадебного ритуала.

Созданный Елизаветой Петросовой в 1956 году ансамбль песни и танца «Айкулаш» и сегодня продолжает свою деятельность. Народный артист Каракалпакстана, Народный артист Узбекистана балетмейстер Полат Мадреимов сохраняя заложенные традиции, создаёт новые композиции, развивая каракалпакский танец.

Активная работа по освоению и переработке фольклорного этнического материала в народно-сценический, формирование системы обучения привело к детальной разработке каждого локального стиля - формированию трёх основных школ: ферганской, бухарской, хорезмской.

Ферганский стиль можно сравнить с весной, когда природа ожи-

вает и всё вокруг расцветает, пробуждается к жизни. Ферганская школа танца отличается особой напевностью, женственностью, плавностью, певучестью рук. Движения отображают дуновение ветерка, журчание ручейка, раскрытия бутона цветка. Девушки Ферганы нежны и застенчивы. В то же время ферганская школа обладает виртуозной техникой. В ферганских танцах часто встречаются вращения, мелкий бег на полупальцах, который редко встречается в бухарских, или хорезмских танцах. Мужской танец насыщен энергичными движениям, игрой мускулов, отражающими состязательный дух наездников.

Бухарский стиль подобен знойному лету – изобилие и роскошь золотошвейной красавицы-Бухары, наполнены достоинством и негой. Богатство исторических и культурных пластов древнего города, послужило главным источником яркой самобытности и уникального своеобразия танцевальной школы Бухары.

В V веке в мемуарах Китая имеются сведения о высоком искусстве бухарских мастеров танца. «В упоминаемых источниках восторженно описывается восхищение, которое у зрителей вызывали туркестанские танцоры и танцовщицы своим тонким и изящным искусством, в особенности танцовщицы из Самарканда и Бухары» - отмечает М. Рахманов. [2, с.100]

«Бухарские танцы - гордые, величавые, наступательные, их движения переливчаты, как вышитые золотом изделия бухарских рукодельниц. Поступь бухарских танцовщиц пружинистая, с пристукиванием каблучками, движениям рук присуща предельная эмоциональная насыщенность» - так характеризует бухарский танец Л. Авдеева. [3, с.261]

Хорезмский стиль напоминает золотую осень – щедрое яркое солнце, весёлые свадебные гуляния, праздники урожая. Хорезмский танец отражает характер народа, его темперамент, энергетику. В женском танце движения связаны с растительным миром, в мужском танце движения часто подражают миру животных – орлы, рыбы, суслики.

«Лязги» является неотъемлемой частью богатой танцевальной культуры Хорезма. «Лязги» узнаем по первому звуку, по первому движению, его невозможно спутать с другими танцами. 12 декабря 2019 года ЮНЕСКО была принята Резолюция о включении хорезмского танца «Лязги» в Репрезентативный список нематериального наследия человечества ЮНЕСКО, как элемент культурного наследия Узбекистана.

В настоящее время необходимо отметить значительный вклад в развитие хорезмской школы танца Народной артисткой Узбекистана Гавхар Матъякубовой. Пройдя творческий путь от танцовщицы до балетмейстера, Гавхар-опа вложила свои знания и опыт в научную деятельность, написав несколько книг о «Лязги».

Г. Матъякубовой поставлено много оригинальных танцев, основанных на историческом материале. Сегодня балетмейстер создаёт интересные зажигательные композиции, в которые умело вплетает новые современные движения, наполненные солнцем и юностью. Гавхар-опа, как наставник, воспитала молодых виртуозных танцовщиц, таких как Дильноза Артыкова, Дильноза Мавлянова.

«В целях сохранения и развития вековых традиций искусства «Хорезмский танец — лазги», укрепления уз дружбы и братства между народами посредством танцевального искусства, дальнейшего расширения масштаба творческого сотрудничества и культурных связей на международном уровне» вышло

постановление Президента Республики Узбекистан об организации и проведении Международного фестиваля танца «Лазги». [4]

Первый Международный фестиваль танца «Лазги» и научно-практическая конференция в рамках фестиваля прошли на территории комплекса «Ичан – Кала» города Хива с большим успехом.

Узбекская танцевальная культура XXI века развиваясь, обрела более массовый характер. Широкое празднование дня весеннего равноденствия «Навруз», концерты, посвящённые дню Независимости «Мустакиллик», примечательные масштабностью и большой популярностью в народе, способствовали появлению новых танцевальных групп и ансамблей.

Сегодня танцевальное искусство Узбекистана наряду с известными коллективами представлено ансамблями «Сабо», «Навбахор», «Навруз», «Тумор», «Тошкент зеболари». В своих танцах, новых программах балетмейстеры отражают своё видение узбекского сценического танца настоящего времени.

Значимым радостным событием для узбекского народа стало Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах дальнейшему развитию искусства национального танца», где говорится об организации деятельности Государственного ансамбля танца «Бахор» имени Мукаррам Тургунбаевой. [5]

Возрождение легендарного коллектива, бесконечно любимого народом, на протяжении многих лет являвшегося визитной карточкой Узбекистана - важный шаг в развитии танцевального искусства.

Репертуар ансамбля, созданный Народной артисткой СССР Мукаррам Тургунбаевой, является классическим образцом узбекской национальной хореографии. Сохранение наследия и развитие узбекского сценического танца одна из важнейших задач, стоящих перед молодым ансамблем «Бахор» и его руководителем Народной артисткой Каракалпакстана, Заслуженной артисткой Узбекистана Зиёдой Мадрахимовой.

Мир стремительно развивается, искусство движется вперёд, его обновление естественно и необходимо. Искусство увлекает, воспитывает чувство прекрасного, формирует взгляды. Поэтому задача балетмейстеров, помня об истоках, создавать новые созвучные духу времени произведения, в которых будет отражено всё лучшее что заложено в человеке, устремлённым в будущее.

Список литературы:

1. Иса Джаббаров «Узбеки» Ташкент Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании «Шарк» 2007, стр.190-191

2. Рахманов М. «Узбекский театр от древнейших времен до 1917 года». Т.. 1981. стр. 100

3. Авдеева Л. «Из истории национального хореографического искусства Узбекистана». Т, 2001. стр. 261.

4. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об организации и проведении Международного фестиваля танца «Лазги». https://lex.uz/docs/5020237

5. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах дальнейшему развитию искусства национального танца» https://lex.uz/docs/4724387

MUSIQIY MEROSIMIZ SARCHASHMASI

Baxtiyor Ashurov,

O'DK San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya: Shayboniylar (1501-1598) davlatining poytaxtiga aylangan Buxoroga zamonasining ko'zga ko'ringan ilmu ma'rifat, adabiyot va san'at ahli intila boshladi hamda unda yangi tarixiy sharoitlarda she'riyat, musiqa va tasviriy san'atning "Buxoro maktabi" deb nom olgan uslubi taraqqiy topdi.

Ushbu maqola Buxoro ilm va san'at ahli orasida Hirot oltin davri ta'siri ostida shakllangan yirik olim va sozanda Najmiddin Kavkabiy (1468-1532/1533)ga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: ilm, madaniyat, musiqa, nazariya, manba, sozanda, hofiz, bastakor.

Аннотация: Бухара, ставшая столицей государства Шейбанидов (1501-1598 гг.), стала стремиться знатоки литературы и искусства того времени, так как зарождается новая школа поэзии, музыки и изобразительного искусство, известное как "Бухарская школа".

Данная статья посвящена Наджмиддину Кавкаби (1468-1532/1533), великому ученому и музыканту, сформировавшемуся под влиянием гератского золотого века среди ученых науки и искусства Бухары.

Ключевые слова: наука, культура, музыка, теория, источник, музыкант, хафиз, бастакор.

Annotation: Bukhara, which became the capital of the Sheibanid state (1501–1598), began to strive for connoisseurs of literature and art of that time, as a new school of poetry, music and fine arts, known as the "Bukhara school", was born.

This article is dedicated to Najmiddin Kavkabi (1468-1532/1533), a great scientist and musician, who was formed under the influence of the Herat Golden Age among scientists of science and art of Bukhara.

Keywords: science, culture, music, theory, source, musician, hafiz, bastakor.

Najmiddin Kavkabiy, bizga ma'lum ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda Mavlono Gavhariy oilasida, taxminan 1468 yilda tavallud topgan. Manbalarga ko'ra u Buxoroda ulg'ayib, o'sha davrda madaniyat markazi bo'lmish Hirot shahrining madrasalaridan birida tahsil ko'rgan va turli fanlar sohasida, shu jumladan musiqa nazariyasi, ritm va aruz qoidalaridan bahs etuvchi ilmiy risolalar yozgan, degan ma'lumotlar ham mavjud [Is'hoq Rajabov. Maqomlar. Toshkent, 2006. 35-bet].

Kavkabiy yoshligida astronomiya bilan shug'ullangan. Alisher Navoiy (1441-1501) «Majolis un-nafois» asarida uni munajjim bo'lganligini tilga oladi va shoir sifatidagi bitta baytini keltiradi. Navoiyning ta'kidlashicha, Kavkabiy (yulduzli) taxallusini ham Najmiddin astronomiya bilan shug'ullangani uchun orttirgan. Navoiy bobomiz uni ko'rganligi va uchrashganligini tilga olmaydi. Hazratning yaqin do'stlari unga Kavkabiy bilan uchrashganligini aytishgan ekan. «Majolis un-nafois»dagi mo'tabar so'zlarga diqqat bilan razm solaylik.

"Mavlono Kavkabiy – munajjim yigitdur va o'z fanig'a munosib taxallus ixtiyor qilibdur. Faqir andoq hayol qilurmenkim, oni ko'rmaymen. Ba'zi yoronlar derlarkim, ko'rubsen, xotirg'a kelmadi. Bu matla' aningdurkim:

Be ruxash har qatrai xun bar sari mujgon maro,
Mash'ale boshad furo'zon dar shabi hijron maro"

[Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. Majolis-un nafois. O'n ikkinchi tom. Toshkent, 1966. 111-bet. Kavkabiy baytining ma'nosi quyidagicha: (badiiy tarjimasi) Kiprigim qonlarin qizil chirog'i, Mash'al bo'lib chaqnar hajring firog'i].

Alisher Navoiy uni eslay olmaganligiga bois "Majolis un-nafois" yozilgan paytlarda Kavkabiy hali talaba bo'lib, xoslarning nufuzli majlislar doirasida emasligidan dalolat beradi. Bu paytda Kavkabiy asosiy ixtisosi ilmi nujumga qiziqib, ba'zida ash'orlar bitib yurgan vaqtlari bo'lgan bo'lsa kerak. Keyinchalik Hirot musiqa davralaridan bahramand bo'lgan Kavkabiy musiqashunoslik sohasida ham kamolga yetdi. Bu matnning e'tibor beradigan muhim jihati shundaki, Alisher Navoiy Kavkabiyni tazkiraning uchinchi majlisi yozilayotgan paytda, ya'ni tirik, qaynoq ijod bilan shug'ullanayotgan va buyuk alloma ta'biri bilan aytganda, "ba'zining mulozamatig'a musharraf va sarbaland va ba'zining musohabatidin xushnud va bahramand" bo'lganlar, jumladan, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Binoiy kabi ulug'lar panohidagilar qatorida zikr qilganligidir. Demak, Alisher Navoiy yosh talaba bo'lmish Kavkabiy bilan bevosita uchrashib, uning yorqin iste'dodidan xushnud bo'lgan deyishimiz ham mumkin. Kavkabiy Ubaydulloxon (1511-1540) saroyida xizmat qilgan.

Hasanxo'ja Nisoriy Kavkabiyning Kulliyotidan olingan o'n ikki maqom va olti ovoz ta'rifi to'rt baytda ifodalagan mashhur g'azalini keltirgandan keyin, uning mahoratli shoir sifatidagi bir g'azalining maqtasini namuna ko'rsatadi:

Chun Kavkabiy hayron,
shodam bo g'ami xubon,
Ishq ast maro pesha,
har kas hunare dorad.

Mazmuni:
Kavkabiy yor g'amidin
ersa shodman,
Ishq aro har kimda bir
hunar boridin hayron.

Demak, Kavkabiy mohir shoir sifatida ham lirik g'azallar ijod qilganligi va devon tuzganligi aniq. Lekin, bu manba hali bizgacha ma'lum emas. Uning devon tuzganligini Darvish Ali Changiy ham aytib o'tgan [Darvish Ali Changiy. O'zR FA SHI. Qo'lyozma № 449. 71-a varaq].

Ubaydulloxon saroyining ko'rki bo'lgan Najmiddin Kavkabiy haqida Hasanxo'ja Nisoriy (1516-1597) "Muzakkiri ahbob" («Do'stlar yodnomasi») asarida quyidagicha zikr qilib o'tgan:

"Va mullo Kavkabiy musiqa sohasida Ubaydulloxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta'lif va iyqo' haqida so'z yuritgan, hajm jinslar bahsini ham keltirib... O'n ikki maqomni olti ovozda nazm qilib manzumaga kulliyot bog'lagankim, musanniflar bir ovozdan bu dilkash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar va bu savt beg'asht dillarda o'zining latofati tufayli toshga o'yilgan naqshday saqlanib qoladi... Hiriydan Buxoroga qaytayotganida yo'lda shahodat sharbatini tatigan" [Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent, 1993. 140–141-betlar].

Aytish joizki, Kavkabiyning nafaqat tavalludi, balki, o'limi bilan bog'liq ma'lumotlarda ham noaniqliklar ko'zga tashlanadi. Xususan, Is'hoq Rajabov "Maqomlar" kitobi (Toshkent, 2006. 35-bet) da Mavlono Najmiddin Kavkabiy Buxoriy 1576 yilda jazolab o'ldirilganligi haqida ma'lumot keltirilgan.

Aslida Ubaydullaxonning hukmronlik davri (1511-1540) yillarni o'z ichiga olib, Darvish Ali Changiyning xabar berishicha, Kavkabiy aynan Ubaydulloxonning ruxsati bilan Imom Rizo ziyoratiga otlanadi va qaytishda Eron shohi Taxmasp tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi.

Najmiddin Kavkabiy davrining ko'zga ko'ringan musiqashunoslaridan biri Mavlono Surudiy (XVI asr) edi. Uni Hofiz Surudiy deb ham ataganlar. U ko'proq Abdullaxon saroyida xizmat qilgan. Hirotda o'qigan. Kavkabiy bilan qariyb tengdosh edi.

O'sha davrning yana bir sozanda va bastakori Bobo Sho'xiy Mutribidir. U musiqa ilmida va ijodida shuhrat qozongan edi. Uning Savti Sho'xiy, Naqshi Bobo, Peshravi Sho'xiy kabi bastalagan kuylari san'atkorlar orasida mashhur bo'lgan [O'sha asar. 12-bet]. Bobo Sho'xiy ruboiynavis ham bo'lib, bir ruboiysida o'zi bilan birga hamnafas bo'lgan do'stlari nomini zikr qilgan:

Ey do'st, Abu Turob
damsozi man ast,
Haydar ba shukuftagi
hamovozi man ast.
In xardu jigar go'sha
du boland maro,
Bolam mashikan, ki vaqti
parvozi man ast.

Tarjimasi:
Ey do'st, Abu Turob
sherigim mening,
Haydar esa yetilgan
hamnafasim mening.
Bu ikki jigar go'sha
mening qanotlarim,
Qanotimni sindirma,
ular baland parvozim mening.

Bu ruboiydagi parvoz ijro jarayonidir. Demak, Bobo Sho'xiy ruboiyda tilga olingan ikki qo'shqanoti bir dasta sifatida uzoq yillar Buxoroda

musiqa shinavandalariga beminnat xizmat qilganlar.

Yana bir mashhur sozandalardan Hofizi Kalon qorining nomini tilga olmasdan iloj yo'q. U asli Samarqandlik bo'lib, Buxoroda ijod etgan. Bu haqda Hasanxo'ja Nisoriy quyidagicha tavsir beradi: "Samarqandning mo'tabar sohibi vuquf hofizlaridan va yaxshi qiroatli qoriylaridan. Shayboniyxon huzurida to'la ishonchga erishgan kishi ekan" [Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent, 1993, 159-bet]. Uning bastalagan kuylaridan: Amali Kalon, Naqshi Kalon, Savti Kalon singari kuylari juda mashhur bo'lgan. Fikrimizcha, amaldagi Shashmaqom turkumidagi Rost maqomidagi ikkinchi guruh sho'balaridan Savti Kalon muallifi aynan shu bastakor ekanligi shubha qoldirmaydi.

Mir Ahmad Xatib ham mashhur hofizlardan bo'lib, Hofizi Kalonning e'tiborli shogirdlaridandir. Darvish Ali Changiy aytishiga qaraganda butun umrini bu sharofatli ilmga bag'ishlagan, ahli amal oldida e'tibor topgan, bu san'atda ko'pgina asarlar ijod qilgan zot edi. Mir Ahmad Xatib – Peshravi Hisor nomli kuy tasnif qilgan bo'lib, u yetti qismdan iborat bo'lgan.

Ruhiy Tanburiy ham Buxoro, Samarqand va Hirotda shuhrat qozongan taniqli bastakor va musiqashunos bo'lgan. Mashhur mutasavvif olim Abul Vafo Xorazmiy unga quyidagicha maktub yozgan:

Yoron, ki ba bazmi ishq
damsozi tuand,
Faryod kunon zi ishvayu
nozi tuand.
Bar xezu biyo jonibi
yoron ki xama,
Dida ba rahu go'sh ba
ovozi tuand.

Mazmuni:
Do'stlar, ishq bazmida
senga sherik,
Sening nozu ishvangdan
faryod qilurlar.
Tur o'rningdan, do'stlar tomon
yurgin, chunki ular,
Yo'lga ko'z tikib, sening
ovozingga tashna erurlar

[Darvish Ali Changiy. Risolai musiqiy. O'zR FA SHI. Qo'lyozma № 449, 68-b.].

Qosim Qonuniy ham mashhur xonanda sifatida bir qancha kuylar bastalagan, irfoniy-tasavvufiy g'azallar bilan odamlarning dilini xushnud qilgan taniqli ijodkorlardan biri edi.

Do'stmuhammad Udiy ham Savti Diljo', Amali Udiy, Qavli Murassa', Rehtai Navo, Kori Husayniy kabi kuylar ijod qilgan sozandadir.

Najmiddin Kavkabiy Buxoriy esa Hirot va Buxoro musiqa sarchashmalaridan to'la bahramand bo'lgan va o'z davrining eng ko'zga ko'ringan musiqashunosi sifatida tarixda qoldi.

Najmiddin Kavkabiy haqida boshqalardan ko'ra batafsilroq ma'lumot bergan ham Darvish Ali Changiy bo'ladi. U o'zining "Risolai musiqiy" asarida nufuzli musiqashunoslar qatorida Najmiddin Kavkabiy Buxoriyga alohida o'rin ajratgan [O'sha asar. 70-b va 73-a varaqlar].

Darvish Ali Changiy Mavlono Najmiddin Kavkabiy Buxoriyni – "Yorqin va nurafshon fazilatlari butun olamga nur sochuvchi oftob kabi ma'lum, juda baland makon va martabasi barchaga mashhur, mukammal ne'matlarga to'la fazilatli dasturxonidan hamma bahramand, ash'orlari bitilgan devoni sahifalariga yozuvchi qalamlari natijasi ko'pchilikni ojiz qoldirgan. Har xil fanlarga oid turli risolalari yuzaga chiqqan zot" sifati-

da tasvirlaydi [O‘sha manba. 71-a varaq].

Xususan, uning musiqa ilmida yozgan va ijod qilgan asarlari zavqu-shavq ahlining mehru-muhabbatiga sazovor bo‘lib, ularning dil-joniga nay shakardan ham shirinroq tuyuladi. Xullas, go‘zal sifatlarining qaysi birini maqtashga barcha hayron. Janob Mavlono qavl, amal, kor, rehta, saj', zarbul fath, chahorzarb, savt va naqshdan iborat juda ko‘p asarlar bastalagan. Abdurauf Fitrat ta'kidlaganlaridek: “Temur zamonida Marog‘ali Xo‘ja Abdulqodir qanday esa, o‘zbeklar zamonida Kavkabiy shundaydir”, deb Kavkabiyning o‘zbek xonliklari madaniy hayotidagi o‘rnini Abdulqodir Marog‘iyning Temuriylar zamonidagi ahamiyatiga tenglaydi [Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1993. 45-b.].

NAJMIDDIN KAVKABIY MOHIR SOZANDA VA XONANDA HAMDA O‘NLAB SHOGIRDLAR YETISHTIRGAN.

Darvish Ali Changiy Kavkabiy haqidagi yodnomalarini davom ettirib, “...va nisbati talammuz ba janobi rif'atmaobi Abdurahmon Jomiy menamud” deb, Najmiddin Kavkabiyni Abdurahmon Jomiyning shogirdi ekanligini aytib o‘tadi [Darvish Ali Changiy. 71 a varaq]. Bu fikrni biz yuqorida keltirgan Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”dagi eslatmasi ham tasdiqlaydi.

Najmiddin Kavkabiyning bastalagan kuylari orasida “Husayniy” maqomidagi zarbul fath usulida ishlangan payg‘ambarimiz(s.a.v.) na'tlari alohida o‘rin tutadi. Chunki bu o‘sha davrda juda shuhrat qozongan va manbalarda alohida ta'kidlangan. Shunga o‘xshash “Iroq” maqomidagi «Chahor zarb» ham alohida tahsinga loyiq. Allomani eng mashhur qilgan, bastalagan asari, shubhasiz, kulliyotdir. U Rost maqom yo‘lida bastalangan. Ushbu kulliyot zamonlar sahifasiga ko‘p vaqtlar bezak bo‘lib qoldi [N.Shodmonov Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent, 1995. 28-bet]. Shuni yana bir bor ta'kidlash joizki, nazariy masalalarda u o‘z ustozlari Urmaviy va Marog‘iylar davomchisiday advor ta'limotini muxtasar yoritib beradi.

Najmiddin Kavkabiyning mazkur “Kulliyot”idan ta'sirlangan va ilhomlangan Movaraunnahru Huroson va Hindistonlik Hoja Yusuf Burhon, Hoja Yusuf Andijoniy, Nosiridin Qavvol, Tursunbobo Qamchin, Oxun Gurbai Samarqandiy, Mavlono Abulhayo, Mavlono Qosim Kohiy, Yusuf Mavlud Dutoriy, Ali Akbar Qonuniy, Hoja Jafar Qonuniy, Mirzo Hoshim Sozanda, Hofiz Boboi Qonuniy, Hofiz Turdi Qonuniy, Sulton Muhammad Tanburiy, Husayn Udiy, Ahmad Qobuziy, Rizoi Tantan, Husravi Jaybo, Pahlavon Abusayid kabi sozanda va bastakorlar o‘zlarining kulliyotlarini ijod qilganlar. Jumladan Shoh Muhammad Doldo‘z “Kuchak” maqomida, Hofiz Turdi Qonuniy esa “Rost” maqomida kulliyot bastalaganlar [Rajabov A. Nag‘mai niyogon. Dushanbe, 1988. 27–28-b.].

Najmiddin Kavkabiy mohir sozanda va xonanda hamda o‘nlab shogirdlar yetishtirgan. Najmiddin Kavkabiy Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan ulug‘ san'atkor, musiqashunos olim bo‘lib, uning asarlari o‘zbek mumtoz musiqasi tarixini

o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Bu esa kelajakda yangidan-yangi tadqiqotlar olib borishga zamindir.

Zero, Najmiddin Kavkabiyning asarlari musiqa ilmining rivojlanishida alohida bir davrni tashkil etadi. Keyingi vaqtlarda Movarounnahr, Eron va Hindistonda ijod qilgan ko'pchilik musiqashunoslar o'zlarini Kavkabiy maktabining davomchilari deb biladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is'hoq Rajabov. Maqomlar. (Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir Oqilxon Ibrohimov) T.: San'at nashriyoti. 2006.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. Majolisun nafois. O'n ikkinchi tom. T.: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashr., 1966.
3. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Ismoil Bekjon tarjimasi. T. 1993.
4. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T. 1993.
5. Shodmonov N. Temuriylar davrida musiqashunoslik. T. 1995.
6. Rajabov A. Nag'mai niyogon. Dushanbe, "Adib", 1988.

Qo'lyozmalar:

1. Najmiddin Kavkabiy. Risolai musiqiy. O'zR FA SHI Inv.№468.
2. Darvish Ali Changiy. Risolai musiqiy. O'zR FA SHI Inv.№ 449.

TEATR SAN'ATI: YANGI MARRALAR SARI

Po'lat Tashkenbayev

O'zDXA dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish jarayonida teatr san'atining tutgan o'rni va ahamiyati, soha oldida turgan dolzarb vazifalar, teatr san'atini yanada rivojlantirishiga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: teatr, dramaturgiya, ma'naviyat, madaniyat, san'at, badiiy ifoda, g'oya, Renessans, aktyor, rejissura, spektakl, menejment, madaniy meros.

Аннотация. В данной статье освещается роль и значение театрального искусства в создании нового Узбекистана и построении фундамента третьего Ренессанса, рассматриваются актуальные вопросы современного состояния и перспективы дальнейшего развития искусства театра, необходимости международного сотрудничества в данной сфере.

Ключевые слова: театр, драматургия, духовность, культура, искусство, художественная выразительность, идея, Ренессанс, актёр, режиссура, спектакль, менеджмент, культурное наследие.

Annotation. This article highlights the role and importance of theatrical art in creating a new Uzbekistan and building the foundation of the third Renaissance, discusses topical issues of the current state and prospects for the further development of theater art, the need for international cooperation in this area.

Key words: theatre, dramaturgy, spirituality, culture, art, artistic expression, idea, Renaissance, actor, directing, performance, management, cultural heritage.

Yangi O‘zbekistonni yaratish va mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish jarayonida madaniyat va san’atning barcha sohalari qatori, teatr san’atini yanada rivojlantirishga ham davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Kelajak bunyodkori bo‘lmish yosh avlod qalbida chin insoniy tuyg‘ularining kamol topishi, dunyoqarashining kengayishi, estetik did va madaniyatning shakllanishida teatr san’atining o‘ziga xos o‘rni, ahamiyati, vazifalari va mas’uliyati bor. 2017 yil 3 avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev teatr san’atining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni haqida shunday deydi: “Teatr arboblarimiz o‘zlarining matbuot va televideniyedagi chiqishlarida ko‘pincha ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr – ibratxonadir” degan hikmatli so‘zlarini keltirishni yaxshi ko‘radilar. Lekin mana shu dono so‘zlarni faqat og‘izda aytmasdan, o‘z faoliyatimizda ularga amal qilsak, ayni muddao bo‘lardi”. [1;2]

1961 yilda YUNESKO huzuridagi Xalqaro teatr instituti tomonidan Avstriyaning Vena shahrida bo‘lib o‘tgan IX kongressda 27 mart — Xalqaro teatr kuni deb ta’sis etilgan bo‘lib, bugungi kunda dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlarida ushbu sana, teatr san’ati xodimlarining kasb bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning say-harakatlari bilan mamlakatimizda ham madaniyat va san’atni, xususan teatrni rivojlantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

2021 yilda Xalqaro teatr kuni kuni munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston teatr san’ati xodimlariga yo‘llagan tabrigida ta’kidlanganidek, “bir asrdan ziyod shonli tarixga, ijodiy maktablarga ega bo‘lgan o‘zbek teatr san’ati o‘zining boy an’ana va qadriyatlarini saqlab, zamon bilan hamnafas bo‘lib, izchil rivojlanib kelayotganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir” [4;1]

Hech bir san’at turi teatr o‘rnini bosa olmaydi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, kino yoki konsert tomoshalarini televideniye yoxud internet orqali tomosha qilish, zarur bo‘lsa ulardan nusxa ko‘chirib olish mumkin. Lekin teatr shu qadar o‘ziga hos san’at turiki, tomoshabin rol ijro etayotgan aktyorlarning nigohi va nafasini, har bir so‘zi-yu xatti-harakatini jonli tarzda ko‘rib, his qilib turadi. Ko‘z oldida sahna turadi, shu yerda aktyorlar bilan birga yashaydi, yig‘laydi, kuladi. Insonparvarlikning go‘zal fazilatlarini targ‘ib qilishda sahna asarlarining ta’siri benihoya kuchli. Teatr san’ati hayotni, voqea-hodisalarni, turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Shekspirning “Butun olam — teatr, unda har bir odam — aktyordir”, degan jumlasi ko‘p holatlarda iqtibos keltirib ishlatiladi.

Hozirgi kunda hayotning o‘zi barchamizning oldimizga o‘ta muhim va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, el-yurtimizni turli xavf-xatarlardan asrash, o‘sib kelayotgan yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtirom ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu yo‘lda barcha ijodkor ziyolilarimiz qatori, teatr san’atkorlarining iste’dod va salohiyati, bilim va tajribasi, ezgu fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson erkin, ozod va farovon yashaydigan yangi O'zbekistonni barpo etishda tashabbus va jonbozlik ko'rsatayotgan yurtdoshlarimizning badiiy yetuk obrazlarini yaratish, ularning fidoyiligi va matonatini mahorat bilan tarannum etish borasidagi teatr san'ati arboblarining ijodiy mehnati va izlanishlari davlatimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat yuritib kelayotgan teatr jamoalari xalqimizni milliy va jahon dramaturgiyasining ilg'or namunalari bilan tanishtirish orqali bir necha avlod tomoshabinlari qalbida ezgulik, go'zallik, insonparvarlik tuyg'ularining kamol topishi, madaniy ong va estetik didning shakllanishi yo'lida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida teatrlarni rivojlantirish, jamoatchilikda teatr san'atiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, sohadagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashabbusi bilan har yili 21-27 mart kunlari "Teatr tomoshalari haftaligi"ni tashkil etilmoqda va uning doirasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, jumladan, teatr rassomlarining ko'rgazmalari, teatr liboslari va dekoratsiyalari namoyishlarini tashkil qilinib, "tomoshabinlar bilan ijodkorlar o'rtasida muloqotlar o'tkazish hamda aholining shu kunlari davlat teatrlariga bepul kirishi to'g'risidagi takliflari" amalga oshirilib kelmoqda.[2.]

SHuningdek, homiylar bilan hamkorlik natijasida teatrlar faoliyatini samarali amalga oshirish uchun ularning moddiy – texnik bazasi mustaxkamlandi, san'atkorlarning sermahsul ijodi uchun barcha sharoitlar yaratildi, xorijiy hamkasblar bilan ijodiy aloqalar o'rnatildi. Teatrlarda olib borilayotgan ijodiy izlanishlarni muntazam ravishda yoritish maqsadida ularning saytlari yangilanib, uch tilda yuritila boshlandi. Har bir ijodiy jamoa tasdiqlangan rejaga, asosan, yiliga 4 tadan, respublikamiz teatrlari bo'yicha jami 150 ga yaqin yangi spektakl sahnalashtirilmoida. Ijodiy jamoalar repertuarida turli yosh va qiziqishga ega tomoshabinlarga mo'ljallangan turli janrlardagi jahon hamda o'zbek mumtoz dramaturgiya namunalari va zamonaviy dramaturgiya asarlari mavjud. Prezidentimiz ijodkorlarga katta ishonch bildirib, "Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir", — deya ta'kidlagan.

Mustaqillik sharofati bilan milliy teatr san'ati jahon sahnasiga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yetakchi teatr jamoalari nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarida, balki Rossiya, Germaniya, Isroil, Turkiya, Misr, Fransiya, AQSH, Xindistonda bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro teatr festivallari va ko'rik-tanlovlarida ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallashdi.

Teatr san'ati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ijodiy loyihalarni amalga oshirish sohasida respublikamizning yetakchi teatrlaridan biri - Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik Katta teatri samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Masalan, o'n ikki yil mobaynida, ya'ni 1999 yildan 2010 yilga qadar teatrining balet truppasi Yaponiyaga ijodiy safarlar uyushtirib, "Toyota – Siti balet" teatri bilan hamkorlikda F.Yanov-Yanovskiyning "Uroshiro Taro" baletini namoyish etdi. Teatrning bosh

baletmeysteri, O'zbekiston xalq artisti Ibrohim Yusupov sahnalashtirgan mazkur spektaklda O'zbekiston va Yaponiya balet artistlari ishtirok etishgan.

Teatr taniqli xorijiy baletmeysterlar bilan xamkorlik o'rnatib, ularning ijodiy izlanishlari uchun imkon yaratib berdi. Xususan, Rossiyalik baletmeyster Georgiy Aleksidze Anvar Ergashevning "Xumo" baletini sahnalashtirdi. Turkiyalik baletmeyster Mexmet Balkan nafis san'at ihlosmandlariga Djuzeppe Verdining "Kameliyali ayol" baletini taqdim etdi.

So'nggi yillarda teatrning bosh baletmeysteri, Rossiya xalq artisti Andris Liyepa N.A.Rimskiy-Korsakovning "Shaxerezada", I.Stravinskiyning "Jar - ptitsa", L.Minkusning "Bayaderka", A.Borodinning "Polovetskiye plyaski", "Shopeniana" kabi balet spektakllarini mashxur rus baletmeysteri Mixail Fokin xoreografiyasida sahnalashtirdi.

Xorijiy rejissyor va baletmeysterlar milliy madaniy merosimizga qiziqish bildirib, ijodiy tajribalarini amalga oshirdilar. 2019 yilda Xorazm raqsi – "Lazgi" YUNESKOning nomoddiy madaniy meros Reprezentativ ro'yxatiga kiritilganidan so'ng, Kanadalik baletmeyster Sashar Zarif "Lazgi – transformation" nomli raqs kompozitsiyasini sahnalashtirdi. 2021 yilda Germaniyalik baletmeyster Raul Raymondo Rebek Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik Katta teatrida sahnalashtirgan "Lazgi" baleti tomoshabinlar tomonidan katta muvaffaqiyat bilan kutib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Opera va balet san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ushbu san'at turlarining nufuzini oshirish, "milliy opera va balet san'atini jahon miqyosida targ'ib qilish; opera va balet san'atining eng sara milliy va klassik asarlaridan xalqimizni bahramand etish, aholi, ayniqsa, olis hududlardagi fuqarolarning madaniy hordiq chiqarishini qo'llab-quvvatlash; milliy opera va balet san'atini keng ommalashtirish, uning noyob durdonalarini saqlash va targ'ib etish, ustoz-shogird an'analari va ijodiy maktablarni har tomonlama rivojlantirish" kabi vazifalar belgilangan.[3.]

Mazkur Qaror ijrosi doirasida shu yilning 19 – 29 aprelь kunlari "Toshkent bahori" opera va balet festivali tashkil etilib, san'at ihlosmandarining katta bayramiga aylandi. Festivalning asosiy maqsadi – tomoshabinlarni eng yaxshi opera va balet spektakllari bilan tanishtirish, xorijiy teatrlar bilan hamkorlikaloqalarini mustaxkamlash, yangi ijodiy loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalardan iborat. San'at bayramida Alisher Navoiy nomidagi Davlat akdemik Katta teatrining yetakchi ijodkorlari bilan bir qatorda, xorijiy teatr ustalari va yosh ijrochilari ishtirok etishdi. Rossiyaning dunyoga mashhur "Mariinskiy teatr"i, Qozog'istnning "Astana – opera" Davlat opera va balet teatri, Sadriddin Ayniy nomidagi Tojikiston Davlat opera va balet teatri, Moskvaning "Gelikon – opera" musiqali teatri, Boshqirtiston Davlat opera va balet teatri, Janubiy Koreyaning opera teatri festival doirasida o'zlarining spektakllarini namoyish etishdi.

Bugungi voqeliklar shiddat bilan o'zgarayotgan davrda teatrlar ham faqatgina davlat beradigan moliyaviy ko'makka qarab tura olmasligini ko'rsatyapti. Ayniqsa, ikki yil avval e'lon qilingan pandemiya va muayyan cheklovlar mamlakatimizdagi madaniyat va san'at muassasalari, konsert tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar faoliyatiga jiddiy zarar yetkazgani barchamizga ayon. Bugun, teatrlar zimmasiga xalqimizning ma'naviy talabini qondirish barobarida, taqdim etilajak spektakllar evaziga daromad ko'rishdek mushkul vazifa yuklanadi.

Buning uchun esa teatr-tomosha muassasalari zamon va bugungi vaziyat talabiga ko‘ra, yangicha yondashuv uslubiga o‘tishi lozim.

Asosiy masalalardan biri shundan iboratki, har bir teatr jamoasi tomoshabin bilan ishlash tizimini yo‘lga qo‘ya olishi kerak. Teatrlar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa – ishlab chiqarayotgan mahsuloti, ya’ni spektakl, jamoaviy badiiy ijod mahsuli orqali jamiyatni ezgulik va yaxshilikka ergashtira olish, insonlarning ma’naviy, madaniy va ma’rifiy tafakkurini yuksaltirishdan iborat.

Binobarin, xalqimizning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, voqealarga boy tarixi, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan salmoqli hissasi, urf-odatlari, an’analari, betakror moddiy va nomoddiy madaniy merosi va go‘zal qadriyatlari borki, shular asosida o‘lmas sahna asarlarini yaratib, tomoshabinlarga havola etish eng asosiy vazifaga kiradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, yillar davomida shakllangan boshqaruv tizimi va teatr asarlarini taqdim etish usullari hozirgi sharoitda o‘zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari, internet tizimining keyingi yillarda shiddatli o‘zgarishi va rivojlanishi aksariyat sohalarning faoliyatini butunlay qayta ko‘rib chiqish, ish uslublarini o‘zgartirishga majbur qildi. Birinchi navbatda, teatr jamoasining tajriba va malakasi, iste’dodi, zamonaviy menejment sirlaridan qanchalik voqifligi, xususan, internet tarmog‘idan unumli, samarali foydalana olishi, reklama-targ‘ibot ishlarini oqilona yurita bilishi singari qator vazifa hamda talablarga e’tibor qaratish – zamon talabidir.

Shu bilan birga, teatr tashqi va ichki ta’sir vositalari, ilgari yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, spektakllarning obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, almashtirilishi yoki bekor qilinishi, ma’lum bir artistning ishtirok etmasligi yoki asar qahramonining almashtirilishi kabi holatlarni chuqur tahlil qilib, real vaziyatdan kelib chiqib, marketing strategiyasini ishlab chiqishi muhim. Bunday tizimli tahlil, shubhasiz, teatrning faoliyati, yutuq va kamchiliklari sabablarini aniqlash, aktyorlar malakasi, professionalligiga baho berish, kelajakda esa mavjud kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Teatr san’atining rivojlanishi va spektakllarni keng tomoshabinlar ommasiga taqdim etishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun, tomoshabinni jalb eta oladigan yangi spektakllar yaratish va teatrlar bilan o‘zaro faoliyatni tahlil qilib borishga e’tibor qaratilishi lozim. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 37 ta davlat teatr jamoasi halqimizning yuragiga yetib boradigan, qalbini zabt etadigan, ezgu maqsadlarga chorlaydigan asarlarni sahnalashtirishga harakat qilishi davr talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi “2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Qarori teatr san’ati sohasidagi tomosha va konsert dasturlarini yaratishda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib sahna asarlari, tomoshalar va konsert dasturlari bilan hissa qo‘shib borish, teatr va tomosha san’atini keng targ‘ib etish maqsadida xorijiy muassasalar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish kabi bir qancha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Bu yo‘lda jamiyat barcha ijodkor ziyolilar qatori, teatr san’ati arboblarining iste’dod va salohiyatiga, bilim va tajribasiga, ezgu fazilatlariga

tayanadi. Yangi O'zbekiston – inson erkin, ozod va farovon yashaydigan jamiyatni barpo etishda tashabbus va jonbozlik ko'rsatayotgan vatandoshlarimizning badiiy yetuk obrazlarini yaratish, ularning fidoyiligi va matonatini mahorat bilan tarannum etish borasida ijodiy izlanishlar olib borish – davrimizning talabidir.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida teatr-tomosha muassasalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va elektron ishlash tajribasiga ega zamonaviy menejerlarni jalb etishga, ijodiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar, ekskursiyalar, teatr tarixiga oid qog'oz va video ko'rinishidagi xabarlar, tomoshabinlar ishtirokida so'rovnomalar tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Repertuarni shakllantirishga, tomoshabinlarni jalb etishga yangicha yondashuv qaror topgan teatrlarda ijodiy barqarorlik mavjud. Bunday muhitda ijodkorning o'z ishiga bo'lgan ishonchi va shijoati yanada oshadi. Teatr san'ati tarkibini hosil qiluvchi "dramaturg – rejissyor – aktyor – tomoshabin"dan iborat zanjir mustahkam bo'lmog'i lozim. Ana shundagina g'oyaviy va badiiy jihatdan yetuk asar asosida, dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atining namunasi bo'lgan umirboqiy, beqiyos spektakllar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish–xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.-//"Xalq so'zi", 2017 yil, 4 avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori./LEX.UZ

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 dekabrdagi "Opera va balet san'atini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-64 Qarori.

4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston teatr san'ati xodimlariga tabrigi.-//"Xalq so'zi", 2021 yil, 26 mart.

LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARNING O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARIDA AKS ETISHI

Hulkar Hamroyeva

O‘zDXA dotsenti v.b.,
filologiya fanlari doktori
(DSc)

Annotatsiya: Bolalar folklor raqslari xalq ijodining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, yosh avlodning qiziqishlari va ijodkorlik imkoniyatlarini, o‘ziga xos badiiy iste'dodini ifodalaydi. Ularda bolalarning vokelikka munosabatlari, beg‘ubor orzulari, estetik qarashlari va samimiy tuyg‘u-kechinmalari aks etadi. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar o‘yin va folklor raqslarining lingvodidaktik xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Bolalar psixologiyasi, didaktika, o‘yin, mavsum, marosim, raqs, milliy o‘zlik, “mayda-mayda”, an'ana, qadriyat, folklor.

Аннотация: детские народные танцы – неотъемлемая часть народного творчества, являющаяся неотъемлемой частью подрастающего поколения, интересами и творчеством подрастающего поколения, уникальным художественным талантом. В них отражается звучание детских вендских отношений, незыблемость, эстетические взгляды и душевный смысл. В данной статье исследуются узбекские детские игры и народные танцы.

Ключевые слова: детская психология, дидактика, игра, время года, обряд, обряд, национальное самосознание, «меньший», традиция, ценность, фольклор.

Abstract: children's folk dances are an integral part of folk creation, which is an integral part of the younger generation, the interests and creativity of the younger generation, a unique artistic talent. They reflect the sound of children's vendian relationships, immote, aesthetic views and sincere meaning. This article studies Uzbek children's games and folk dances.

Key words: child psychology, didactics, game, season, ceremony, ritual, national identity, “lesser”, tradition, value, folklore.

Insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi uning o'zini anglash va ifodalash imkoniyati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bolalarning shakllanish omillari cheksiz va rang-barangdir. Ular jismoniy o'sish bilan bir qatorda mohiyatan madaniylashgan ong, aql, tafakkur kabi sifatlarni egallab boradi, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi, oilaviy udumlar va tajribaga asoslangan takomillashuv yo'lini bosib o'tadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning ruhiy-ma'naviy, jismoniy-estetik kamolotida bolalar o'yinlari va raqslari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur raqslar kichkintoylarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ularda san'atga qiziqish uyg'otishi kerak. Axloqiy-estetik tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biri — ma'naviy immunitetni shakllantirishda milliy-madaniy tuyg'ularning, raqslar va o'yinlardagi milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan umumbashariy g'oyalarning ahamiyati beqiyosdir. Ularning qimmati va ta'sir kuchi bolalarni fikrlashga da'vat etishida yana-da yaqqolroq namoyon bo'ladi. Taniqli tilshunos olim, professor Sh.Safarov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi aslida tadqiqotchilarni uzoq yillardan beri qiziqtirib kelmoqda.Ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar har xil, ba'zan esa ziddiyatlidir.Ularning ayrimlarida hatto turli xalqlarning borliqni idrok etishi bir-biriga batamom mos kelmasligini ta'kidlashga harakat qilishadi. Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilim jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit bo'lishi tabiiydir" [5;90].

O'zbek bolalar folklor raqslarining milliy koloriti uning ko'hna madaniy qadriyatlar zamirida yaratilganligi, ta'sir doirasining kengligi bilan xarakterlanadi. Bolalar raqslari folklor san'atining yorqin namunasi sifatida, mavzular xarakteridan kelib chiqib, o'zida bolalar o'yinlarini, muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakatlarni, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallarni, ohang va tomoshaviylik bilan vobasta harakatli o'yinlar elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan, o'ziga xos lingvodidaktikaga asoslangan sinkretik hodisadir. Olima Z.Ibrohimovaning fikricha, "Asrlar osha bizgacha yetib kelgan oltin meros qo'shiqlar, alla, erkalamalar ona bilan bola o'rtasida mehr iplarini mahkam bog'lashga, go'dakning murg'ak qalbida ota-onaga, yaqinlariga, o'z uyiga samimiy muhabbatdek ezgu tuyg'ularning nish urishiga xizmat qilsa, "Boychechagim hillo-

O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODNING RUHIY-MA'NAVIY, JISMONIY-ESTETIK KAMOLOTIDA BOLALAR O'YINLARI VA RAQSLARI MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI

lik...", "Navro'z", "Qaldirg'och g'och-g'och...", "Laylak keldi, yoz bo'ldi..." kabi mavsum qo'shiqlari bola qalbida ota yurtga, ona tabiatga muhabbat hissini uyg'otadi. "Oq terakmi, ko'k terak", "Quvlashmachoq", "Bekinmachoq", "Qotirmachoq" kabi milliy o'yinlar, ularda aytiladigan qo'shiqlar har bir bolani cheksiz quvontiradi, uning jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishida, g'ayratli, irodali, intizomli bo'lib ulg'ayishida katta ahamiyatga ega" [3;196].

Juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan bolalar o'yinlari ajdodlarimiz dunyoqarashi va zakovatining eng ibtidoiy elementlaridan biri sifatida poetik folklor namunalarini ham qamrab olgan. Uning ildizlari kishilik jamiyatining ilk mehnat faoliyati va diniy marosimlari bilan tutashadi.Zero, "ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati ularni urug'ning urf-odatlari, an'analari, tarixi bilan, shuningdek, xalq og'zaki ijodi: rivoyatlar, qo'shiqlar va raqslarni tanishtirishdan iborat bo'lgan.Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni katta safiga qo'shish deb ataladigan bayram – diniy marosimlar keng tarqalgan.Bular o'ziga xos o'yin, musobaqalardan iborat bo'lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlari, xalq og'zaki ijodi tashkil qilgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o'z hayotlari va muvaffaqiyatsizliklarini, shodliklari va qayg'ularini ifodalaganlar" [9;10]. Davrlar o'tishi, zamon o'zgarishi bilan ular ham takomillashdi, diniy marosimlar tarkibidagi xatti harakat va o'yinlar o'zining ritual-lik xususiyatini yo'qotib, oddiy tomoshaga aylanib bordi.

Bolalarning o'yin tanlashdagi didi va o'yin turlari yillar o'tib o'zgarib bormoqda. Raqslar ham o'z navbatida yangi estetik qirralarini kashf qilib, xalqning bilim va tajribasining asrlar davomida mukammallashgan ko'rinishini o'zida aks ettirmoqda. Ular xarakteriga tarbiya tizimining yo'nalishi, uning mafkurasi, turmush an'analari, milliy qadriyatlar singdirilgan. Binobarin, "O'yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chambar", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" kabi topishmoqdan boshlaydi"[8;130]. Ularda bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari:jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, estetik did, mehnatsevarlik, milliy o'zlik tuyg'ularini qaror toptirish masalalari qamrab olingan.

Eng qadimgi bolalar o'yinlari haqidagi ilk ma'lumot XI asrda yashab ijod qilgan mashhur turkiyshunos olim, buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida uchraydi. Unda turkiy xalqlar orasida urf bo'lgan, to'p bilan o'ynaladigan "Chavgon" o'yini haqida yozilgan.

Albatta, har bir hududning, har bir o'lkaning o'ziga xos o'yinlari, milliy qadriyatlari mavjud. Ularda beg'ubor va sodda bolalikning qiziqishlari, havaslari yaqqol namoyon bo'ladi. XX asrning 30-yillariga kelib bolalar qo'shiqlarini keksa otaxonu onaxonlar tilidan yozib olish tajribasi boshlandi.

Ajdodlarimizdan meros bolalar raqslari va o'yinlarida jonli yoki jonsiz predmetlardan obrazlar tanlanadimi, tabiat yoki hayvonot olamiga murojaat qilinadimi, eng avvalo ular kichkintoylarning ruhiy dunyosini, tuyg'ularini boyitishiga, ularning olam va odam haqidagi

tasavvurlarini kengaytirishiga urg'u berilgan. Masalan, **"MAYDA, MAYDA"** o'yinini olaylik. U mamlakatning Surxondaryo, Qashqadaryo, Andijon viloyatlarida keng tarqalgan bo'lib, predmetli o'yinlar sirasiga kiradi va unda asosan 8-10 yoshli o'g'il bolalar va qizaloqlar ishtirok etadi.

Lug'atlarimizda "mayda" so'ziga shunday izoh beriladi:

MAYDA [f.- oliy nav un]1 Bir turdagi kichik bo'laklardan iborat bo'lgan, yirik emas. Mayda tosh. Mayda qor. Mayda qum.

2 Unchalik katta bo'lmagan , kichik.Mayda jonivorlar. Mayda bolalar[8;527].

"MAYDA, MAYDA" qo'shiqli raqs sahnada quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

1. O'yin ishtirokchilari (bolalar, qizaloqlar)ning soni chegaralanmagan. Barcha bolalar go'yo ariq qirg'og'iga yig'iladilar.

2. Qo'l harakatlari bilan suvning jildirab oqishini, to'lqinlarning mayin jilolarini ifodalaydilar.

3. Quvnoq kulgilari bilan, bir-birlariga suv sepish harakatlarini ko'rsatadi.

4. Keyin ikkala qo'llari bilan ariqdagi loydan olib, chetroqqa o'tadilar.

5. So'ngra bir chiziq ustida tizilib, 40-50 santimetr oraliq masofani saqlagan holda o'tiradilar.

6. Qo'llaridagi loyni bir-biriga irg'itib, ilib olish harakatlarini bajaradilar.

7. Qarsak usullari bilan go'yo qo'llarini loydan tozalaydilar.

8. Yana loy olish uchun ariq bo'yiga o'tadilar.

9. Bolalar kulishib, bir-biriga suv sepganday bo'lib, quvlashib, bir necha marta ariqdan loy olgan bo'ladilar.

10. Xuddi mitti qush uyasini yodga soluvchi bir qarich balandlikdagi "minora-imorat"chani yasaydilar.

11. Keyin har birlari o'zlari yasagan "uycha"ni ta'riflab , savol-javob tarzida quyidagi aytimni kuylaydilar:

12. Birinchi guruh: **- Mayda, mayda, mayda!**

Maydani(ng) uyi qayda!?

13. Ikkinchi guruh: **- Mayda, mayda, mayda!**

- Maydani(ng) uyi sheyda!

14. Ikkinchi tomondagi ishtirokchilar "mayda" deganda qaysi hasharot yoki qush nazarda tutilayotganligini topishlari kerak.

15. Birinchi guruhning savoliga to'g'ri javob topish uchun ikkinchi tomondagi bolalar harakatlar orqali turli jonivorlar va qushlarni, ularning fizionomiyasi, fe'l-atvori, oziqlanishini o'z tasavvurlaridagi holatlar bilan tasvirlab berishadi.

16. Kapalak libosidagi qizaloq o'rtaga chiqib, qo'llarini qanot qilib, kapalakning uchishini, guldan-gulga qo'nishini mayin harakatlarda ifodalaydi.

17. Tillaqo'ng'iz libosidagi o'g'il bola uning turishini, sakrashini tasvirlaydi.

18. Ikkala guruh ham qarsak chalib, ularni quvvatlab turishadi, lekin bir vaqtning o'zida boshlarini sarak-sarak qilib, ya'ni "yo'q-yo'q" ishoralari bilan rad etishadi.

19. Uychaning hajmi kichikligi uchun bolalar yana o'zlari bilgan turli qushchalarni, hasharotlarni ko'rsatishga harakat qilishadi.

20. Kimdir bedana bo'lib sayraydi, ikkinchisi chumchuqqa o'xshab chirqillaydi.

21. Nihoyat, chumoli nazarda tutilayotganligi ayon bo'ladi, chunki ular barpo etgan "uy"ga chumoligina sig'ishi mumkin, xolos.

22. Ikkala guruh qo‘l va tana harakatlari bilan chumolining ko‘rinishini, o‘rmalashini ifodalaydilar.

23. To‘g‘ri javob topilmaguncha “Mayda, mayda”qo‘shig‘i qayta-qayta aytiladi.

24. Raqsni yakunlashdan oldin bolalar ikki qatorga tizilib, chumolining yurishini, mehnatkashligini ko‘rsatishadi.

25. Barcha ishtirokchilar qo‘l ushlashib, bir-birlarini olqishlab, qarsak chalib, raqsni yakunlaydilar.

Mazkur o‘yin folklorshunos olima, filologiya fanlari nomzodi Nodira Do‘stxo‘jayeva tomonidan Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida istiqomat qiluvchi 85 yoshli Nusxa buvidan (1991y.) yozib olingan. Raqs viloyatda eng ommalashgan bolalar o‘yinlaridan biri bo‘lib, asosan issiq mavsum, bahor, yoz va kuz fasllari uchun mo‘ljallangan.

“Mayda-mayda” o‘yin – raqsi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kichkintoylarning loydan “uy” qurishlari, bu jarayonda bir-birlariga qo‘lma-qo‘l loy uzatishlari zamirida do‘stlik, totuvlik, inoqlik, mehnatsevarlik fazilatlari targ‘ib qilinyapti. O‘zbek xalqi uchun uy - eng muqaddas go‘sha, poklik va qut-baraka timsolidir. Bolalar o‘yin - mehnat jarayonida o‘zaro muloqot qilishadi, bir-birini so‘zsiz tushunishni, muomala va bahslashish odobini o‘rganishadi. Ular birgalikda qurgan uylarini jonivorlarga hadya qilishyapti. Bola ongu-shuurida tabiatga mehr, jonivorlarga muhabbat uyg‘onyapti. Ular o‘zlari qurgan uychaning egasini topish uchun turli qushlar va jonivorlarning obrazlariga kirib, tabiatga yaqinlashishyapti. "Kapalak", “tillaqo‘ng‘iz”, “bedana”, “chumchuq” va “chumoli”ni o‘yin ishtirokchilari olqishlar bilan kutib olishyapti.

Bolalar raqslarida koinot va tabiat hodisalari, hayvonot dunyosi, turli-tuman jonli va jonsiz predmetlar, hayotning barcha katta-kichik detallari majoziy obrazlar vositasida yaxlit syujet yaratib, rangin ko‘rinishlarda aks etadi. Ular bolaga ham estetik zavq beradi, ham dunyoqarashi va didini shakllantirib, ma'rifiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi. Ayniqsa, raqslarda qushlar va turli jonzotlar obrazlarining qatnashishi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Zero, “Bolalar o‘yinlarining uch asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini erkin, o‘z xohishi bilan bajaradi. harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi” [8;131].

Bolalar raqslarining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ular asosan taqlid o‘yinlari zamirida tug‘iladi. Go‘dak ulg‘aygani sari uning qiziqishlari, dunyoqarashi, tushunchalari ham ulg‘ayib boradi. Hayotning bola ongu shuuridagi oq-qora tasvirlari endi turli ranglarda tovlanadi.

Kichkintoylarning o‘ziga xos olamini aks ettiruvchi bolalar raqs - o‘yinlari orasida “Berkinmachoq”, “Oq laylakmi, ko‘k laylak”, “Podshoh-vazir”, “Xolam mehmonga keldi”, “Qovun sayli”, “Shaftoli shakar”, “Cho‘pon bilan Shag‘al”, “Qoch bolam, qush ketdi”, “Qoch bolam, qush keldi”, “Cho‘loq qarg‘a”, “Kal echki”, “Botmon-botmon”, “Oq sholi – ko‘k sholi”, “Cho‘p o‘yini”, “Tosh o‘yini”, “Oq suyak”, “Podachi”, “Qushim boshi”, “Oshi halol”, “Mehmon-mehmon”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Ota yog‘och” singari ko‘p yillardan buyon o‘ynalib, turli yoshdagi bolajonlarga zavq ula-

shayotgan o'yin turlari juda ko'p. Insonda milliy-ma'rifiy, estetik-axloqiy tuyg'ularning paydo bo'lishi va kamol topishi uchun bolaligidan boshlab milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda zarur. Ular tadqiqotchilar, olimlar tomonidan o'rganilib, xalq tilidan va kuzatishlar orqali yozib olinib, tarixga muhrlanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вашкевич Н.Н. История хореографии всех веков и народов. М.: "Ленанд", 2017. 82 с.
2. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. "O'qituvchi" nashriyoti,1975. – 124 b.
3. Ibrohimova Z. Musaffo olam hayratlari. T.: "Yangi nashr" nashriyoti, 2015. – 224 b.
4. Razzoqov X. O'zbek xalk og'zaki poetik ijodi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti,1998. -318 b.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax.: "Sangzor" nashriyoti, 2006. - 248 b.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti,1995. - 462 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-j. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-j. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 704 b.
9. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1991. -220 b.
10. http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list
11. https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shokila-uz/
12. https://uza.uz/oz/society/
13. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/

O‘ZBEK XALQ LAPARLARIGA XOS JANR XUSUSIYATLARI

Nozim Qosimov

O‘zDXA professori,
filologiya fanlari nomzodi



Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq laparlarining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari, terma va voqeaband laparlarning o‘rni hamda ahamiyati xaqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, lapar, terma, voqeaband, badiha, magik-ritual, polifoniya, dialog.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности узбекского народного жанра лапар и его разновидности. Уделяется внимание форме диалога в жанре лапар.

Ключевые слова: фольклор, лапар, терма, импровизасия, магия-ритуал, полифония, фратрия, диалог.

Annotation. The article discusses features and varieties of the Uzbek of the Lapar folk genre. Attention is paid to the dialogue form in the Lapar genre.

Key words: folklore, lapar, terma, improvisation, magic-ritual, polyphony, phratry, dialogue.

Badiiy so‘z san’atida janrlarni tasnif etishning o‘ziga xos tamoyillari mavjud. Ular so‘z san’atining og‘zaki va yozma shakllariga qarab farqlanadilar. Masalan, yozma adabiyotda janrlar hayotiy qamrov hamda poetik tizimning umumiyligi jihatidan farqlansalar, folklorda janrlar hayotiy qamrov, poetik tizim yaxlitligi, maishiy yo‘nalganlik, ijro o‘rni va shakli hamda musiqa bilan aloqadorlik kabi to‘rt talab asosida farqlanadi [1, 34-45]. Binobarin, lapar janriga xos xususiyatlarni belgilaganda biz ham folklorshunoslikda umume’tirof etilgan ana shu jihatlar asosida fikr yuritishga harakat qilamiz.

O‘zbek xalq laparlariga xos xususiyatlardan biri va eng asosiysi mazkur janrning tarixan to‘y marosimlari tarkibida ijro etilishini nazarda tutmoq lozim. Chunki janrning marosim bilan genetik aloqadorligi uning og‘zaki ijod an’anasida juda ham qadimiy

ekanligidan dalolat beradi. Demak, laparning asosan nikoh to'ylarining muayyan bir uzvida - qizlar bazmida ijro etilishi uning tarixan mustaqil janr sifatida vujudga kelib, mustaqil taraqqiy etib kelayotganligini anglatadi. Qozoq, qirg'iz folkloridagi aytis janrining tarixan marosim folklori, aniqrog'i, to'y marosimi bilan bog'liqligi va asosan so'z mubohasasi shaklida kechishi, tojik folkloridagi badiha janrining ham ijro o'rni va bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridan lapar bilan bir xilligi lapar janrining tarixiy asoslari Markaziy Osiyo xalqlari marosim folklorida birgina janrning turli nomlarida keng tarqalganligini ko'rsatadi. Bu xildagi to'y marosimi folklori nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodida, balki Kavkaz xalqlari to'y marosimlarida ham uchrayajakligini ko'plab tadqiqotchilar qayd etadilar [2, 132-133]. Demak, o'zbek to'y marosimlariga mansub lapar janri bilan ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan bir xil vazifa ado etuvchi janr Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkaz xalqlarida ham qadimdan mavjud bo'lgan.

Janrning qadimiy oilaviy-maishiy marosim bilan aloqadorligi va turli xalqlarda turlicha nom bilan yuritilishidan qat'i nazar, marosim tarkibida bir xil vazifa o'tashi o'zbek xalq laparlarining tarixan faqat marosimga qiziqarlilik va shodlik, musiqiylik va jonlilik bag'ishlabgina qolmay, balki o'ziga xos magik-ritual vazifa o'taganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, janrning ijro o'rni nikoh to'yidan bir kun oldin, hozir qizlar bazmi deb ataluvchi uzvida she'riy aytishuv tarzida ijro etilishi va ijrochilarning ikki jinsga mansub bo'lishi kuyov hamda kelin tomon o'rtasidagi ritual tortishuv vazifasini o'taganligini ko'rsatadi: xalq laparlari matnidagi savol-javob xarakteridagi aytishuvlar, bu jarayonda so'zga chechanlik va hozirjavoblik qilish, marosim etikasiga rioya qilish kabi talablarni ado etish mazkur janrning tarixan to'y marosim tarkibida magik-ritual komponent tarzida vujudga kelganligini va hozirgacha saqlanib qolganligini tasdiqlaydi.

Elbek, M.Alaviya, O.Sobirov, B.Sarimsoqov kabi olimlarning ko'rsatishicha, laparlarga xos janr xususiyatlaridan biri ularning bir-biriga zid ikki jinsga mansub kishilar tomoni dan ijro etilishi hisoblanadi. Janr ijrochilari tarkibining bunday xususiyati ancha qadimiy bo'lib, u yaqin vaqtlargacha saqlanib keldi.

Bizning nazarimizda, lapar ijrochilarining qiz va yigitlardan iboratligi dual jamiyat qoldiqlaridan iborat bo'lishi kerak. Chunki bevosita urug'chilik jamiyati davrida har bir qabila biribiriga qiz berib, qiz oladigan ikki urug'ga va o'z ichida bir-biri bilan quda bo'lish huquqiga ega bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan [3, 104-128]. Bir fratriyadan qiz olish uchun kuyov tomon turli xildagi sinovlarni bajargan, turli xildagi to'lovlarni to'lagan. Mana shunday ritual sinov ko'rinishlaridan biri kelin tomonning qizlari bilan kuyov tomonidan kelgan yigitlarning o'zaro so'z va hozirjavoblikda birbirlarini sinab ko'rish sanaladi. Darhaqiqat, qizlar bazmida, ya'na asosiy to'ydan bir kun oldin bunday lapar aytish udumi keyinchalik oddiy ko'ngilxushlik va tomosha qilish maqsadida o'tkaziluvchi an'anaviy odatga aylangan bo'lsa ham biroq urug'chilik davrida u jiddiy ritual sinov vazifasini o'tagan. Agar mana shu sinovda yigit tomon yengilsa, ilgari kelin va kuyov o'rtasidagi oila qurish, ya'ni hozirgi til bilan aytganda, nikoh qilish to'xtatilgan. Shuning uchun ham lapar aytishga kuyov tomon sho'h, so'zga chechan, hozirjavob yigitlarni yaxshilab tanlab olib kelishgan. Oqibatda, lapar aytishuvlari va ularda ijro etiladigan to'rtliklar mazmunan dramatizmga

boy, kuchli his-tuyg‘ularga yo‘g‘irilgan bo‘ladi.

Folklor asarlarining asrlar osha avlodlardan-avlodlarga yetib borishini ta’minlovchi an’anaviylik, folklor janrlari tarkibida doimiy yangilanishlarni ta’minlovchi badihago‘ylik lapar janrining ham yaratilish, yangilanish va jonli yashashini belgilab beruvchi ikki muhim omil sifatida amal qilib keladi. Mana shu nuqtai nazardan yondashilsa, o‘zbek xalq laparlari matni ikki xil xarakter kasb etishini kuzatish mumkin.

Birinchisi - lapar ijrosi paytida bir-birlari bilan musobaqalashayotgan tomonlar javob tariqasida to‘rtlik shaklidagi an’anaviy xalq qo‘shiqlarini, o‘lan parchalarini keltiraveradilar. Mana shuning uchun biz bunday laparni shartli ravishda terma laparlar deb nomlashni lozim topdik. “Oq olma, qizil olma” to‘plamida keltirilgan aksariyat laparlar terma laparlarga misol bo‘la oladi. An’anaviy boshlama to‘rtlik aytilgach, yigit quyidagi to‘rtlikni ijro etadi:

Daryoning naryog‘ida bir to‘p g‘o‘za,
U g‘o‘zaning tagida oltin ko‘za.
Jon yanga, jonim yanga, arzim sizga,
O‘ynashga ruxsat bering qora ko‘zga.

Mana shundan keyin qiz quyidagi to‘rtlikni ijro etadi:

Oqqina kaptar boradi joyiga,
Ko‘p oshiq bo‘lmang birovning yoriga.
Ko‘p oshiq bo‘lsang birovning yoriga,
Osishadi oq podshoning doriga.
[4, 135-136].

Keltirilgan ikki to‘rtlikka diqqat qilinsa, ular o‘rtasida chuqur mantiqiy aloqadorlik, mavzu jihatidan yagonalik kuzatilmaydi. Lekin lapar ijro etish vaziyatni har bir to‘rtlikka o‘z vaqtida javob qaytarish jihatidan ular terma laparni tashkil etadilar. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, terma laparlarda har ikki tomon vakillari javob berish talabidan kelib chiqib, o‘zlari bilgan to‘rtliklarni keltiraveradilar. Bu narsa terma laparlardagi mavzu qamrovini kengaytiradi.

Terma laparlarda xukmronlik qilgan an’anaviylik ijrosini an’anaviy to‘rtlik bilan boshlanishi, javob tariqasida keltiriladigan to‘rtliklarning ayni shu paytda, shu vaziyatda to‘qilmay, balki xalq qo‘shiqlari xazinasidagi an’anaviy tayyor to‘rtliklarning keltirilishida ko‘zga tashlanadi.

Mazkur laparlardagi badihago‘ylik esa bir-birlariga javob tariqasida ijro etilayotgan to‘rtliklarning ilgarigi aytishuvlarda qayd etilmagan favqulodda to‘rtliklardan iborat ekanligida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchisi - laparlarning yagona bir mavzuda, doimo takrorlanib keladigan matnlarga asoslangan shakli. Bunday laparlarni biz shartli ravishda voqeaband laparlar deb nomlashni lozim topdik.

Voqeaband laparlar, odatda, yigit va qiz o‘rtasida savol-javob shaklida ijro etilib, savol tariqasida berilgan har bir shartni inkor etadigan javob qaytariladi. Shu bois voqeaband laparlar keskin dramatizm ruhida kechib, aytishuv shiddatli tus oladi. Mana shunday laparlardan biri professor B.Sarimsoqov tomonidan aytishuv shaklidagi lirik qo‘shiq tarzda talqin etiladi. [5, 160]. Albatta, mazkur lapar keyingi paytlarda lirik qo‘shiq o‘rnida ham ijro etilib kelindi. Lekin bu matnning tarixiy asoslari, ya’ni paydo bo‘lish jarayoni lapar janriga aloqadordir. Chunki u ko‘p vaqtlar mobaynida lapar aytish jarayonida qayta-qayta ijro etilish oqibatida barqaror an’anaviy matnga ega bo‘ldi. Keyinchalik lapar mazmunining ta’sirchanligi, matnning keskin aytishuv tarzida

ekanligidan dalolat beradi. Demak, laparning asosan nikoh to'ylarining muayyan bir uzvida - qizlar bazmida ijro etilishi uning tarixan mustaqil janr sifatida vujudga kelib, mustaqil taraqqiy etib kelayotganligini anglatadi. Qozoq, qirg'iz folkloridagi aytis janrining tarixan marosim folklori, aniqrog'i, to'y marosimi bilan bog'liqligi va asosan so'z mubohasasi shaklida kechishi, tojik folkloridagi badiha janrining ham ijro o'rni va bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridan lapar bilan bir xilligi lapar janrining tarixiy asoslari Markaziy Osiyo xalqlari marosim folklorida birgina janrning turli nomlarida keng tarqalganligini ko'rsatadi. Bu xildagi to'y marosimi folklori nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodida, balki Kavkaz xalqlari to'y marosimlarida ham uchrayajakligini ko'plab tadqiqotchilar qayd etadilar [2, 132-133]. Demak, o'zbek to'y marosimlariga mansub lapar janri bilan ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan bir xil vazifa ado etuvchi janr Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkaz xalqlarida ham qadimdan mavjud bo'lgan.

Janrning qadimiy oilaviy-maishiy marosim bilan aloqadorligi va turli xalqlarda turlicha nom bilan yuritilishidan qat'i nazar, marosim tarkibida bir xil vazifa o'tashi o'zbek xalq laparlarining tarixan faqat marosimga qiziqarlilik va shodlik, musiqiylik va jonlilik bag'ishlabgina qolmay, balki o'ziga xos magik-ritual vazifa o'taganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, janrning ijro o'rni nikoh to'yidan bir kun oldin, hozir qizlar bazmi deb ataluvchi uzvida she'riy aytishuv tarzida ijro etilishi va ijrochilarning ikki jinsga mansub bo'lishi kuyov hamda kelin tomon o'rtasidagi ritual tortishuv vazifasini o'taganligini ko'rsatadi: xalq laparlari matnidagi savol-javob xarakteridagi aytishuvlar, bu jarayonda so'zga chechanlik va hozirjavoblik qilish, marosim etikasiga rioya qilish kabi talablarni ado etish mazkur janrning tarixan to'y marosim tarkibida magik-ritual komponent tarzida vujudga kelganligini va hozirgacha saqlanib qolganligini tasdiqlaydi.

Elbek, M.Alaviya, O.Sobirov, B.Sarimsoqov kabi olimlarning ko'rsatishicha, laparlarga xos janr xususiyatlaridan biri ularning bir-biriga zid ikki jinsga mansub kishilar tomoni dan ijro etilishi hisoblanadi. Janr ijrochilari tarkibining bunday xususiyati ancha qadimiy bo'lib, u yaqin vaqtlargacha saqlanib keldi.

Bizning nazarimizda, lapar ijrochilarining qiz va yigitlardan iboratligi dual jamiyat qoldiqlaridan iborat bo'lishi kerak. Chunki bevosita urug'chilik jamiyati davrida har bir qabila bir-biriga qiz berib, qiz oladigan ikki urug'ga va o'z ichida bir-biri bilan quda bo'lish huquqiga ega bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan [3, 104-128]. Bir fratriyadan qiz olish uchun kuyov tomon turli xildagi sinovlarni bajargan, turli xildagi to'lovlarni to'lagan. Mana shunday ritual sinov ko'rinishlaridan biri kelin tomonning qizlari bilan kuyov tomonidan kelgan yigitlarning o'zaro so'z va hozirjavoblikda bir-birlarini sinab ko'rish sanaladi. Darhaqiqat, qizlar bazmida, ya'na asosiy to'ydan bir kun oldin bunday lapar aytish udumi keyinchalik oddiy ko'ngilxushlik va tomosha qilish maqsadida o'tkaziluvchi an'anaviy odatga aylangan bo'lsa ham biroq urug'chilik davrida u jiddiy ritual sinov vazifasini o'tagan. Agar mana shu sinovda yigit tomon yengilsa, ilgari kelin va kuyov o'rtasidagi oila qurish, ya'ni hozirgi til bilan aytganda, nikoh qilish to'xtatilgan. Shuning uchun ham lapar aytishga kuyov tomon sho'h, so'zga chechan, hozirjavob yigitlarni yaxshilab tanlab olib kelishgan. Oqibatda, lapar aytishuvlari va ularda ijro etiladigan to'rtliklar mazmunan dramatizmga

boy, kuchli his-tuyg‘ularga yo‘g‘irilgan bo‘ladi.

Folklor asarlarining asrlar osha avlodlardan-avlodlarga yetib borishini ta’minlovchi an’anaviylik, folklor janrlari tarkibida doimiy yangilanishlarni ta’minlovchi badihago‘ylik lapar janrining ham yaratilish, yangilanish va jonli yashashini belgilab beruvchi ikki muhim omil sifatida amal qilib keladi. Mana shu nuqtai nazardan yondashilsa, o‘zbek xalq laparlari matni ikki xil xarakter kasb etishini kuzatish mumkin.

Birinchisi - lapar ijrosi paytida bir-birlari bilan musobaqalashayotgan tomonlar javob tariqasida to‘rtlik shaklidagi an’anaviy xalq qo‘shiqlarini, o‘lan parchalarini keltiraveradilar. Mana shuning uchun biz bunday laparni shartli ravishda terma laparlar deb nomlashni lozim topdik. “Oq olma, qizil olma” to‘plamida keltirilgan aksariyat laparlar terma laparlarga misol bo‘la oladi. An’anaviy boshlama to‘rtlik aytilgach, yigit quyidagi to‘rtlikni ijro etadi:

Daryoning naryog‘ida bir to‘p g‘o‘za,
U g‘o‘zaning tagida oltin ko‘za.
Jon yanga, jonim yanga, arzim sizga,
O‘ynashga ruxsat bering qora ko‘zga.

Mana shundan keyin qiz quyidagi to‘rtlikni ijro etadi:

Oqqina kaptar boradi joyiga,
Ko‘p oshiq bo‘lmang birovning yoriga.
Ko‘p oshiq bo‘lsang birovning yoriga,
Osishadi oq podshoning doriga.
[4, 135-136].

Keltirilgan ikki to‘rtlikka diqqat qilinsa, ular o‘rtasida chuqur mantiqiy aloqadorlik, mavzu jihatidan yagonalik kuzatilmaydi. Lekin lapar ijro etish vaziyatni har bir to‘rtlikka o‘z vaqtida javob qaytarish jihatidan ular terma laparni tashkil etadilar. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, terma laparlarda har ikki tomon vakillari javob berish talabidan kelib chiqib, o‘zlari bilgan to‘rtliklarni keltiraveradilar. Bu narsa terma laparlardagi mavzu qamrovini kengaytiradi.

Terma laparlarda xukmronlik qilgan an’anaviylik ijrosini an’anaviy to‘rtlik bilan boshlanishi, javob tariqasida keltiriladigan to‘rtliklarning ayni shu paytda, shu vaziyatda to‘qilmay, balki xalq qo‘shiqlari xazinasidagi an’anaviy tayyor to‘rtliklarning keltirilishida ko‘zga tashlanadi.

Mazkur laparlardagi badihago‘ylik esa bir-birlariga javob tariqasida ijro etilayotgan to‘rtliklarning ilgarigi aytishuvlarda qayd etilmagan favqulodda to‘rtliklardan iborat ekanligida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchisi - laparlarning yagona bir mavzuda, doimo takrorlanib keladigan matnlarga asoslangan shakli. Bunday laparlarni biz shartli ravishda voqeaband laparlar deb nomlashni lozim topdik.

Voqeaband laparlar, odatda, yigit va qiz o‘rtasida savol-javob shaklida ijro etilib, savol tariqasida berilgan har bir shartni inkor etadigan javob qaytariladi. Shu bois voqeaband laparlar keskin dramatizm ruhida kechib, aytishuv shiddatli tus oladi. Mana shunday laparlardan biri professor B.Sarimsoqov tomonidan aytishuv shaklidagi lirik qo‘shiq tarzda talqin etiladi. [5, 160]. Albatta, mazkur lapar keyingi paytlarda lirik qo‘shiq o‘rnida ham ijro etilib kelindi. Lekin bu matnning tarixiy asoslari, ya’ni paydo bo‘lish jarayoni lapar janriga aloqadordir. Chunki u ko‘p vaqtlar mobaynida lapar aytish jarayonida qayta-qayta ijro etilish oqibatida barqaror an’anaviy matnga ega bo‘ldi. Keyinchalik lapar mazmunining ta’sirchanligi, matnning keskin aytishuv tarzida

ijro etilishi, lapar voqeabandligining kuchli dramatizmga egaligi sababli alohida qo'shiq sifatida ham ijro etilishga ko'chdi. Biroq bu degani materialning genetik jihatdan lapar bilan alohida emasligini anglatmaydi. Bizningcha, bu aytishuv xalq laparlarining sof voqeaband shakliga mansub. Ana shu laparlardan bir necha bandlarni keltiraylik:

Yigit:
Sen soy chumchug'i bo'lsang,
Soylarga qarab uchsang,
Men tog' kaptari bo'lib,
Orqangdan quvib borsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Qiz:
Sen tog' kaptari bo'lsang,
Orqamdan quvib yursang,
Men olg'ir lochin bo'lib,
Changalga olib qolsam,
Yor, unda na qilg'aysan.

Mana shu tariqa voqeaband lapar yigit va qizning bir-birini rad etuvchi savol va javoblari tarzida davom etadi. Shunday lapar aytishlar yigit va qizning aql-zakovatda, so'zga chechanlikda bir-birlaridan qolishmasligini sinovdan o'tkazishning vositalaridan biri ham hisoblanadi.

Laparlarning janr xususiyatlarini belgilaganda ularning o'ziga xos kompozisiyaga - dialogik (muloqot) shakliga ega ekanliklarini ham unutmaslik lozim. Chunki lirik qo'shiqlar voqelikni shaxsning ongiy kechinmalari vositasida badiiy aks ettirish ma'lum haqiqat bo'lsada, biroq ana shu kechinmalarni qay yo'sinda, qanday shakllarda tinglovchiga yetkazish xalq lirikasi janrlari, xususan, laparlar uchun ham muhim muammo hisoblanadi.

Nutqning ikki shaxs o'rtasida savol-javob, savol-aks javob tarzda kechishi tinglovchilarda mazkur janrga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Chunki ikki lirik obrazning dramatizmga to'la qalb kechinmalarini butun jo'shqinligi, ziddiyatligi bilan ifodalash tinglovchilarning diqqat-e'tiborini, fikr-zikrini cho'lg'ab olishi tabiiy holdir. Mana shuning uchun ham dialogik nutq shakli lapar janrining yetakchi kompozision usuli, bosh estetik tamoyili darajasiga ko'tarilgan.

Demak, lapar janriga xos dialog shaklidagi kompozisiya, bir tomondan, asardagi obrazlarning ruhiy kechinmalarini, ana shu kechinmalar zamiridagi dramatik taranglikni tinglovchilarga butun murakkabligi bilan yetkazishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan asarni oddiy bayonchilikdan qutqaradi. Bayonchilik esa, lirik janrlar uchun xos xususiyat emas. Uchinchi tomondan, har bir to'rtlikning o'zga shaxs tomonidan ijro etilishi asardagi polifoniya (ko'povozlilik)ning kuchayishiga olib keladi. Polifoniyada esa lirik qahramonlarning hayotga bo'lgan munosabatlari aniq va lo'nda ifodalanadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, dialog shakli lapar janri uchun faqat shakliy xususiyat emas, balki janrning hayotiy, g'oyaviy-estetik vazifasini to'la aks etishga xizmat qiluvchi kompozision usuldir. Estetik jihatdan qaralsa, dialogik shakl lirik qaxramonni asar voqealari ichiga olib kiradi. Uning qalb kechinmalarini o'z tili orqali ochishga imkon beradi. Shuning uchun ham bunday nutq shakli asarga samimiylik bag'ishlaydi, obrazlarning faolligini ta'minlaydi. Asarni o'z nutqi bilan ishtirok etish va ana shu nutq vositasida o'zligini namoyon etish jihatidan lapar janri adabiy turlardan dramatik turga yaqin tursa, ruhiy holat va qalb kechinmalarini samimiy, bevosita, ifodalash bilan lirik turga mansub janrlardan birini tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, ikki adabiy turga xos xususiyatlarni jamuljam etganligi uchun ham laparlar kuchli dramatizmga ega bo‘lgan dil yonishlarini butun harorati va murakkabligi bilan ifodalaydi. Laparlarga xos bunday sinkretizm janrning qadimiyligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Пропп В.Я. Принципы классификации фольклорных жанров // Пропп В.Я. Фольклор и действительность. -М., 1976.
2. Халилов Х.М. Народы Дагестана //Семейно-обрядовая поэзия народов Северного Кавказа. -Махачкала, 1985.
3. Косвен М.О. Очерки истории первобытной культуры. -М.: Наука, 1958.
4. Oq olma, qizil olma. O‘zbek xalq qo‘shiqlari /To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi M.Alaviya. -T.: Adabiyot va san’at, 1972.
5. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. -T.: O‘qituvchi, 1990.

O‘ZBEK MAROSIM FOLKLORINING O‘RGANILISHI TARIXIGA AYRIM CHIZGILAR

Matluba Murodova,

O‘zDXA professori v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).



Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek marosim folklorining o‘rganilish tarixiga oid bo‘lib, maqolada o‘zbek xalqining o‘ziga xos turmush tarzi va milliy an'analar, og‘zaki badiiy ijodining shakllanish tarixi va genetik asoslari hamda murakkab taraqqiyot bosqichlari haqida so‘z yuritiladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari hamda sharqshunos olim N.N.Pantusovning “Ili okrugi taranchilarining lahjasini o‘rganishga doir materiallar” nomli asaridagi U manbalardan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek marosim folklori, to‘y marosimlari, “bo‘ta soldi” (“po‘ta soldi)”udumi, marosim qo‘shiqlari, etnofolkloristika, folklor materiallari.

Аннотация. Данная статья посвящена истории изучения узбекского обрядового фольклора, в статье рассказывается об уникальном образе жизни узбекского народа, истории формирования и генетических основах узбекского народа, национальных традициях и об устном художественном творчестве, сложных этапах разработка. Примеры источников приведены в работе Махмуда Кошгари «Девону Луготит Тюрк» и в работе «Материалы для изучения диалекта танчи Илийского региона» ученого-востоковеда Н.Н.Пантусова.

Ключевые слова: узбекский обрядовый фольклор, свадебный обряд, жанр “бўта солди” (“пўта солди”), песня, поэтический контекст, этнофольклористика, фольклорные материалы.

Annotation. This article is devoted to the history of the study of Uzbek ritual folklore, the article tells about the unique way of life of the Uzbek people, the history of the formation and genetic foundations of the

Uzbek people, national traditions and oral art, complex stages of development.

Examples of sources are given in the work of Mahmud Koshgari «Devonu Lugotit Turk» and in the work «Materials for the study of the Tanchi dialect of the Ili region» by the orientalist N.N.Pantusov.

Key words: Uzbek ceremonial folklore, wedding ceremony, genre "buta soldi" ("pўta soldi"), song, poetic context, ethnofolkloristics, folklore materials.

Xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish - xalqning turmush tarzi, buguni va kelajagi, oʻy-kechinmalari hamda ruhiyatini oʻrganish demakdir, chunki bunda millatning oʻzligini anglashi, oʻzini namoyon etish tamoyillari, koʻp yillik hayot tarzi va dunyoqarashi aks etgan boʻladi. Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida har bir xalqning milliy oʻzligini anglatadigan marosim folklori va bu folklor janrlari tarkibining oʻziga xos jihatlari, tarixiy-genetik asoslari, marosim qoʻshiqlarining struktural-semantik xususiyatlari va poetikasini tadqiq etish dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biriga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin milliy mentalitetimizni belgilaydigan ma'naviy qadriyatlarni, shu jumladan, marosim folklori materiallarini barcha hududlar boʻyicha toʻplash va tadqiq etish folklorshunoslikning ustuvor tamoyillaridan biri boʻlib qoldi.

Oʻziga xos turmush tarzi va milliy an'analariga ega boʻlgan xalqimiz qadim zamonlardan buyon xilma-xil janrlardan iborat ogʻzaki badiiy ijod namunalarini yaratgan. Ajdodlarimizning badiiy iqtidori va ijodiy salohiyati keng qamrovli boʻlganligi tufayli gʻoyat ulkan folklor merosi yuzaga kelganki, bu bebaho qadriyatlar silsilasi ma'naviyatimizning taraqqiy etishini ta'minlagan muhim omillardan biri boʻlib kelmoqda.

"Oʻzbek folklori xalqimiz badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, soʻz san'atining ogʻzaki turi hisoblanadi. U uzoq tarixga, murakkab taraqqiyot bosqichlariga ega",–deb yozadi akademik Toʻra Mirzayev [1, 3]. Xalqimizning kundalik mehnati va turmushi bilan bogʻliq holda shakllangan folklor ijrochiligi an'analari uzoq davrlarni oʻz ichiga qamrab olgan izchil tarixiy-folkloriy jarayon natijasida muttasil takomillashib, taraqqiy etib kelgan. Natijada, xalq ijodiyotining u yoki bu namunalarini (masalan, qoʻshiq, folklor raqs ijrochiligi, doston, rivoyat, ertak va boshqa) aytishga, ijro etishga ixtisoslashgan professional ijrochilar tipi yuzaga kelgan. Xalq ijodiyotida voqelikni badiiy idrok etish va talqin qilish usullarining takomillashib borishi jarayonida hayotiy-maishiy funksiyasi va qamrovining oʻziga xosligi, muayyan poetik tizimga egaligi hamda badiiy ifoda usulining originalligi bilan bir-biridan farqlanib turuvchi folklor janrlari tarkibi ham doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boravergan. Ayniqsa, xalqimizning milliy oʻzligini ifodalovchi urf-odat va marosimlari bilan bogʻliq xilma-xil folklor janrlarining shakllanishi xalq ijodiyotining tarixiy taraqqiyotida muhim rol oʻynagan. Chunki marosim folklori benazir nomoddiy madaniy meros namunasi boʻlishi bilan bir qatorda, yosh avlodning badiiy-estetik didini oʻstirish, ularda milliy qadriyatlarga boʻlgan e'tiborni shakllantirish

hamda millatning ma'naviy birligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham xarakterlanadi.

O'zining shakllanish tarixi va genetik asoslariga ko'ra marosim folklori janrlari badiiy tafakkurning eng qadimiy namunalari sirasiga mansub bo'lib, unda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning mifologik qarashlaridan tortib, turli rasm-rusumlari va ibtidoiy ritual-larigacha bo'lgan etnomadaniy qatlamning izlarini uchratish mumkin.

Xalqimizda azaldan muqaddas sanalib kelinayotgan odatlaridan ayrimlari haqida so'z yuritganda ularning naqadar qadimiy ekanligidan vofiq bo'lamiz. Masalan, xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinagan odatlardan biri – sovchilik bilan bog'liq bo'lgan "sovchi" so'zining kelib chiqish tarixi haqidagi ayrim ma'lumotlar XI asrda yashagan mashhur tilshunos, folklorshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham uchratish mumkin. Devonda "sav" so'zi "maqol, matal, biror voqea-hodisani aytib bermoq, hikoya qilib bermoq, hikoya, yozma xabar, xat, kelin bilan kuyov o'rtasida xat-xabarlar yetkazib turuvchi kishi" ma'nolarida ishlatilganligini qayd etgan [2, 214-215]. Boshqa manbalarda ham "sovchi" atamasi qadimgi turkiylar tilida "so'z", "xabar", "hikoya" ma'nolarida qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Folklorshunos olima Z.Husainova tomonidan 1962 yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidan yozib olingan marosim folklori janrlariga oid bo'lgan "bo'ta soldi" o'yinida uchraydigan "bo'ta soldi" udumi qo'shig'ining mazmuni bu udum qadimiy udumlardan biri ekanligidan ma'lumot beradi.

Bo'ta solay, kimga solay,
Chochi uzun qizga solay,
Osmondagi oyga solay,
Chochi uzun qizga solay [3.] –

"Bo'ta soldi" udumi bilan aloqador qo'shiq va aytimlar Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani qishloqlarida ham mavjud bo'lgan [4]. Ilmiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, xalq orasida "bo'ta soldi" yoki "po'ta soldi" nomi bilan tanilgan ushbu udum nikoh to'yi marosimi tarkibidagi nisbatan qadimiy udumlardan biri ekan. Uyg'ur xalq lirikasi yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan O.Boqiyev o'zining monografiyasida 1873 yilda Sharqiy Turkistonda ilmiy komandirovkada bo'lgan sharqshunos olim N.N.Pantusov[1] Ili tumanida yashovchi uyg'urlarning "maylis o'yini"da qiz va yigitlar bir-birlariga po'ta solish asnosida bayt aytganlarini qayd etgan ekan [5, 142]. Biz N.N.Pantusovning "Ili okrugi taranchi[2]larining lahjasini o'rganishga doir materiallar" nomli asarining elektron nusxasini internet manbalaridan izlab topib ko'rganimizda, darhaqiqat, Ilida istiqomat qilgan uyg'urlar orasida "po'ta soldi" udumi mavjud

[1]Nikolay Nikolayevich Pantusov – atoqli sharqshunos olim, XIX –XX asrlarda O'rta Osiyo tarixiga oid bir qancha qimmatli tadqiqotlar e'lon qilgan. Tadqiqotchi O'rta Osiyo xalqlari tarixi va hayotiga katta qiziqish biln qarab, qadimiy qo'lyozmalar, qadimiy yodgorliklar, qozoq va qirg'iz xalq og'zaki ijodi namunalari, arxeologik va etnografik manbalarni to'plash va o'rganish bilan faol shug'ullangan.

[2]Taranchi- XVIII asrda Sharqiy Turkistondan xitoylar tomonidan ko'chirilgan Xitoyning G'ulja viiloyati (Shinjon vilooyati) musulmon dehqon aholisi.

bo‘lganligiga amin bo‘ldik [6, 27-28]. Qiz va yigitlarning to‘ylardagi bayt, ashula, naqsh, o‘lan aytish-ish udumi uyg‘urlarda “maylis” deb yuritilgan ekan. Odatda, qizni uzatishdan bir-ikki kun burun o‘tkazilgan ana shunday “maylis”-da taom yeb bo‘lingach, yigit va qizlar bir joyda to‘planishib “puta soldi” o‘ynashgan. Bunda ular bir-birlariga po‘ta solib, bir-birining ko‘nglini olish hamda xushkayfiyat baxsh etish uchun lirik mazmundagi baytlarni aytishgan. An'anaga ko‘ra “po‘ta soldi” qo‘shiqlari aytishuv tarzida ijro etilgan:

Yigitlar qizlarga po‘ta solib turib shirin so‘z bilan bayt aytgani:

Eshik ochib to‘rga boqsam bir go‘zal yor o‘ltirur,
Qoshlari qiygan qalamdek, ko‘zlari nor o‘ltirur.
Sochlari belgi tushibtur, bellari bir qilcha yo‘q,
Ishqimiz sizga tushibtur, o‘zgalar bir pulcha yo‘q.

Qizlar yigitlarga po‘ta solib turib shirin so‘z bilan bayt aytgani:

Tom boshida o‘ltiribsiz qaddi shamshodlig‘ yigit,
So‘zidan sharbat oqadur, sharbati totlig‘ yigit.
Lablarining g‘unchasidan bir gulini uzmadim,
Sizga bir ko‘nglim tushibdir umidimni uzmadim.

Yigitlar qizlarga po‘ta solib turib shirin so‘z bilan bayt aytgani:

Oqqina kuylak kiyibsiz oq tikanlar ilmasin,
Men sizga po‘ta solayin xalqi olam bilmasin.

Xalqi olam bilsa bilsin va'da yolg‘on bo‘lmasin,
Va'dasida turmagan aslo musulmon bo‘lmasin.

Qizlar yigitlarga po‘ta solib turib shirin so‘z bilan bayt aytgani:

Po‘ta solay yigitga deb men po‘tamni yechimman,
Oy yuzingni bir ko‘rib bu aqlimdan shoshibman.
Parvonaday o‘tingga men o‘zimni kuydiray,
Yurak qaynar qozondek, qaynab-qaynab toshibman.

“Bo‘ta soldi” udumi qo‘shiqlari qiz va yigitlar tomonidan aytishuv sifatida ijro etilishi, o‘ziga xos vazn va qofiya tuzilishiga ko‘ra ajralib turishi, ishq-muhabbat, sof sevgi, vafo va sadoqat, oila muqaddasligi, inson qadr-qimmatining ulug‘ligi, do‘stlik, o‘zaro ahilllik va mehr-oqibatni tarannum etishi bilan xarakterlanadi. “Bo‘ta soldi” (po‘ta soldi) udumi qo‘shiqlarini aytish an'anasi boshqa turkiy xalqlar, xususan, uyg‘urlar orasida ham mavjudligi bu tip marosim qo‘shiqlarining qadimiyligini ko‘rsatadi.

Demak, “bo‘ta soldi” udumi va uning poetik folklori tili asosan qorluq-chigil dialektiga mansub bo‘lgan uyg‘ur va o‘zbeklar og‘zaki badiiy ijodida mavjudligi bu janrga mansub marosim qo‘shiqlari o‘troq dehqonchilik va shahar madaniyati rivojlangan hududlarda shakllanganligidan dalolat beradi. Mazkur udum o‘zining etnografik talqini hamda verbal qismi – poetik matndan iborat an'anaviy folklorini hozirga qadar saqlab kelganligi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev T. Kirish // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1988.

2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T.3. – Toshkent: Fan, 1960.

3. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.№1561/24. Bulung'ur tumani Niyozmat qishlog'ida yashovchi 40 yoshli Xadicha Isoqovadan Z.Husainova yozib olgan.

4. Ro'ziyeva G. "Bo'ta soldi" udumi aytimlari va uning etnofolkloristik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010

5. Boqiyev O. Uyg'ur xalq lirik she'riyati. – Toshkent: Fan, 1978.

6. Пантусов Н.П. Материалии к изучению наречии таранчей Илийского округа. – Казань, 1907. – С.27-28.

7. Sarimsoqov R. Ko'hhna Jizzax navolari. – Toshkent. 2012. – B.27-28.

MUSIQA NAZARIYASI VA INNOVATSION TA'LIM

Nodira Alimdjanova

O'zDXA dotsenti v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa nazariyasi fanini o'qitishda innovatsion usullarning o'rni va ahamiyati, asosiy tamoyillari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, milliy madaniyat, estetik tarbiya, yosh avlod, san'at, tarix, ma'naviy-ma'rifiy vosita, falsafiy talqin.

Abstract: In this article, the role and importance of innovative methods in the teaching of music theory, and its main principles are studied.

Key words: classical music, national culture, aesthetic education, young generation, art, history, spiritual and educational tool, philosophical interpretation.

Аннотация. В данной статье исследуются роль и значение инновационных методов в преподавании теории музыки, ее основные принципы.

Ключевые слова: классическая музыка, национальная культура, эстетическое воспитание, молодое поколение, искусство, история, духовно-воспитательное средство, философское осмысление.

Insoniyatning ilk davridan boshlab Sharq falsafasida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga jiddiy e'tibor beriladi. Xalq og'zaki ijodining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan barhayot an'analari ham musiqada yorqinroq aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yana-da rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'rsida" gi qarorida "o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'-

dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash"[1] muhim masala ekanligi alohida ta'kidlangan.

Nafosat va ezgulik haqidagi tuyg'ularning badiiy-estetik qadriyatlarga aylanishida ham asosiy ma'naviy-tarbiyaviy vazifani musiqa bajaradi. Ayniqsa yosh avlodning ruhan poklanishi va kamolotida musiqiy tarbiyaning o'rni beqiyos. Musiqiy tasavvurlar va ohang inson ruhiyatiga, uning sezgi quvvatlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Yoshlar tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng murakkab jarayon hisoblanadi. O'tmishga nazar solsak, Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati va san'atining har bir davri o'ziga xos ijro uslublari bilan ajralib turadi.Ularda ma'lum ma'noda ibtidoiy odamlarning hayoti, urf-odatlari, turmush tarzining qadimiy ildizlari saqlangan bo'lib, keyinchalik shakllangan milliy qadriyatlar ham ohanglar orqali avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Mumtoz musiqalarda milliy ruhning ustuvorligi uning umrboqiyligini bildiradi.

Hozirgi kunga kelib musiqa san'ati tarixiy bosqichlarini o'rganishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Musiqa san'atini mukammal o'rganish va uning yangi tarixini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, mumtoz musiqalarda xalqning milliy qadriyatlari umuminsoniy fazilatlar bilan hamohang aks etadi. Sof milliy ohanglarni tiklash hamda rivojlantirish, ularning madaniy-ijtimoiy hayotimizdagi o'rnini belgilash, dunyo miqyosida tanitish va targ'ib qilish, nufuzini yana-da yuksaltirish borasida mamlakatimizda istiqbolli islohotlar belgilangan va ular bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda.

Azaliy va abadiy qadriyatlar asosida shakllangan, istiqlol yillarida qaytadan qaddini tiklab, rivojlanib borayotgan mumtoz musiqa san'ati keyingi besh yilda tom ma'noda yangi bosqichga ko'tarilib, uning milliy madaniyatimiz taraqqiyotidagi o'rni va maqomi har tomonlama mustahkamlanib bormoqda. Milliy san'atning muhim tarkibi hisoblangan mumtoz musiqaga davlat miqyosida e'tibor berilmoqda.

Kuy - borliqni o'ziga xos tarzda aks ettiradi hamda olam va odamni tushunib olish va ular haqida to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Xususan, mumtoz musiqalar insonning ruhiy olamini, badiiy-estetik qarashlarini o'ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi.

Musiqa nazariyasi boshqa fanlardan o'zining tadrijiy jarayonlari, badiiyligi, qiziqarliligi va talabalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular uyg'otishi bilan ajralib turadi. Talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish uchun bugungi kunda oliy ta'limda musiqa nazariyasi fanini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, an'anaviy metodlarni takomillashtirish va ularni yangi g'oyalar bilan boyitish davr talabidir. Har bir mashg'ulotni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishdan maqsad talabalarning badiiy estetik saviyasini oshirish bilan bir qatorda ularga fan haqida to'liq tushuncha berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida "Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular xalq qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il - qizlarimiz mamlakatimizni yana-da taraqqiy ettir-

ishda yetakchi o‘rin tutadi.”[2;], deya alohida ta'kidladi. Mumtoz musiqa sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy musiqa ildizlarini chuqur anglagan yosh kadrlarni tayyorlash, ularning kasb malakasini oshirish mutaxassislar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bugunning iste'dodli yoshlari san'atdagi yutuqlari, o‘z ixtirolari, innovatsion g‘oyalari, ilm-fandagi tadqiqotlari bilan jahonga chiqmoqdalar.

Xalq ma'naviyatining tarixi qanchalik boy bo‘lsa, uning bugungi kundagi intellektual imkoniyatlari, yoshlarining intilishlari, maqsadlari ham kundan kunga yuksalib boraveradi. Muhtaram Prezidentimizning “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida yoshlar uchun qo‘shimcha o‘ttizdan ortiq yangi imtiyoz va imkoniyatlar yaratish belgilangan.

Uchinchi Renessansni yaratishda yoshlar faol ishtirok etishlari ular barcha fanlar qatrida mumtoz musiqa tarixini ham mukammal o‘rganishlari va yangi tadqiqotlar olib borishlari shart. Milliy yuksalish sari dadil qadam tashlayotgan bo‘lajak mutaxassislar davlatimiz rahbarining ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surgan beshta muhim tashabbusini o‘zlariga dasturilamal qilib olishlari zarur.

Talabalarni musiqa olamga olib kirish uchun musiqa san'atiga qiziqishini kuchaytirish, musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy tafakkur, musiqiy did va musiqiy dunyoqarashni shakllantirish kerak. Talabalar asarning muallifi, u qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o‘lchovi, ritmi, dinamik belgilarini aniqlash malakalariga ham ega bo‘lishlari lozim. Mana shu jarayonda musiqiy-nazariy bilimlar muhim o‘rin tutadi. Mashg‘ulotlarga qo‘yiladigan didaktik talablar tizimida qo‘llaniladigan metodikaning aniq va tushunarli bo‘lishi talab etiladi. Avval o‘tilgan mavzular bilan keyingi mavzularning uzviy bog‘langan bo‘lishi, o‘tiladigan mavzuga mos material tanlash, mashg‘ulotlarni o‘tkazishda samarali usul va metodlardan foydalanish, darsni tashkil eta bilish, jamoa, guruh va individual ishlash usullarini o‘zlashtirish, dars jarayonida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish zarurdir.

Ushbu asosiy vazifalardan tashqari, “Musiqa nazariyasi” fani talabaning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘tadigan darslariga yordam berishni ham maqsad qiladi.

“Musiqa nazariyasi” fanini o‘rganish amaliy jihatdan tegishli yordam berishi uchun undagi asosiy qoidalar bilan tanishish bilan birga mashqlar ustida muntazam ish olib borish zarur. Bu esa olingan bilim va ko‘nikmalarni yana-da mustahkamlashga yordam beradi.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo‘yiladigan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassis sifatida avvalo o‘zligini, o‘z qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarini bilgan holda atrofidagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat olib borishdir. [6;18]

“Musiqa nazariyasi” fani dars jarayonida quyidagi vazifalarni maqsad qiladi:

- talabalarning musiqiy savodini shakllantirish, musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash va ularni idrok yetish qobiliyatini hosil qilish;

- talabalarning musiqiy dunyoqarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish;

- musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Musiqa nazariyasi" fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarning musiqiy savodini shakllantirish, musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash va ularni idrok yetish qobiliyatini hosil qilish maqsad qilinadi. Fanni o'rganish talabalarning musiqiy dunyoqarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent.: "O'qituvchi" MU, 2021.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. O'zA, 2021 yil 14 iyul.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yana-da rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25- son.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Amir Temur ibratlaridan namunalar. Toshkent.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995.

4.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.6-j.T.:"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2003.

6. Karimova D., Namozova D. Musiqa o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.–T.: 2014. - 85 b.

7. Ibraximjanova G.A va boshqalar. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. -T.: "O'zbekiston faylasuf lari milliy jamiyati"nashriyoti, 2017.

“XOREOGRAFIYA SAN’ATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH” FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mavludaxon Adasheva,

O‘zDXA dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari aniq belgilab olingani, shuningdek, axborot texnologiyalari, informatika, kompyuter savodxonligini ta’lim jarayoniga, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida fanlar tarkibida o‘qitilishidagi chora tadbirlar amalga oshirib kelinayotgani haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kompyuter, axborot texnologiya, informatika, ta’lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, malaka, ko‘nikma.

Аннотация. В данной статье четко определены сущность, цели и задачи кардинальных реформ, проводимых в сфере образования в нашей Республике, а также реализуются меры в образовательном процессе информационных технологий, информатики, компьютерной грамотности, особенно в системе высшего образования.

Ключевые слова: Компьютер, информационные технологии, информатика, образовательные технологии, педагогические технологии, квалификации, навыки.

Annotation: In this article, the essence, goals and objectives of the fundamental reforms implemented in the field of education in our Republic are clearly defined, as well as measures are being implemented in the educational process of information technology, informatics, computer literacy, especially in the higher education system is spoken.

Key words: Computer, information technologies, informatics, educational technologies, pedagogical technologies, qualifications, skills.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning yaqqol misoli sifatida 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorida ko'rsatilgan vazifalarni keltirish mumkin. Xalqimizning yoshlarga bo'lgan dunyoqarash va munosabatidan kelib chiqqan holda, yoshlar tarbiyasi, kamoloti masalasi har doim xukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda[1;]. Shu maqsadda yoshlarni tarbiyalash, ushbu jarayonga xizmat qiluvchi vositalarni takomillashtirib, rivojlantirib borish davr talablaridan biri hisoblanadi. Ana shunday zamonaviy talablardan biri bo'lgan axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llash, ularning yutuqlaridan foydalanish barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'TGAN DAVR ICHIDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYASI BO'YICHA DAVLAT TOMONIDAN QATOR ISHLAR AMALGA OSHIRILDI.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalari (2017-2020 y.y.) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning tegishli modda va ilovalarida ham mazkur masalalar bo'yicha maqsadli va istiqbolli vazifalar belgilab berilgan. Mazkur hujjatning oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridagi butun bir paragrafida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish masalalari bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ko'lami aniq ko'rsatib o'tilgan.

Ana shu maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash soha mutaxassislari qatorida olimlar va professor-o'qituvchilarga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ilg'or pedagogik va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga ham astoydil kirishilishi lozim.

Yangi O'zbekistonda davlatimiz oldiga xalq xo'jaligining barcha sohalarini jahon andozalariga yetkazishdek ulkan vazifalar qo'yildi. Ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Unda eng samarali, vaqt chig'irig'idan o'tgan, ishonchli pedagogik g'oyalar o'z aksini topishi kerak. O'tgan davr ichida ta'lim tizimini modernizatsiyasi bo'yicha davlat tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Albatta, ushbu sayiharakatlar ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Hozirgi kundagi axborotlar ummonidan kerakli bilim gavharini topish, unga ishlov berish va undan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish masalalarini axborot texnologiyalarisiz va amaliy dasturlarsiz tasavvur qilish mushkul. XXI asrning yetuk mutaxassisi bo'lish uchun avvalo kompyuter savodxoni bo'lish hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallamog'i lozim. Har bir mutaxassis, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi

uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni qo'llash usullarini bilishi va samarali qo'llash ko'nikma hamda malakalariga ega bo'lishi zarur.

Shu sababli bugungi kunda Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari aniq belgilab olingan.

Axborot texnologiyalari, informatika, kompyuter savodxonligini ta'lim jarayoniga, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida fanlar tarkibida o'qitilishi va mavjudlarini zamon talablaridan kelib chiqib, isloh qilinishi borasida ham ahamiyatli chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida mazkur sohani isloh qilish va soha xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirish maqsadida "Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" fani joriy etildi. Bu albatta sinov-tajriba sifatida o'z natijalarini ko'rsata boshladi. Biroq, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar va e'tibor berilishi talab etiladigan muammolar ham mavjud. Masalan, talabalar tomonidan quyi ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan bilimlarini aniqlagan holda, mavzular uzluksizligini ta'minlash, bir-biri bilan mantiqiy bog'lanmagan amaliy ishlanmalar ketma-ketligini belgilash kabi bir qator masalalarga yechim topish zarur.

Kelajakda "Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" fanini xoreografiya sohasi uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish uchun barcha shart - sharoitlar mavjud deb hisoblaymiz. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

· materiallarning hajmi, mazmuni, ahamiyati va muhimligi bilan farq qiladigan "Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" fanining mantiqiy bog'langan dasturining mavjudligi;

· fanlarni ixtisoslashtirilgan dasturda, ya'ni bakalavriat yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish imkoniyati;

· fanlarning dasturida axborot texnologiyalari sohasining rivojlanishini hisobga olish mumkinligi;

· mazkur fanni xoreografiya yo'nalishidagi uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha dasturiy ishlanmalar loyihasi ham ishlab chiqildi. Uslubiyat jihatidan "Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" fanining uzluksizligi quyidagilarga asoslanadi:

· axborot texnologiyalari sohasidagi fanlar mazmuni va ularga qo'yiladigan talablarni uyg'unlashtirgan holatda, xoreografiya sohasi uchun alohida o'ziga xos namunalar yaratiladi va ular bosqichma-bosqich rivojlantiriladi;

· o'qitish usullari, bilish hamda o'zlashtirish ko'nikmalarining amaliy jihatlari rivojlantiriladi.

"Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" fanining maqsadi - talabalarga axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari va ulardan foydalanish jarayonlari haqida puxta va ongli ravishda o'zlashtirish uchun bilim asoslari berishni ta'minlashdan, ularga o'quv va keyingi ish faoliyatlarida kompyuter vositalari va dasturlaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi va malakalarini berishda, shular asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi to'g'risida tasavvur hosil qilishdan iborat bo'ladi[2;15].

"Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- talabalarni bilim olishlariga maqsadli ko'maklashish; - talabalarda mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish;

- o'zlashtirilgan bilimlarning kundalik turmush amaliyoti bilan

bog‘lash; - ta’lim va tarbiyani o‘zaro chambarchas bog‘lash;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;

- boshqa fanlar bilan uyg‘unlashish;

- talabaga o‘z bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

Fanda quyidagi didaktik tamoyillariga amal kilinadi:

1) ta’lim jarayonining tarbiyaviy yo‘nalganlik tamoyili;

2) ta’lim va tarbiya birligi tamoyili;

3) tushunarlilik va qiziqarlilik tamoyili;

4) hayotiylik tamoyili;

5) ta’limning ommaboplik tamoyili;

6) ta’limning muntazamligi tamoyili;

7) ta’limning amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili;

8) ko‘rsatmalilik tamoyili;

9) talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;

10) ta’limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyili;

11) ijodiylik tamoyili.

Oliy ta’lim tizimida innovatsiya va axborot texnologiyalarini qo‘llashda quyidagi afzalliklarni yaratadi:

Birinchidan, talabalarga keng ko‘lamdagi imkoniyatlarni taqdim etadi. YA’ni, o‘rganilayotgan obyektga oid ma’lumotlar multimediya tizimi yordamida o‘rgatiladi: eshittiriladi, ko‘rsatiladi, animatsiya va ishtirok etish ta’minlanadi.

Ikkinchidan, o‘zlashtirilayotgan o‘quv materiallarini qayta-qayta namoyish qilish va imitatsiya qilish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, amaliy kompyuter dasturi vositasida fanning o‘rganilayotgan obyekti o‘lchamlarini, uni batafsil o‘rganish maqsadida, kattalashtirish yoki kichiklashtirish, obyektni yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish imkoniyatini beradi.

To‘rtinchidan, oddiy ko‘rish orqali ilg‘ash va kuzatish imkoniyati bo‘lmagan obyektlar, jarayonlar va hodisalarni virtual tasvirlar yordamida laboratoriya yoki amaliy mashg‘ulotlar ko‘rgazmali materiallari taqdim etiladi.

Xoreografiya san’atida axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi avvalambor quyidagilar quyidagilar bilan uzviy bog‘liqdir:

- axborotlashgan jamiyat sharoitida alohida bir shaxsning rivojlanishi bilan birgalikda bo‘lg‘usi mutaxassislarni qulay hayotga tayyorlash;

- xoreografiya sohasining axborotlashish sharoitida ushbu soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashda ko‘maklashish;

- o‘quv-ijodiy jarayonlarni rivojlantirishga ko‘maklashish. Yuqorida sanab o‘tilganlarni hisobga olgan holda xoreografiya san’ati sohasida axborot texnologiyalarining qo‘llaniladigan yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- o‘quv-ijodiy ijodiy jarayonlarni takomillashtiradigan va uning samaradorligini oshiradigan o‘qitish vositasi sifatida bilimlarni yetkazish, o‘quv, repititsiya va hisobot konsert jarayonlarini modellashtirish, erishilgan natijalarni nazorat qilish maqsadida zamonaviy kompyuterlarning dasturiy va uslubiy ta’minoti imkoniyatlaridan foydalaniladi;

- o‘quv muassasalari, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi tashkilotlarda o‘quv-tarbiyaviy va tashkilotchilik jarayonlarini axborot-uslubiy ta’minoti hamda boshqarish vositasi orqali qo‘llash;

- raqs bilan shug‘ullanuvchi shaxsni jismoniy, aqliy, funksional va psixologik holatlarini kompyuterda testlashtirish jarayoni orqali nazorat qilish;

- konsertlar va ilmiy-ijodiy izlanishlar natijalarini qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida qarash;

- xoreograflar uchun rivojlantiruvchi, intellektual salohiyatni oshiruvchi o‘yinlarni tashkil etish vositasi sifatida qarash;

- madaniyat va raqs sohasini reklama, nashriyot va tadbirkorlik faoliyatlarida qo'llash;

- raqs san'ati bilan shug'ullanuvchi turli kontingentlarning salomatligi va jismoniy holati monitoringini tashkil etish.

Yurtimizda axborot texnologiyalarining zamonaviy bosqichdagi rivojlanishini baholashda yo'nalishlar va ularning qo'llanilishi turlarining rangbarangligiga qaramay, ushbu ishlanmalar keng miqyosda ommalashmagan. Toki bizning yurtimiz mutaxassislarida to'plangan salohiyatdan foydalanish imkoniyati bo'lmas ekan, axborot texnologiyalarining qo'llanilishi kompyuterdan faqatgina "yozuv mashinkasi sifatida" foydalanishimizga sabab bo'ladi.

So'ngi yillarda jamiyatning axborotlashuvi kundan kunga ommalashib bormoqda. Muhimi, bugungi kunda eng zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali professional xoreograflar va malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'pgina qulaylik va ustunliklarga olib keladi.

Yangi O'zbekistonni yanada buyuk davlat sifatida rivojlanishida, xoreograflarimizni eng nufuzli tanlovlarda munosib ishtirok etishi va mamlakatimiz shon-shuhratini butun dunyoga yoyishda xoreografiya sohasi va uni axborotlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalana bilish, boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish, undan turli maqsadlarda foydalanishga harakat qilayotgan kuchlarning maqsadlarini anglashda ham yordam beradi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi ong va tafakkur rivojlangan dunyoda yod kuchlar mamlakat hududiga to'g'ridan-to'g'ri bostirib kirish mumkin emasligini yaxshi anglaydilar. Shuning uchun bunday tajovuzkor kuchlar o'z maqsadlarini har xil yo'llar bilan, ya'ni yoshlarni ongini buzadigan video kliplar, kinolar, modalar va boshqa "ommaviy madaniyat" vositalari orqali buzishga harakat qiladilar. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Albatta, yoshlarimizni bunday illatlardan asrash uchun ularni har doim orqasidan kuzatib yurish mantiqqa to'g'ri kelmaydigan harakatlardan biridir. Ularni asrashning birdan – bir yo'li, bu ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalana bilish ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan maqsad, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bunday islohotlar va maqsadlarni amalga oshirishda asosan barkamol avlodga tayaniladi. Shuning uchun ham keng qamrovli islohotlar negizida barkamol avlodni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Barkamol avlodni shakllantirishda asosiy vositalardan biri san'atga oshno bo'lishlik hisoblanadi. Chunki, madaniyat va san'at yoshlarning voyaga yetishida, sog'lom bo'lib o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom insondagina o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyatlilik, boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish ko'nikmalari hamda fazilatlari shakllanib boradi.

Madaniyat va san'at – har bir xalq va millatning g'ururi, faxri hamda birdamlik hamjihatlilikning mexanizmi sifatida har bir jamiyat siyosiy elitasining samarali faoliyatini belgilaydi. Har bir jamiyatda san'at ravnaqi, taraqqiyoti, vujudga kelishi turli sabab va oqibatlar asosida tahlil qilinadi.

Ta'kidlash joizki, eng yangi davrda murakkab sharoitlarda axborotlashgan jamiyat yetilib kelmoqda. Insonparvarlik uning mavjud bo'lishining asosiy omili bo'lishi kerak. Chunki, bunday jamiyatda umumiy jihatdan insonparvar, har tomonlama rivojlangan shaxsga talab kuchayadi.

Madaniyat va san'at insonlar o'rtasidagi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy asosga taqaluvchi ijtimoiy munosabatlarning asosiy qismi sanaladi. Ularning subyektiv va obyektiv jihatlarini o'zida namoyon etadi, inson hayotining va mehnat shartsharoitlarining shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Mana shunday holat va jarayonda madaniyat, san'at hamda axborot texnologiyalari hamkorligini kuchaytirish, axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan xoreografiya san'atida foydalanish, sohaning sir-asrorlarini to'liq va mazmunan talabalarga yetkazishda qo'l keladi. Qolaversa, axborot texnologiyalarining imkoniyatlari yoshlarni madaniyat va raqs san'atiga bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinida fikr-mulohazalarimni Konfusiyning 3500 yil oldin aytgan quyidagi satrlari bilan muxtasar qilmoqchiman:- "Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam, tushunib yetaman"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947– son Farmoni, Lex.uz

2. Adasheva M.U. "Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish" o'.q., Navro'z. T. - 2020y.

YOSH AVLOD TA'LIM TARBIYASIDA MADANIY MEROSNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Jahongir G'aniyev

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori, tarix fanlari nomzodi, dotsent



Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda madaniy merosning o'rni va ahamiyati, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarga munosabati tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy g'oya, madaniy meros, tarbiya, ma'naviyat, o'tmish, milliy o'zlik, an'ana, qadriyat, istiqbol, badiiy tafakkur, Uchinchi Renessans.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение культурного наследия и отношения узбекского народа к национальным ценностям в создании основ нового Возрождения, Третьего Возрождения в Узбекистане.

Ключевые слова: национальная идея, культурное наследие, образование, духовность, прошлое, национальное самосознание, традиция, ценность, перспектива, художественное мышление, Третье Возрождение.

Annotation. This article discusses the role and significance of the cultural heritage and the attitude of the Uzbek people to national values in creating the foundations of a new Renaissance, the Third Renaissance in Uzbekistan.

Key words: national idea, cultural heritage, education, spirituality, past, national identity, tradition, value, perspective, artistic thinking, Third Renaissance.

Bugungi yosh avlod haqli ravishda buyuk bobokalonlarimiz Mahmud Qoshg'ariy, Burhoniddin Rabg'uziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Hakim at-Termiziy, imom Buxoriy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur kabi tabarruk nomlarni faxr bilan

tilga oladilar. Ularning insoniyat ilmu fani, axloqiy tarbiyasiga qo'shgan hissalari bebahodir.

Ajdodlarimizdan Ibn Sino, badantarbiya va sog'lom hayot to'g'risida asarlar yaratgan holda boshqa bir ajdodimiz Abdulla Avloniy yoshlarning ahloqi, odobi bilim va tafakkuri bo'yicha katta meros qoldirgan olim hisoblanadi. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqtai nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviyatning asosiy sifatlari sanaladi.

XXI asrda globallashuv jarayonlarining kuchayishi oqibatida dunyoda keskin ijtimoiy –siyosiy o'zgarishlar yuz berib, ma'lumotlar almashinuvi, taraqqiyot rivoji kun sayin o'sib bormoqda. Mazkur o'zgarishlar yuz berayotgan vaqtda milliy-ma'naviy qadriyatlarning ta'lim-tarbiyadagi o'rniga bo'lgan e'tibor muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Eng qadimgi zamonlardan boshlab ilm – ma'rifat va ma'naviyat yangi uyg'onish davrining poydevori vazifasini bajargan. Uning zamirida esa insoniyatning milliy tafakkuri, g'oyasi, taraqqiyot va yurt istiqboliga ishonchi mujassamdir. Ijtimoiy – madaniy sohaning ravnaq topishi ilm – fan taraqqiyoti bilan kafolatlanadi. Uchinchi Renessans g'oyasi ona – Vatanimizning istiqlol tarixini o'rganish, targ'ib etishda, o'sib kelayotgan yosh avlod ongu– shuurida milliy o'zlik tuyg'usini uyg'otishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Istiqlol tufayli mamlakatimiz hayotining barcha sohalari qatori madaniyat, ma'naviyat va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni o'rganish hamda butun dunyoga keng targ'ib qilish borasida beqiyos imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

Mustaqillik tufayli buyuk ajdodlarimizning boy ilmi-ijodiy meroslari, xalqning milliy qadriyatlari, ming yilliklarni qamragan betakror va bebaho madaniyati tiklana boshlandi. Azaliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, milliy san'atimiz, folklor namunalari, musiqa va raqs san'ati kabi xalq ma'naviyatini ifodalovchi barcha qadriyatlarimiz qaytadan qad rostladi. Milliy o'zlikni anglash uchun inson avvalo shaxs sifatida shakllanishi zarur. Falsafaga oid manbalarda shaxsning asosiy xususiyatlariga shunday ta'rif beriladi: "Shaxs - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi... Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida qator tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, Sharqda u yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon.

Shaxs sifatida komillikka intilgan insongina hayotining mazmunli, yurtining farovon bo'lishi uchun ku-

rashadi. Shundagina uning qalbidagi o'zlikni anglash tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning bugungi taraqqiyoti milliy o'zlik tuyg'usini shakllantirish va uni jamiyat ma'naviy muhitining asosiy negizi sifatida qabul qilishni hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bizning buyuk ajdodlarimiz qadimdan yuksak salohiyat, ma'naviy-ma'rifiy xislat sohiblari bo'lishgan. Arxeologik qazilmalarda topilayotgan qadimiy shahar va qal'alarning me'moriy yodgorliklari, saroylar, qasrlar, ibodatxonalar qoldiqlari, devorlarga chizilgan suratlar, qadimiy haykaltaroshlarning yorqin iste'dodlari namoyon bo'lgan asarlar, ko'hna zaminning ming yillik afsonaviy tarixi, o'sha zamon xalqlari hayoti, san'ati va madaniyati buyuk ekanligini isbotlaydi.

SHAXS SIFATIDA KOMILLIKKA INTILGAN INSONGINA HAYOTINING MAZMUNLI, YURTINING FAROVON BO'LISHI UCHUN KURASHADI

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari ezgu g'oyasini amalga oshirishda madaniy merosning o'rni va mohiyati yuksak ekanligini davrning o'zi isbotlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim – tarbiyani rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash bo'lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir" [2;304]. Inson ma'naviyatining shakllanishida, uning qalbida Vatan taqdiriga mas'uliyat hissi qaror topishida jamiyatning hal qiluvchi kuchlarini yangi O'zbekistonning istiqboli uchun, savob ishlar, ezgu g'oyalar va bunyodkorlikka safarbar qilishda madaniy meros va milliy o'zlik tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Ma'naviyat" lug'atida unga quyidagicha izoh berilgan: Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma'naviy boyliklarni anglatuvchi tushuncha[3;287]. Shaxs tarbiyasida muhim o'ringa ega milliy o'zlik tuyg'usi shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolotida, fuqarolik jamiyatining moddiy-ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi. Jamiyatdagi ma'naviy tiklanish milliy o'zlikning sifatiy jihatlari bilan chambarchas bog'liq. Zero, o'zlikni anglash tufayli inson o'tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nigoh tashlaydi. Ya'ni o'zlikni anglash insonni shaxs darajasiga ko'tarib, ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan ruhiy kuchdir.

Insoniy munosabatlar, azaliy va abadiy qadriyatlar, tarixiy hodisalar to'qnashib turadigan bu ziddiyatli dunyoda tarix haqiqatlarini tiklash oson emas. Ming yilliklar jarayonida tamaddun beshigi bo'lmish o'zbek zamini son-sanoqsiz urushlar, qirg'inlarga guvoh bo'ldi. Bosqinchilar xalqning boyliklarini talar, tarixiy shaharlarni, muhtasham qasrlarni vay-

ronaga aylantirar, noyob madaniyat va san'at yodgorliklarini yo'q qilar, an'ana va qadriyatlarni o'zgartirib yuborardi. Urushlar oqibatida yurtimizda ko'plab san'at asarlari, me'morchilik, rassomchilik va haykaltaroshlik, musiqa hamda raqsga oid buyumlar va ma'lumotlar nom-nishonsiz yo'qolib ketdi. Bu adolatsizliklar XX asrning 90-yillarigacha davom edi.

Bu milliy-ma'naviy boyliklarni o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hali ko'p vaqt va katta mehnatni talab qiladi.Ta'sirchan kuchga ega bo'lgan milliy raqs san'ati o'z jozibasi va qadim ildizlari bilan inson qalbini qamrab oladi.Shuning barobarida u yoshlar ongu shuuriga milliy o'zlik tuyg'usini singdirishda, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta ijtimoiy-tarbiyaviy va badiiy-estetik qimmatga ega. Avloddan avlodga o'tib, sayqallanib kelgan, o'zbek raqs san'atining tarixi va etnik-madaniy xususiyatlarini milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlikda o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda va barkamol inson tarbiyasida boshqa ko'pgina omil va mezonlar qatori madaniy meros ham alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yosh avlod va uning kelajagi haqida gapirganda ma'naviyat va madaniy meros masalalarini alohida tilga olishi bejiz emas. Chunki, bugungi murakkab zamonda ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalamasdan turib, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish mushkul. Zero, ma'naviyat – insonning qalbi va ongidagi tuyg'u va tushunchalar, uning dunyoqarashi va e'tiqodi, o'z xalqi va Vataniga e'tiqodi, o'zing qanday buyuk allomalarning avlodi ekanini chuqur anglagan holda, har qanday sharoitda ham ularning sha'nu shavkatiga munosib bo'lib yashash, demakdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish joizki O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaning milliy ma'naviy negizlari globallashuv davrida o'ziga hos ikki hil vazifani bajarmoqda.

Birinchidan, ta'lim-tarbiyaning milliy ma'naviy negizlari globallashuv va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'sirlaridan yoshlarimizni saqlab turuvchi, ularni ma'naviy qadriyatlarimiz negizida tarbiyalovchi o'ziga hos bir asos bo'lib hizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz umumbashariy qadriyatlarni o'ziga qabul qilib, ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshishiga, rivojlanishga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida madaniy meros xalqning tarixiy ildizlaridan quvvat olib, uning ma'naviy hayoti, oliy maqsadlari va ezgu niyatlarining uzviy qismiga aylandi. Tarix saboqlari dolg'ali zamon hodisalarini chuqur tahlil qilishga o'rgatdi, millat yoshlarining aqlini charxladi. Millatning qalb ko'zlarini ochdi. O'z millatiga sodiqlik, ko'p asrlik milliy an'analarga muhabbat tuyg'ularini o'stirdi. Qalb ozodligiga intilish tuyg'usini yurtdoshlarimiz ongu-shuuriga singdirishda beqiyos qudratga ega bo'ldi. Xalqning madaniy-ma'rifiy saviyasini ko'tardi, tafakkurini o'stirdi.

Milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini kun tartibidagi asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada muhim o'rin tutishini chuqur anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda, yur-

timiz dovrug'ini dunyoga tanitib, uchinchi renesans davrini yuzaga keltirish uchun kuchli bilim va tarbiyaga, eng asosiysi bugungi kunda mustahkam mafkuraviy immunitetga katta e'tibor qaratishimiz muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf–odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Madaniy meros va milliy qadriyatlar hamda ularga mansub vositalar har bir xalqning xazinasidir, bu bebaho xazinani yangi avlodlarga ziyon– zahmatsiz yetkazish hamma zamonlarning eng dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti.,2021.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.O'zA, 2020y.,4 fevral.

3. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati.T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti.,2021.

4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 7- j. T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat nashriyoti.,2004.

5. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

6.Bayandiyev T.Ikromov H. Ahmetjanova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini. T.:2009.

TAKRORNING A'ZAM O'KTAM VA MINHOJIDDIN MIRZO SHE'RIYATIDA QO'LLANISHI

To'maris Butunbayeva,

O'zDXA o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli o'zbek shoirlari A'zam O'ktam va Minhojiddin Mirzo she'riyatida qo'llangan badiiy takrorning anafora, epifora, xiazm usullari tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: takror, undalma, ta'kid, til birliklari, tasdiq, mantiqiy urg'u, ishora, ohang uyg'unligi.

Аннотация. В статье рассматриваются приемы анафоры, эпифоры, хиазмы художественного повтора, используемые в поэзии известных узбекских поэтов Азама Уктама и Минходжиддина Мирзо.

Ключевые слова: повтор, мотивация, ударение, языковые единицы, высказывание, логическое ударение, жест, тональная гармония.

Annotation. The article examines the techniques of anaphora, epiphora, chiasma of artistic repetition used in the poetry of the famous Uzbek poets Azam Uktam and Minhojiddin Mirzo.

Key words: repetition, motivation, accent, linguistic units, statement, logical stress, gesture, tonal harmony.

She'riy nutqda eng faol qo'llanuvchi badiiy vositalardan biri takrordir. Yu.M.Lotman, I.R.Galperin, V.M.Jirmunskiy, V.G.Gak, N.D.Arutyunova kabi olimlar tadqiqotlarida takrorning matndagi uslubiy jihatlari tadrijiy rivojlantirilgan bo'lsa, o'zbek tilshunoslari izlanishlarida takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi.[2;36]

Tovush, so'z, so'z birikmasi kabi til birliklarining turli maqsadlarda takrorlanishi muayyan uslubiy vazifa bajaradi. Demak, takror tilning barcha sathlariga xos hodisa bo'lib, she'riyatda uning bir katori xususiy ko'rinishlari

mavjud. Mazkur maqolada ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Takror ifodalanayotgan ma'noni kuchaytiruvchi, so'zning ekspressivligi, tasviriyligini oshiruvchi faol omillardan biri sanaladi. Xususan, she'riy matnda takrorlar ko'p qo'llanib, uning jozibadorligi va ta'sirchanligini oshirish, shu yo'l bilan ifodalanayotgan mazmunning adresantga yetib borishini osonlashtirishni ta'minlovchi muhim stilistik vositalardan biridir. "Hozirgi o'zbek she'riyatida erkin va qat'iy tizimli takrorlar keng qo'llanilmoqda."[1;432]

Taniqli shoirlar A'zam O'ktam va Minhojiddin Mirzo badiiy takrorlarning alliteratsiya, assonans, anafora, epifora, xiazm kabi turlarining o'ziga xos individual shakllaridan keng foydalanganlar. (Tadqiq obyektida kuzatilgan tovushlar takroriga oid alliteratsiya, assonans usullari fonopragmatika doirasida tahlil qilindi)

Anafora (yun. anaphora – yuqoriga chiqarish). "Parallel tuzilgan nutq parchalari (mas., misralar) boshida aynan bir unsurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo'llanish. Zid. Epifora". [7;14]

She'riy misralar boshida bir xil so'z yoki so'zlar guruhining takrorlanib kelishi anafora deyiladi. Muayyan til birligining qator misralar boshida takrorlanishi tinglovchi – o'quvchi diqqatini tortar ekan, ushbu so'z yoki so'z birikmasi ifodalayotgan ma'noga e'tibor jalb qilinadi va badiiy nutq emotsionalligini ta'minlaydi. Tadqiqot doirasida araforaning gap bo'lagi, kirish so'z va undalma takroriga oid turlari kuzatildi.

a) gap bo'lagi takrori:
Minhojiddin Mirzo:
Sehrga chulg'angan
Azim bir vodiy...
Taqdir gullarini ko'rdim unda men,
Birisi yashnagan, birisi mavhum,
Birisi ziyoga chulg'ongan shaksiz,
Birisi musibat tig'iga mahkum.

Yoki:

Bunda yalpizlarning ifori bir she'r,
Bunda shabbodalar dutori bir she'r,
Visolli tunlar-chi, g'azal-u doston...
Bunda oshiqlarning nahori bir she'r.

A'zam O'ktam:
Uni men yo'q qildim, demaydi zamon,
Uni men yanchidim, demas siyosat.
Uni men chorladim deb aytar osmon,
Uni men chaqirdim, deydi yer faqat.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, A'zam O'ktam ijodida ko'p o'rinlarda badiiy tasvir vositalarining uyg'unlashgan holda qavatlanib kelgan ajoyib sintez namunalarini ko'rish mumkin. Yuqoridagi satrlarda ham to'ldiruvchi va ega – **uni men** takrorlanib kelgan bo'lsa, **men** mantiqiy urg'u olib, har bir satrda alohida, ya'ni zamon, siyosat, osmon, yer "men"ni ifodalaydi. Shu bilan birga "yo'q qildim" – "yanchidim", "chorladim" – "chaqirdim" sinonimlari parallelligi birinchi, ikkinchi qator uyg'unligini ta'minlagan holda ularning uchinchi, to'rtinchi qatorga zidlanishi ham mavjud. She'rning buyuk shoir Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponga bag'ishlanganiga e'tiborni qaratsak, allyuziya (ishora) orqali erkparvar shoir boshiga tushgan butun bir hodisotlar oqimi o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, noyob iqtidorli shoir A'zam O'ktam to'rt misragina she'rga chuqur pragmatik ma'nolar yuklay olganini kuzatish mumkin. Cho'lpon hayotidagi tahlikalardan

xabardor kitobxon esa buni yana-da teranroq anglaydi.

b) yordamchi so‘z takrori:
O‘tgan kunlarimdan rizo bo‘l,
ko‘nglim,
Goh ochilding, gohida so‘lding.
Goh irmoqday singding sahroga,
Goh ummonday limmo-lim
to‘lding.

v) kirish so‘z takrori:
A'zam O‘ktam:
Yaxshiyam,
bilaman yetti pushtimni,
Yaxshiyam,
tug‘ildim ota yurtimda.
Yaxshiyam,
bolalar sen deb gapirmas,
Yaxshiyam,
rafiqam ko‘tarmas qadah.
Yaxshiyam,
so‘z o‘ynab topmasman boylik,
Yaxshiyam,
bilaman halol mehnatni.
Yaxshiyam,
bir kuni o‘lsam, do‘stlarim
Karnay-surnay chalib,
ichishmas aroq.

Ushbu misralarda **yaxshiyam** kirish so‘zi sintaktik parallelizmdagi har bir jumlada berilayotgan mazmunga e'tiborni kuchaytirishga xizmat qiladi.

g) undalma takrori:
inhojiddin Mirzo:
Andijon, orzuim gullatmoq edi
Tuproqqa belangan
ko‘chalaringni.
Andijon, ishongin, yoritmoq edi
Nursiz sening qaro kechalaringni!

Epifora. She'riyatimizda o'z lingvopoetik tabiatiga ko‘ra anaforaga zid turuvchi epiforadan ham keng foydalaniladi. Anaforada til birliklarining misra boshidagi takrori nazarda tutilsa, epiforada misralar oxiridagi so‘z yoki qo‘shimchalar takroran qo‘llaniladi. Ayrim manbalarda esa misralar oxiridagi unli yoki undosh tovushlar takrori ham epifora sifatida qayd etiladi. [8;355] “Epifora – she'riy misralar oxirida kelgan tovush, so‘z, so‘z birikmasining ohangdoshligi yoki takrori asosida uslubiy bo‘yoqdorlik hosil qiluvchi takror usulidir. Epifora qat'iy tizimli takror bo‘lib, she'rda kelish o‘rniga ko‘ra anaforaga ziddir. Epiforada misralar oxiriga urg‘u beriladi. Natijada misra oxiriga tomon ohangning ko‘tarilishi yuzaga kelib, mantiqiy urg‘u ham shu takror birlikka tushadi.”[5;21] Shu tariqa misralar oxiriga ko‘proq e'tibor qaratilib, alohida urg‘u berilishi tinglovchi-o‘quvchi (adresant) e'tiborini tortadi va fikr ekspressivligini kuchaytiradi. Epiforaning uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi she'riy nutqning kompozitsion yaxlitligi, ohang uyg‘unligini ta'minlaydi.

a) gap bo‘lagi takrori:
Minhojiddin Mirzo:
Bu elda shoirga zabon
Mashrabdan,
Yurakni o‘rtagan fig‘on
Mashrabdan.
Anglamassan oshiq dilin,
ey g‘ofil,
Merosdir ne bo‘lsa nihon
Mashrabdan.

Yoki:

Shoirlar ko‘nglini
yoqqan hur – nazm,
So‘zdan kimyo yanglig‘
paydo nur – nazm,
Asli Qur'on Haqdan
tomgan nur – nazm,
Shoir yuragiga

bir Haq soqiydir,
She'riyat boqiydir!

b) undalma takrori:
Minhojiddin Mirzo:
Buncha ko'p bag'ringda dog'lar,
Osiyo,
Cho'qimish ko'ksing ne zog'lar,
Osiyo.
Nechun cho'kib qoldi, axir
qadding tut,
Bag'ringdagi yuksak tog'lar,
Osiyo ?!

Yoki:

Qalbim tug'yonidan o'sgan,
ey sabo,
Xayolim yo'lini to'sgan, ey sabo,
Yorim yuragidan esgan, ey sabo,
Ming bahor kelsa-da,
sabzasiz onim,
Mahbub deb talpinar
o'rtanib jonim.

Undalmalar takrori murojaat qaratilgan shaxs yoki tushunchani yana-da aniqlashtirish, fikr bayonidagi qat'iyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

v) kirish so'z takrori:
A'zam O'ktam:
Hajr – tog' portlashin bildim,
xayriyat,
Bir kuni chorlashing bildim,
xayriyat,
Ming quyosh porlashin bildim,
xayriyat,
Yod etib seni ...

Yuqorida berilgan she'riy parchalardagi anafora va epifora takrorlarini kuzatar ekanmiz, aksariyat, sintaktik parallelizm bilan sintez holatda yuzga kelishi e'tiborimizni tortdi.

Xiazm. Takrorning yana bir usuli – **xiazm**da gaplardagi so'zlarning o'rinlari almashgan holda ters takrorlanadi. Xiazm "X" harfi shaklida namoyon bo'luvchi uslubiy vositadir. Ikkinchi gap birinchi gap komponentlarining teskari tarzda joylashuvidir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan bo'ladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma'noni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi. [2;20]

"Xiazm poetik nutqda quyidagi vazifalarni bajaradi: 1. Uslubiy-semantik vazifa. Bunda ikki komponent mazmuni o'zaro zidlik kasb etadi yoki aksincha, bir-birini mantiqan to'ldiradi. 2. Ekspressiv vazifa. Bunda o'quvchi yoki tinglovchiga zavq bag'ishlash, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qilishi nazarda tutiladi. 3. Evfonik vazifa. Xiazmni yuzaga keltirayotgan bo'laklar o'zaro o'rin va vazifa jihatidan almashinganda ohang ham shunga mos ravishda almashinib boradi."[4;6] O'zbek tilshunosligida xiazm va gradatsiya usulini keng tahlil qilgan O.Mamaziyayev esa xiazmning to'rtinchi, ya'ni arxitektonik vazifasini ham tadqiq etadi.[3;12]

Xiazmda so'z birikmasi, iboralardagi so'zlarning o'rinlari almashgan holda ters takrorlash orqali **tardi aks** badiiy san'at yuzaga keladi. Aynan mana shu o'rin almashish jarayoni sintaktik birlikning funksional vazifasini ham, u ifodalayotgan mazmunni ham o'zgartirib yuboradi. "Natijada gapning sintaktik strukturasidagi bunday funksional almashinuv unda ifodalayotgan fikr yo'nalishining qarama-qarshi tomonga burilishiga, o'zgarishiga olib keladi."[3;15]

A'zam O'ktam:
*Non yuzi **qizarar jilmayganidan,***
Jilmayar qizarib ketgani uchun.

Birinchi misrada qizarar – kesim, jilmayganidan – sabab holi vazifasida kelgan bo'lsa, ikkinchi misrada jilmayar – kesim, qizarib ketgani uchun – sabab holi shaklini olgan.

A'zam O'ktam:
Ne zotlarga duchor bo'ldik biz,
Hayrat ichra boqarkan beun –
Yig'lamaslik uchun kuldik biz,
Biz yig'ladik kulmaslik uchun.

Ushbu misolda esa uchinchi misradagi «yig'lamaslik uchun» maqsad holi, "kuldik" kesim bo'lsa, to'rtinchi misrada ularning sintaktik vazifasi aynan almashadi: "kulmaslik uchun" – maqsad holi, "yig'ladik" – kesim. Bu ikki misolni **to'liq xiazm** deb atash mumkin.

A'zam O'ktam:
Kun uzoq, yumush ko'p.
Yil o'n ikki oy
soddadil odamlar
bilmaydi tinim.
Charchagisi kelmas
***ishdan** ularning*
ishning charchaganin
bilmaydi hech kim.

Mazkur parchada esa so'zlarning aks takrori ikki gap bo'lagi doirasida bo'lsa ham, funksional almashinuv uch xil gap bo'lagi o'rtasida yuzaga kelgani kuzatiladi. Uchinchi misrada charchagisi kelmas - kesim, ishdan - to'ldiruvchi, ularning - aniqlovchi bo'lsa, to'rtinchi misrada bilmaydi - kesim, charchaganin - to'ldiruvchi, ishning - aniqlovchi.

A'zam O'ktam:
*Qushlaridan **judo bo'lgan***
*keng **samo,***
*Nogoh **osmon**idan **ayrilgan***
qushlar.

Bunda ikkinchi misrada birinchi misradagi ayrim so'zlarning o'rniga ularning sinonimlari qo'llangan: judo bo'lgan – ayrilgan, samo-osmon.

Xiazmning bir oz boshqacharoq usulda, ya'ni o'zgargan holda namoyon bo'lganini hisobga olib, yuqoridagi ikki misolni o'zgaruvli xiazm deb nomladik..

A'zam O'ktam:
Hayot
*Goh **borib***
Devorga urildi boshim.
*Goh **kelib***
Boshimga urildi devor.

Bu yerda esa "xiazm usuli yordamida bir kontekst yordamida o'zaro qarama-qarshi fikr yoki tushuncha ifodalovchi ikki nutqiy birlikni yuzaga chiqarish imkoniyati mavjud"[3;13] bo'lgan holda, xiazmatik takror bilan birgalikda o'zaro zid ma'noli borib - kelib fe'llari ham qo'llanganki, antitezaning yuzaga chiqishi va ma'noning ta'sirchanligi yana-da kuchayadi.

A'zam O'ktamning "Oroldagi o'ylar" she'rida ham xiazmning poetik namunasini ko'rish mumkin:

Har narsani biladigan odamlar,
***"Suv balosidan asra!"** deyishsa,*
Suv hech qurimasa kerak debmiz-a.
Asrash kerak ekan-ku axir,
Balolardan u sho'rlikni ham?...

Ikkinchi misradagi suv so'zi o'rnida beshinchi misrada "u" olmoshi qo'llangani holda "bizni suv balosidan asra" – "suvni balolardan asra" xiazmatik shakldagi qarama-

qarshilik asosida “Orolni balolardan asray olmadik” pragmatik mazmun ifodalanganki, vaziyatdan xabardor kitobxonni chuqur o‘yga toldiradi, Orol dengizini yo‘qotish qayg‘usini yodga soladi. Shoir el dardini yanada chuqurroq ifodalash uchun **-ku, axir, ham** yuklamalarini qatorasiga qo‘llaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent, 2001. -432 b.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2007. – 36 b.
3. Mamaziyayev O. O‘zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol. fan. nomzodlik diss. avtoref. Toshkent, 2004. – 12 b.
4. Shukurov R. Parallel sintaktik butunliklar, nomzodlik diss.avtoref. Farg‘ona, 2004. – 6 b.
5. Shofqorov A. Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. nomzodlik diss. avtoref. Toshkent, 2012. - 21 b.
6. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, 2010. – 100 b.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2002. – 14 b.
8. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent, 2002. – 14 b.

УРОКИ МАСТЕРА

Ильдар Мухтаров,

заведующий отделом театра и хореографии Института искусствознания АН Республики Узбекистан, доктор искусствоведения



Annotatsiya. Maqola atoqli rejissyor, o'zbek sahna san'atining islohotchisi, O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev ijodiga bag'ishlangan. Klassik, tarix va zamonaviylik spektakllaridagi ijodining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. B.Yo'ldoshev rejissyorining milliy madaniyat an'analarini o'zlashtirishdagi izlanishlari, Sharq va G'arbning teatr sahnasida o'zaro ta'siri, tarixga bag'ishlangan spektakllari o'zbek teatri rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: spektakl, talqin, rejissyor, aktyor, obraz, zamonaviylik, tomoshabin, Sharq va G'arb, tarix, an'analar.

Аннотация. Статья посвящена творчеству выдающегося режиссера, реформатора узбекского сценического искусства, народного артиста Узбекистана Баходыра Юлдашева. Рассмотрены основные тенденции его творчества в спектаклях классики, истории и современности. Режиссерские поиски Б.Юлдашева в освоении традиций национальной культуры, взаимодействии Востока и Запада на театральной сцене, его спектакли, посвященные истории оказали сильное влияние на развитие узбекского театра.

Ключевые слова: спектакль, трактовка, режиссер, актер, образ, современность, зритель, Восток-Запад, история, традиция.

Annotation. The article is devoted to the work of the outstanding director, reformer of the Uzbek stage art, People's Artist of Uzbekistan Bakhodir Yuldashev. The main tendencies of his creativity in performances of classics, history and modernity are considered. B. Yuldashev's director's searches in mastering the traditions of national culture, the interaction

of East and West on the theater stage, his performances dedicated to history had a strong influence on the development of the Uzbek theater.

Key words: performance, interpretation, director, actor, image, modernity, spectator, East and West, history, traditions.

В современный период существенно возросли роль и значение крупной творческой личности в искусстве. Крупнейшей личностью культуры Узбекистана надолго останется Баходыр Юлдашев - Народный артист Узбекистана, Заслуженный деятель искусств Узбекистана, лауреат Государственных премий, обладатель премий за лучшую режиссуру престижных театральных фестивалей.

Спектакли, поставленные им на подмостках различных театров страны, прочно вошли в историю узбекского театра. Его театральные постановки органично вобрали в себя богатую палитру национального духовного наследия, опыт традиционного узбекского театра и новации мирового театрального искусства. Творчество Баходыра Юлдашева на протяжении почти полувека фокусировали основные тенденции развития узбекского театрального искусства, а его спектакли стали подлинной школой режиссерского искусства для новых поколений деятелей театра.

Новаторское по сути, его творчество существенно обогатило жанровую палитру и стилевую природу национальной сцены, а также вобрало в себя главные тенденции становления и развития искусства театрализованных представлений. За время работы в театрах страны им поставлены десятки площадных представлений, посвященных дню Независимости, празднику «Навруз», крупнейшим деятелям национальной истории и культуры, а также для всех международных фестивалей «Шарк тароналари». Возможности проявления национальных традиций в современных технологических условиях были опробованы им в площадных театрализованных представлениях, посвященных дню Независимости и празднику «Навруз». Образцы этих зрелищ, ставшие каноническими, также созданы Б.Юлдашевым.

В этих театрализованных представлениях им опробованы возможности проявления национальных традиций в современных технологических условиях. Они стимулировали развитие балетмейстерского искусства, содействовали появлению новых форм народно-сценического танца. В этих масштабных зрелищах ярко представлено танцевальное искусство Узбекистана во всем разнообразии его локальных особенностей. Они служили широчайшей популяризации превосходных образцов танцевального и музыкального искусства всех регионов Узбекистана, хорезмского лазги, ферганского лапара, искусства бахши, а также танцевального искусства Сурхана, прежде остававшееся в тени трех ведущих региональных танцевальных школ Узбекистана.

Совместимость национальных традиций с универсальными ценностями, желание превратить сцену в зону диалога культур Востока и Запада - актуальная проблематика, ярко заявленная в постановках Б.Юлдашева мировой и национальной классики. Глубокая любовь к культурным национальным традициям, пристальный интерес к возможностям жизни этих традиций в каждом компоненте

современного спектакля проявилась в спектаклях Б.Юлдашева, посвященных национальной истории. В каждом своем новом спектакле он искал синтеза уходящей вглубь столетий духовной культуры с образностью современной сцены. Его творчество отличала особая чуткость к богатейшим традициям национальной музыки, литературы, изобразительного искусства, танцевального искусства, архитектуры, всему комплексу традиционной художественной культуры. Наконец, он ищет пути на сцену этнографии, фольклора, национального быта, разнообразных ритуалов.

Его поиски, как правило, продолжаются в творчестве других режиссеров, выливались в целые направления развития современной узбекской сцены.

Если ценность произведения искусства с годами, с десятилетиями возрастает, оно заносится в ранг классических. Относится ли это к театру - искусству кратковременному, существующему, как известно, лишь «здесь, сегодня, сейчас»? Пожалуй, да, если судить по творчеству Б.Юлдашева. Некоторые его спектакли уже сегодня можно отнести к классике узбекского театра. О лучших, даже поставленных давно, есть что добавить новое к уже сказанному.

Говорили и писали о нем много с самого начала. А начинал он смело и решительно, без разгона. Первые же спектакли на сцене академического театра имени Хамзы недавнего выпускника Ташкентского театрального института вызывали и споры и, одновременно, единодушное признание неординарности таланта постановщика. Мелодрама А.Дюма «Нельская башня», историческая трагедия «Беруни» Уйгуна, романтическая драма «В ночь лунного затмения» М.Карима психологическая драма В.Розова «С вечера до полудня»... А затем, как гром среди ясного неба спектакль «Разбойники» Шиллера, который показался многим чудовищным покушением на академические традиции старейшего театра. Режиссер использовал здесь приемы театра жестокости и элементы авангардной стилистики. Зритель видел мир грабежей и насилия, где, на фоне белых балахонов с прорезями для глаз, сын топчет лежащего в постели больного отца, где «благородные» разбойники исполняли ритуальные пляски, горланили дикие песни, взгромоздившись на телегу со скрипящими колесами...

В «Разбойниках», в творчестве Б.Юлдашева зримо проявилось не только желание решительного обновления средств театральной выразительности, но качество прирожденного театрального реформатора.

в 1974 году Б.Юлдашева назначили главным режиссером академического театра имени Хамзы. Ему было 28 лет. Как говорили, он был самым молодым главным среди всех «академиков» бывшего Союза. Стоит запомнить дату создания спектакля – 1974 год. Стоит, потому что ровно через десять лет он уйдет из театра имени Хамзы.

Десять лет – цифра магическая для театра. К.Станиславский считал этот срок пределом, после которого необходимо кардинальное обновление творческой программы. П.Брук настаивает на том, что «Гамлета» надо ставить заново каждые десять лет. Крупнейшие режиссеры столетия, независимо друг от друга утверждали, что по истечении этого срока, в обществе и в эстетических принципах искусства происходят существенные перемены и художник обязан на них откликаться. К

этому же выводу каждые десять лет приводила Баходыра Юлдашева его режиссерская практика и редкостная художественная интуиция.

Первый десятилетний цикл Б.Юлдашева приходится на театр имени Хамзы.

Среди других он ставит здесь спектакли, существенно изменившие творческое «лицо» этого театра.

В постановках открыто публицистичных он ищет синтеза психологизма и образности на основе современных театральных веяний, современного способа актерского бытия. Не изменяя своему тяготению к обнаженным приемам, подчас даже заостряя их до прямого контакта с залом, он стирает казавшуюся непреодолимой грань между брехтовской эпичностью действия и глубиной интимных переживаний героев. Одновременно с продолжением поисков в области формы спектакля, которые велись режиссером в тесном сотворчестве с художником Г. Бримом, все заметнее проявлялось крепнувшее умение Б. Юлдашева работать с актерами. На актера опирается режиссер в усиленных поисках более тесного контакта со зрителем — этим отмечено большинство его постановок. Он ставит актеров в нетрадиционные для узбекского театра условия активных взаимоотношений со сценографией, диктующей соответствующий своей динамике и экспрессии ритм и способ сценического бытия.

Б.ЮЛДАШЕВ ОТЫСКИВАЕТ НИТИ, СОЕДИНЯЮЩИЕ ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ, ОТКРЫВАЕТ СМЫСЛ НРАВСТВЕННЫХ И СОЦИАЛЬНЫХ УРОКОВ ИСТОРИИ

В «Бунте невесток» С.Ахмада, он соединил бытовую комедию с шутливой национальной ритмикой. Редкостным «чувством войны» отличался спектакль «В списках не значился» Б.Васильева, на котором режиссер посадил зрителей на сцене, рядом с актерами, и эта близость исключала в игре актеров всякую фальш. Его спектакль «Живой труп» по пьесе Л.Толстого можно назвать самым «русским», и самым оригинальным по образному решению, из всех спектаклей русской классики в узбекском театре.

В таких спектаклях как "Нодира" Т.Тулы, «Зебиниссо», Уйгуна, «Звездные ночи», П.Кадырова не только открывались для зрителей новые пласты отечественной истории, но обнаруживалось желание принципиально новых сценических решений, соответствовавших современной театральной лексике. Осмысливая исторический опыт узбекского народа, Б.Юлдашев отыскивает нити, соединяющие прошлое и настоящее, открывает смысл нравственных и социальных уроков истории. В постановках исторической драмы режиссер осуществлял не только культуртрегерскую, просветительскую миссию. Обращаясь к национальному прошлому, в своих спектаклях он пытался заглянуть вглубь времен, обнаружить в персонажах истории истоки высокой нравственности и

культуры. Немаловажно значение постановок исторической драмы этого периода и в чисто театральном плане. Эти спектакли существенно обогатили режиссерские принципы сценического воплощения произведений исторической драмы, сложившиеся на узбекской сцене.

Важно отметить также, что эти постановки предвосхитили широкий интерес к истории в художественной узбекской культуре на рубеже 80 – 90-х годов.

Во всех названных и неназванных здесь постановках он остается последовательным приверженцем яркой театральности, острой динамичной формы. В противовес традиционному для узбекского театра тяготению к академическому филоцентризму, он стремится вывести искусство театра за пределы привычной прозаической повествовательности, утверждает право театра на самостоятельные трактовки, на разнообразие стилевых и жанровых сценических решений. Дважды в это десятилетие он собирался ставить «Гамлета». Так и не решился. Как не решился и позднее, когда ушел из театра имени Хамзы и стал художественным руководителем театра имени А.Хидоятова.

Уход Баходыра Юлдашева из театра имени Хамзы, в основе которого лежали как творческие причины, так и личные, повлек за собой раскол, размежевание этого театра. Вместе с главным в театр имени А Хидоятова уходит почти половина труппы. Вследствие значения театра им. Хамзы для культуры Узбекистана, как и вследствие масштаба личности самого Б.Юлдашева, этот поступок сильно повлиял на всю театральную жизнь. Если прежде средоточием театрального процесса было творчество хамзинцев, то теперь процесс становится «многополярным», в спектр интересов критики и зрителей попадает обновленный театр им. А.Хидоятова, а затем и другие театры, и театральные студии. Обострилась и творческая конкуренция. Так что, уход Б.Юлдашева можно расценить как поступок знаковый, предвещавший перестройку театрального дела.

Начав эту перестройку, Б.Юлдашев стал в ней ключевой фигурой. Спектакли нового этапа творчества, поставленные Б.Юлдашевым в театре им. А.Хидоятова, определяли важнейшие тенденции театрального искусства Узбекистана, более того, оказали серьезное влияние на театральные культуры соседних стран Центральной Азии. Его сценические открытия будут подхвачены и развиты другими режиссерами, многие из которых ощутили на себе влияние творчества Б.Юлдашева. Харизму его личности ощутили не только театралы, но и известные писатели, художники, композиторы, ученые, для которых театр, возглавляемый Б.Юлдашевым, становится местом регулярных неформальных встреч.

Он никогда не любил излагать свою творческую программу. Чаще ограничивается лаконичными и емкими замечаниями о своем видении и понимании природы и эстетики современного узбекского театра. Но сегодня, с дистанции времени, видно, как точно вела его интуиция большого художника в период его работы в театре А.Хидоятова.

В «Проделках Майсары» Хамзы он стилизует традиции народного узбекского театра масхарабозов. В ярком зрелищном представлении, которое театр показывал не только на сцене, но на улицах и площадях, Б.Юлдашев широко распахнул вход в целое направление совре-

менного узбекского театра, которое и сегодня дает знать о себе. И, одновременно, надолго захлопнул этот вход для себя – больше никаких сценических версий на темы традиционного узбекского театра у него не было, вплоть до новой постановки этой пьесы уже в студии «Дийдор». Это вообще было характерно для него - не возвращаться к пройденному. Щедро, порой расточительно, не «экономя» на будущее, строить спектакль на максимуме отобранных выразительных средств. А потом, «исчерпав тему» для себя, отойти в сторону, пропустив других в открытые им двери.

Вряд ли это можно назвать азартом первооткрывателя. Здесь другие, более сложные и глубокие чувства и намерения. Здесь один из главных и важнейших импульсов его творчества – постоянное выяснение отношений между современной сценой и разного рода традициями. В театре Хамзы это были традиции и стереотипы академизма, в «Майсаре» - чисто театральные традиции масхарабозов. В спектакле «Искандер» по поэме Навои его интересует уже весь комплекс богатейших традиций художественного наследия узбекского народа. В этом «сценическом хорале» органически слились европейская симфония и узбекские классические макомы, византийская мозаика и архитектура Востока, неожиданно современно звучал «диалог сквозь века» между Навои и Александром Македонским ...

Совместимость культурных национальных традиций с универсальными западными ценностями, преодоление эмоциональной дистанции между людьми разных культур, желание превратить сцену в зону культурного симбиоза Востока и Запада - актуальная проблематика сегодняшней культуры Узбекистана, была ярко заявлена в постановках Б.Юлдашева еще на рубеже 80-90-х годов, и, может быть, не оцененная тогда в полной мере.

Глубокая любовь к культурным национальным традициям, пристальный интерес к возможностям жизни этих традиций в каждом компоненте современного спектакля проявилась и в его постановках 90-х годов, когда он продолжает поиски ответа на сакраментальный вопрос – каким может и должен быть узбекский театр.

Продолжая экспериментировать, он переносит действие и героев пьесы французского драматурга Ж.Сараана «Мамуре» (в версии театра «Мамура кампир») на современную узбекскую почву. После этого, востокизация, ориентализация западной драмы станет одной из художественно плодотворных и интригующих тенденцией узбекской сцены.

В это же время, он продолжает поиски синтеза уходящей вглубь столетий духовной культуры с образностью современной сцены. Особая чуткость к богатейшим традициям национальной музыки, литературы, изобразительного искусства, архитектуры, всему комплексу традиционной художественной культуры проявилась и в спектакле «Великий шелковый путь». Средствами изобразительного искусства, музыки, пластики, света режиссер синтезируют образы стран средневекового Востока.

Наконец, в спектакле «Судхур» он ищет пути освоения сценой фольклора, национального быта. Трагикомические события, канувшие в прошлое людские судьбы, раскрыты в стилистике фольклорного театра. В сценическое действие органично вплетаются народные песни и танцы с харак-

терным колоритом и особенностями музыкального фольклора древней Бухары. Чуть позднее начатые им поиски выльются в одно из заметных направлений современной узбекской сцены.

Почти пятнадцать лет режиссер вынашивал идею создания театральной школы-студии. Практически каждый новый спектакль, поставленный Б.Юлдашевым в своей студии, становился важным событием театральной жизни. «Осколки памяти», «Нодира», «Бобур», «Майсара», «Аршин мал алан»... В этих спектаклях сформировалась одна из самых интересных театральных трупп страны, «через» «Дийдор» прошли и многие актеры из других театров, и профессиональные киноактеры. Сегодня театральная студия «Дийдор» имени Баходыра Юлдашева, один из самых интересных наших театров, показывает свои спектакли не только в Узбекистане, но и за рубежом.

Наверное, сам он не думал, во что «выльются» его сценические опыты осмысления духовного наследия и западно-восточные эксперименты. Не подозревал, что они станут своеобразными матрицами развития узбекского театра, так сказать, программами с открытым кодом. Режиссер делал свое дело – ставил спектакли. А необходимость оценивать сегодня спектакли режиссера не только как театральные артефакты, но и как важную составляющую культурного процесса современности, лишний раз говорит о силе и опережающем характере художественной интуиции Баходыра Юлдашева. «Опережающими» стали многие его спектакли. Что же они опережали – время, историю, традиции? Но с современными театральными веяниями, с национальной историей, с традициями культуры он был в ладах, и эта привязанность только крепла с годами. Может оттого что, не приемля суррогат, фальш, лицемерие, парадную показуху он творил в согласии с новейшим театральным временем, подлинной историей, исконными традициями культуры и стали его спектакли опережающими. И сам он, нравственно-этические и творческие качества его личности, его искреннее и самоотверженное служение искусству еще надолго останутся примером, уроками жизни и профессиональной чести для новых, молодых поколений нашего театра.

YOSHLARDA MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA NAFOSAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

Dildora Qosimova,

O'zDXA dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori
PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda ularni go'zallik bilan oshno qilish, nafosat tuyg'usini tarkib toptirish alohida ahamiyatga egaligi, ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda eng avvalo, o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratish, badiiy asarlarning imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, ma'naviy qadriyat, nafosat tuyg'usi, mentalitet, madaniy meros, estetik madaniyat, mumtoz adabiyot.

Abstract. In this article, in the formation of the need to acquire spiritual values in young people, it is of particular importance to familiarize them with beauty, to develop a sense of sophistication, and in the formation of the need to acquire spiritual values, first of all, the aspects related to the mentality of the Uzbek people. attention, possibilities of artistic works are described.

Key words: value, spiritual value, sense of sophistication, mentality, cultural heritage, aesthetic culture, classical literature.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida madaniyat mohiyatining o'sib borishi, xalqimiz ma'naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan betakror qadriyat va an'analarimiz, madaniyat va san'atimizni har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni qadimiy va boy madaniy merosimiz namunalaridan bahramand etishni davrni o'zi taqozo etmoqda. Mamlakatimizda qadimiy va boy madaniy merosimiz, milliy o'zligimiz, betakror qadriyat va an'analarimiz, madaniyat va san'atimizni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4585-son qarori bilan, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etilishi ham buning yaqqol misolidir.

Jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy hamda ruhiy omilidir.

Jamiyat ma'naviyati uch muhim sohaning uzviy birligi: madaniyat, ma'rifat va mafkura asosida shakllantiriladi. Ya'ni bular jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi omillaridir. Demak, ma'naviyatli inson bilimli, o'z Vatanining sodiq farzandi, yurti bilan g'ururlana oladigan, boyliklarini saqlay oladigan va boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quv predmetlari mazmunini insonparvarlashtirish, ularda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish nuqtayi nazaridan o'ta dolzarbdir. Zero, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun mazkur o'quv predmeti mazmunida ma'naviy-axloqiy hamda estetik yo'nalishdagi bilimlar taqdimotini kuchaytirish lozim. Bu sohada o'tmishda va bugungi kunda yaratilgan badiiy asarlar, hadisi shariflar, xalq og'zaki ijodi namunalari katta pedagogik ahamiyatga ega. O'quvchi-yoshlarga ma'naviy qadriyatlarni taqdim etishda mumtoz adabiyot, xalq og'zaki ijodi namunalari, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan hikmatlar beqiyos o'rin egallaydi. Ushbu asarlarni o'qish natijasida o'quvchi nafaqat o'zining ma'naviy olamini boyitadi, balki yangidan-yangi ma'naviy tushunchalar va qadriyatlarni o'zlashtirishga ehtiyoj sezadi. Ular dunyo, moddiy borliq, san'at, adabiyot, xalqimizning ruhiyati, ajdodlarimiz va zamondoshlarimizning bunyodkorlik faoliyati, xalqning qahramonona hayot yo'li haqida yorqin tasavvur hosil qiladilar, ulardan muayyan ma'no topadilar.

Pedagogika fanida ham qadriyatlarni ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etuvchi alohida fan sohasi – pedagogik aksiologiya mavjud bo'lib, so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda alohida izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi davrda jamiyatimizda o'zining ma'naviy qadriyatlari ildizini topish, izlash va o'zlashtirish jarayoni davom etmoqda. Chunki uzoq asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish vositasidagina yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, ularni bugungi hayotimizni yuksaltirishga safarbar etish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, o'tmishda va bugungi kunda yaratilgan badiiy asarlar ham o'quvchi-yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Shu ma'noda inson ma'naviyatini shakllantirishda fan, din, falsafiy, axloqiy ta'limotlar, tarixiy, ijtimoiy tajribalar, san'at va adabiyot alohida ahamiyat kasb etadi. San'at va adabiyotni o'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Avvalambor, qardiyat o'zi nima ekanini tushunib olish juda muhim. Bu haqda M.O.Inomova shunday yozadi: "Qadriyat – bu inson yoki jami-

yatning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ehtiyoj va manfaatlar bo'lib, ular hayotga qimmatdorlik nuqtayi-nazaridan yondashishga asos bo'la oladi. Umuman, qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishi ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boyliklardir". Muallifning ta'biricha, qadriyat va meros tushunchalari o'zaro uyg'undir. Lekin, har qanday meros qadriyat bo'la olmasligini olima alohida ta'kidlaydi.

MODDIY QADRIYATLAR JAMIYATNING MODDIY HAYOTI BILAN HAM UZVIY BOG'LIQLIKDA SHAKLLANADI.

Pedagogikada qadriyatlarni ko'proq o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi imkoniyatini hisobga olgan holda, ma'naviy, milliy, siyosiy, huquqiy, oilaviy, mehnat, turmush, diniy, umumadaniy, umuminsoniy va badiiy-estetik shakllariga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar – millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilardir.

Shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda moddiy va ma'naviy hamda shaxsiy qadriyatlar uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Moddiy qadriyatlar jamiyatning moddiy hayoti bilan ham uzviy bog'liqlikda shakllanadi.

"Ma'naviy qadriyatlar" tushunchasi inson ma'naviyati va axloqiy qiyofasiga, jamiyatning ma'naviy hayotiga daxldor bo'lib, odamlarni tarbiyalashga, ularning barkamolligini ta'minlashga, millatlar va jamiyatlarni ezgulik va bunyodkorlikka undashga xizmat qiladigan ma'naviy qadriyatlarga ehtiyojni ifodalaydi.

Shaxsiy qadriyatlar o'z navbatida moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlikda namoyon bo'lib, o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy olami va qiyofasi bilan bog'liq; nafosati va go'zalligi bilan bog'liq; mehnati va iqtisodi bilan bog'liq; huzur-halovati bilan bog'liq gedonistik; individual kamoloti va ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq; qobiliyati va iste'dodi bilan bog'liq intellektual qadriyatlar; his-hayajon tuyg'ulari bilan bog'liq "emotsional" qadriyatlarda o'z aksini topadi.

Ko'rinib turibdiki, bu muammoning o'rganilishiga keng ko'lamda ijtimoiy-pedagogik, siyosiy, g'oyaviy qiziqish mavjud.

Ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish haqida fikr yuritganda esa, e'tiborimizni, eng avvalo, o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq jihatlariga qaratamiz. Mentalitet – (lotincha mentalis- aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlari, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va bosh-

qa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi. Chunki ushbu tushunchaning tahlili o'quvchi-yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish tizimini vujudga keltirish uchun nihoyatda muhimdir.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchi-yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish yaxlit, tizimli tarzda tashkil etilgan pedagogik jarayonda amalga oshiriladi. Bu jarayonda qadriyatlarning paydo bo'lishi, o'quvchi-yoshlarga yetkazilishi uchun zarur bo'lgan pedagogik faoliyat vujudga keltiriladi. Aynan ma'naviy qadriyatlar o'quvchilarning o'zlari va o'zgalarning faoliyati, mazkur faoliyatning maqsadi va mohiyatiga nisbatan yangicha qarashni hosil qiladi.

O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllanshirishda badiiy asarlarning imkoniyatlari ularning falsafiy jihatlari bilan ham uyg'unlashadi. Milliy-ma'naviyat va axloq muammolarini yozuvchilar millatning ma'naviy ijtimoiy ildizlari bilan bog'liq holda yoritadilar. Ular oldida har doim inson nima uchun va qanday yashashi kerak, degan masala ko'ndalang turadi.

"Badiiy pedagogika" atamasi XX asrning 50-60-yillarida badiiy-estetik masalalarga bag'ishlangan xalqaro kongresslardagi ma'ruzalarda qo'llanila boshlangan. Undan dastlab Gerbert Rid o'zining badiiy ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlarida foydalangan. Rus pedagogik adabiyotlarida kinorejissor va pedagog Sergey Gerasimov tomonidan iste'molga kiritilgan.

B.Xodjayev o'zining "Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy pedagogikaning fundamental asoslarini yoritib bergan. Olim tomonidan "badiiy pedagogika" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Badiiy pedagogika – integrallashgan soha sifatida so'z san'ati va pedagogikaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini o'zida ifoda etuvchi, emotsiya – idrok etish – badiiy obrazlarda olam manzarasini anglash triadasining uyg'unligidir", degan xulosaga kelgan.

Olimning bunday xulosaga kelishiga, bizningcha, eng qadimgi davrlardan boshlab xalq og'zaki ijodining paydo bo'lishi, o'rta asrlarda pandnoma-didaktik asarlarning yaratilishi, hozirgi vaqtda ko'plab badiiy-ma'rifiy asarlarning yozilayotganligi asos bo'lgan. Chunki badiiy pedagogika pedagogikaning alohida sohasi sifatida uzluksiz ta'lim tizimida barcha fanlarni o'qitishda o'zining yorqin ifodasini topgan bo'lib, nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchining hikmatli so'zlar, hikoya, rivoyat, badiiy-ma'rifiy mavzudagi she'rlar, qatralardan foydalanishi an'anaviy xarakter kasb etgan.

Tahlillar natijasida badiiy pedagogika – badiiy-ma'rifiy asarlar vositasida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, badiiy ifodaviylik va obrazlar uyg'unligi asosida an'ana, qadriyat va xulq-atvor me'yorlarni o'zlashtirish hamda jadal ijtimoiy moslashuvni ta'minlashga xizmat qiluvchi pedagogikaning amaliy sohasidir, degan xulosaga kelindi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida badiiy pedagogikaning eng asosiy tamoyili o'quvchilarda his-tuyg'u (emotsiya)ni rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlar interiorizatsiyasini ta'minlash bo'lmog'i lozim, degan xulosaga kelindi.

Badiiy pedagogika vositasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirish murakkab ko'rinishga ega bo'lib, mazkur jarayon o'zaro bir-biri bilan bog'langan tarkibiy qismlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday o'zaro aloqador qadriyatli tasavvurlar tizimining tarkibiy qismlariga ehtiyoj, qiziqish, motiv, faoliyat maqsadi, axloqiy ideallar, interiorizatsiya kabilarni kiritish mumkin.

Ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojining rivojlanishi va muntazam o'zgarib borishi o'quvchilarning hissiyotlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi. O'quvchi ehtiyojlarining his-hayajonlarga boy bo'lishi o'z-o'zicha ularni amaliy faoliyatga yo'llamaydi, bu faqatgina ularni ehtiyojlarni qondirishga undaydi. Buning natijasida o'quvchi o'zi uchun qulay bo'lgan xatti-harakatni tanlaydi. Ular bu sohada to'g'ri qaror qabul qilishlari uchun faoliyat yo'nalishlarini tanlashlari nihoyatda zarurdir. Faoliyat yo'nalishi esa, o'quvchilarni ma'naviy qadriyatlarni egallashga undovchi, ularni qo'zg'atuvchi vositadir. Buning uchun o'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlari ongli tarzda shakllangan bo'lishi kerak.

O'quvchi-yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda ularni go'zallik bilan oshno qilish, nafosat tuyg'usini tarkib toptirish alohida ahamiyatga ega. Inson ma'naviyatini shakllantirishda ilm-fan va diniy ta'limotlar bilan bir qatorda, adabiyot va san'at ham muhim o'rin egallaydi. Go'zallik haqidagi tasavvur har bir yoshni milliy qadriyatlarning mohiyatini chuqur anglashga undaydi, xalq tarixi va madaniyatini o'rganishga rag'batlantiradi. Bu esa, o'quvchi-yoshlarning hissiyotlari va ma'naviy olamini takomillashtiradi. Estetik did shaxsning butun hayoti davomida uni bezab turadi va barkamollikka undaydi. O'quvchi-yoshlarning dunyoni anglashida uning axloqi va go'zallikni his etish tuyg'usi, borliqni chuqurroq bilishiga imkon beradi. O'quvchi-yoshlarda nafosat hissini qaror toptirmasdan turib, ularda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish pedagogik nuqtai nazardan imkonsizdir.

Ularning go'zallikni anglash imkoniyatlari: nafosat hissi, did, go'zallikni baholash, uni idrok etish yordamida baholash mumkin.

Ma'naviyatli inson o'zining hayotiy faoliyati mohiyatini anglovchi, o'z-o'zini tahlil qilishga moslashgan, muntazam ravishda o'zini takomillashtirishga moyil, o'z-o'zini rivojlantirishga intiladigan, aqliy jihatdan o'sishga harakat qiladigan shaxsdir. Uning ehtiyojlari atrof-muhit, tabiiylik, mehr-muhabbat, go'zallikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. O'quvchi-yoshlar o'zining ma'naviy darajasi bilan bog'liq tarzda yovuzlik, mangulik, rahmdillik, go'zallikni o'zaro farqlaydi.

Estetik madaniyat go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan estetik faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4585-son qarori. Lex.uz.

2. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiya-lashda milliy qadriyatlarning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari dok.diss. – T.: 1998. – 303 b.

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. V jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 540 b.

4. Herbert Read, Education through art. (перевод на кит. яз) – Жэньминское художественное издательство.- Пекин,1991. – 70 с.

5. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – 314 b.

KINOQISSALARDA ALOHIDA OLINGAN SO‘ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI.

Mehrinisa Xolmuradova,

O‘zDXA katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya. Mazkur maqolada kinoqissalarda alohida olingan so‘zlarning matndagi sotsiopragmatik xususiyatlari, o‘zbek tili imkoniyatlarining badiiy nutq tarkibida voqelanishi bilan bog‘liq holatlar tasniflangan.

Kalit so‘zlar: Nutq obekti, undov so‘zlar, modal so‘zlar, sotsiopragmatika, pragmatika, semantika, matn, nutqiy akt, adresant, adresat, muloqot, nutqiy tuzilmalar, lisoniy imkoniyat.

Annotation. This article examines the sociopragmatic features of the works of art, especially the words taken in the film, the circumstances surrounding the realization of the Uzbek language in the artistic discourse, the inner world, past and future of each protagonist. z is classified to reveal through speech.

Keywords: Object of speech, adverbs, modal words, sociopragmatics, pragmatics, semantics, text, speech act, addressee, addressee, communication, speech structures, linguistic possibility.

Tilshunoslikda mustaqil so‘z turkumlari va u bilan bog‘liq grammatik ma’nolar ustuvor hisoblanadi. Biroq yordamchi va alohida olingan so‘zlar guruhi nutqiy vaziyatlarda kommunikativ aloqaning yanada ta’sirli va samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘zbek tilida so‘zlovchi tinglovchiga muayyan nutqiy sharoitda biror fikr yoki ma’lumotni yetkazayotganda mustaqil so‘zlar vositasida axborot beradi, ammo o‘zi uzatayotgan axborot, yo bo‘lmasa, qabul qilayotgan axborotga ichki munosabatini namoyon qilishda undov va modal so‘zlar muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida olingan so‘zlarning bajaradigan vazifalari ko‘proq pragmatika bilan bog‘liq. Prag-

matika amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan barcha bilim sohalarini birlashtiruvchi fan sifatida qaralgan semiotika doirasida yuzaga keldi va rivoj topdi [Safarov Sh., 2008: 96].

O'zbek tilida kinoqissa janridagi asarlar matni sotsiopragmatik jihatdan tadqiq etilmagan edi. Erkin A'zamning bir qator kinoqissa janriga doir asarlari mavjud bo'lib, ularni sotsiopragmatik tahlil qilishda, asosan, alohida olingan so'zlar guruhi tahlilga tortildi.

O'zbek tilida barcha unli tovushlar matn mazmuni, nutqiy vaziyatlar taqozosiga ko'ra undov ma'nosida kela oladi. Biroq, o unlisi his-tuyg'u ifodachisi sifatida nisbatan kam keladi. U, O', I, E, O, A unlilari o'ziga xos his-tuyg'ularni ifodalab keladi, masalan, U-u-u. Og'riq, qiyinchilik, hayratlanish; O' – buyruq-xitob undovi bo'lib, milliy mentalitetga ko'ra ko'pincha, er-xotinning munosabatlariga oid nutq vaziyatlarida qo'llaniladi. Xotin erining ismini aytmaslik uchun, er esa kayfiyatiga ko'ra, tabi xira paytlarda chaqirish uchun ishlatadi. Bundan tashqari, muloqot jarayonida suhbatdoshini mensimaslik ma'nosini ham bildiradi. I – cho'zib aytilganda ogohlantirish, esidan chiqqan narsa yoki hodisani eslab qolish kabi hissiyotlarni ifodalaydi. E – afsuslanish, esdan chiqish yoki undash va chaqirish ma'nolarini anglatadi. O – esa havasi kelish, rohatlanish, *//O-o, mana bunisi zo'r ekan ammo! Yuradigan qizingmi? Qoyi-il!* // (E.A'zam, "Anoyining jaydari olmasi"). Shaxsga nisbatan bo'lsa, mahorati yoki go'zalligiga qoyil qolish, narsa va hodisalarga nisbatan bo'lsa, ta'mi, hidi, ko'rinishining yoqib qolishi kabilarni ifodalab keladi.

A – undovi baqirib yig'lash, birov chaqirganda javob qaytarish, rus tili ta'sirida bog'lovchi ma'nosida ham qo'llanib turadi, masalan, zidlov bog'lovchilari o'rnida:

//– A, hozirgina nima dedingiz?

– Shug'ullanmaganman, desam... ishonasizmi?// (E.A'zam, "Anoyining jaydari olmasi"). His-hayajonni ifodalovchi vositalar o'zaro muloqotning ta'sirli, samimiy bo'lishini ta'minlaydi, ammo bu ham o'z o'rni bilan sodir bo'ladi:

//– Uf-f... Ayting-chi, sherigingiz kim edi?

– Sherigim, sherigim... bilmayman... yo'q edi.

– Qanaqa ishni?

*– **Uff!** Chayqovchilik-da!* // Uff undov so'zi so'zlovchining vaziyatga norozi munosabatini, horg'inlik, bir ishni takrorlayverishdan toliqish ma'nolarini bildiradi..

His-hayajonni ifodalaydigan undovlar asar syujetida kam uchraydi. Muallif o'z qahramonining ichki tuyg'ularini yana-da yorqinroq ifodalash uchun, uning qaysi qavm, qaysi hududga mansubligini ham anglatish uchun hatto his-hayajon undovlarining ham o'sha muhitga mosrog'ini tanlagan: *//Goh qo'llarini ikki yonga siljitgancha kiftlarini qimirlatib, **"Ha-a, hu-u!"** deya qiyqiradi, hayqiradi, sakraydi, irg'ishlaydi: goh jilmayadi, goh hazilga qovog'ini uyub oladi: duch kelgan qizni raqsga tortadi, ajabki, u ham nozlanib o'tirmay peshvoz chiqib boraveradi.//* (E.A'zam, "Anoyining jaydari olmasi"). Aslida mazkur undov so'zlar kishining madaniyatini ham ifodalab turadi.

Ayrim fe'l so'z turkumiga doir so'zlar undov so'zlar turkumiga kiritilmasa-da, nutqda ular modal munosabatni ifodalashga xizmat qilmoqda: *// – **Bo'pti, bo'pti**, ishondik. **Demak**, siz uyingizdan to'rt-besh kilo olma olib, o'sha o'zingiz aytgandek, hech joyda bitmaydigan antiqa olmadan olib, birga xizmat qil-*

gan og'aynilaringizni ko'rib kelgani Barnaulga jo'nagansiz.// Demak modal so'zi fikrning xulosalanishini anglatib turibdi, bo'pti esa mavzuni, masalani, mohiyatni tushunganlikni ifodalamoqda. Bu modal munosabat, ya'ni vaziyatga o'z ichki munosabatini bildirish vositasi hisoblanadi.

A – undovi ta'kidlaganimiz kabi, rus tili ta'sirida zidlov bog'lovchilari o'rnida qo'llanib turibdi, biroq bu ham aynan bog'lovchi maqomida emas: *//Bittagina chamadon bilan, bittagina! **A**, qolgan narsalar kimniki edi – uzum, anor?//* Mazkur undov so'zning etimologiyasini o'rganib chiqish lozim, balki sof o'zbekcha bo'lishi ham mumkin.

Badiiy matnlarda, ayniqsa, kinoqissalarda modal so'zlarga kam ehtiyoj sezilishi ma'lum bo'ldi. Fikrlar, munosabatlar asosan yuklamalar va undov so'zlar vositasida ifodalanmoqda: *//Uning oldida o'zimni aybdor sezaman. **To'g'ri**, u ko'p g'ashimga tekkan, meni ko'p g'alvalarga qoldirgan; balki muttahamdir, chayqovchidir, lekin baribir – jo'ram! Jo'ram yotibdi. Qamoqda. Qanaqa joy ekan u?//* Ajratib ko'rsatilgan so'z faol qo'llaniluvchi modal so'z hisoblanadi. So'zlovchi o'z fikrining rostligini bildirish uchun shu kirish so'zdan foydalanmoqda.

Fikrning xulosalanishi, tugashini anglatuvchi modal so'zlar ko'p qo'llaniladi, ammo arab tilidan o'zlashgan variantlari onda-sonda ishlatiladi: *//Besh oy davomida undan uchta xat keldi. Ammo... uchalasi ham bittagina so'zdan iborat: **"Chantrimore!"** Vassalom.//*

Undov so'zlarning gap tarkibida ba'zan kirish so'z bo'lib kelishi nazariy ma'lumotlar orqali ma'lum. Quyidagi misolda ham undov so'z pragmatik ma'no ifodasi uchun xizmat qilmoqda: *//Zarif aka. Ha, xotin, murod hosil bo'ldimi? Yoki. Ota ko'rgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi: **Ha**, shoshmang. U siz haq.//* Bu o'rinda oldingisiga qaraganda sal boshqacharoq vazifa bajarganini ko'rish mumkin. Ya'ni ikkinchi misolda so'zlovchi o'zi aytayotgan fikriga o'z ichki munosabatini ifodalamoqda. Dastlabki o'rinda esa, undov, xitob ma'nosi ustunroq.

Erkin A'zam kinoqissalarida qo'llanilgan undov va modal so'zlar sotsiopragmatik jihatdan quyidagicha tasniflandi, bu boshqa tasniflardan farq qilishi mumkin. Bunda til vositalarining muloqot jarayonida axborot almashishidan tashqari so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, nutq sharoitiga, o'zi aytayotgan fikrga munosabati inobatga olingan:

I. Adresantning adresatga murojaat tarzini ifodalovchi buyruq-xitob undovlarining qissa matnida qo'llanilishi:

1. D a d i l. **Ho'y**, gaping bormi? Nega ag'rayasan?

2. D a d i l. **Ho'v**, chiqmaysanmi?

3. N a r i m o n. Shuni qilmasligim ham mumkin edi-ku! Qarzim bormi sizlardan? Ayt, qaysingdan qarz ekanman? **Ho'** Latof, sen gapir! O'g'lingning sunnat to'yini ko'targan kim edi, qani?

4. F a z l i d d i n. **O'v, o'v**!.. Siz faqat halol yo'l bilan topibsizmi buncha narsani?!

II. So'zlovchi va tinglovchining his-hayajonini ifodalagan undov so'zlar:

1. D a d i l. **Ja-a**, opqochasan-a? *(Shamshodniing tuflisiga ishora qilib)* Poshna hisobiga bo'lsa kerak-da?

2. **Iye**, mana, foytunimiz ham kelib qoldi.

3. L a t o f a t. **He**, uying ham, puling ham boshingdan qolsin!

III. So‘zlovchi va tinglovchi nutqida urf-odatga aylanib ketgan undovlar.

1. L a t o f a t *(uni bo‘ynidan quchib).* **Rahmat, buvajoni!**

2. L a t o f a t *(o‘g‘lini turta-turta).* Bu yerni o‘zingning uying deb o‘ylagansan-da, **a, juvonmarg!..**

3. **YO tavba!** *(Shamshodga)* Mana shunaqa gaplar, og‘ayni.

4. SH e r z o d (yig‘lamsirab). Oyijon, **xudo ursin** agar, men u xonaga kirganim yo‘q! Bir marta ham kirganim yo‘q, ishoning!

Kinoqissa matnida eng ko‘p qo‘llanilgan “ha” undov so‘zining nutq vaziyatiga ko‘ra ifodalagan ma’nolari:

1. N i g o r a *(hayron).* **Ha?** Qayoqqa?..Ichkarida bo‘lsalar kerak.

2. Armonsiz ketdi do‘stim, **ha**, bearmon. F a z l i d d i n (boshini ko‘tarmay, quruqqina).

3. **Ha**, odam ko‘p bo‘ldi... *(Bir muddat tin olib, tevarakka vazmin ko‘z tashlab chiqqach, ezgin, alamnok bir tovushda).*

Sotsiopragmatik vazifa nuqtai nazaridan modal so‘zlar kinoqissalar matnida quyidagicha nutqiy voqelangan:

1. **Aftidan**, birovning yo‘liga qattiq ko‘z tikkan.

2. E, **xullas, Ra’no** deganining o‘zidan beshta! Sen bunaqa qilib lallayib yurma, og‘ayni, tezroq bittasini top. Yoki o‘zim topib beraymi? *(Darozga gap tasdiqlatib)*

3. Demak, o‘sha basseynning ham egasi – men, **to‘g‘rimi**?

4. Sen nima deysan, **to‘g‘rimi**?

Shuningdek, kinoqissalar matnida modal yoki undov so‘zlar sirasiga kirmaydigan, ammo so‘zlovchi yoki tinglovchining o‘zaro muloqoti jarayonida suhbat natijasiga samarali xizmat qiluvchi turli munosabatlarni ifodalab keladigan birliklar ham uchraydi:

1. N a r i m o n (og‘ir entikib). **Qo‘ying,** aka... gapirmang...

2. **Qarang,** shunday oqilu mehribon farzandlarni voyaga yetkazdi-ya!

3. Sherzod. Buva, buva! Buningiz cho‘milgani qo‘ymayapti. “Basseyn bizlarniki, birinchi bo‘lib men sakrashim kerak”, deydi, **qarang!**

Bundan tashqari, Erkin A’zam kinoqissalari matnida boshqa ijodkorlar asarlarida ko‘p uchramaydigan ayrim o‘zlashma undov so‘zlar ham qo‘llaniladi. Bu asar qahramoni, ya’ni so‘zlovchining ichki olamini, ma’naviyati va madaniyatini ham anglatib turadi:

1. Undan Ustaning xitoblari yangrayotir: “Endi – sen, Nodir! Shalvirama-da, **hey!.. Ha, barakalla-a! Malades!”**

2. P o l k o v n i k. **Ti smotri!** Tuzuk, tuzuk.

3. Shamshodbek qo‘lidagi cho‘tkani bir chekkaga uloqtirib, ayvondagi devor oynaning oldiga keladi, barmoqlari bilan qovoqlarini ikki yonga tortib, ko‘zini xuddi yaponlardek qisiqlashtiradi-da, **“Tokio-mokiyo!”** deya xitob qiladi. **“Chantrimore-e!” “Kalamakatore”** bo‘g‘zimda qoldi – aytolmadim.

4. Men hozir, bir minutga... **ayn moment!**

O‘zbek tilida so‘zlarning birdan ortiq ma’noni ifodalashi kontekstda ma’lum bo‘ladi. Tilning sotsiopragmatik imkoniyatlari ham nutq sharoitida, muloqot jarayonida aniq bo‘ladi. Shuning uchun jonli nutq aks etgan Erkin A’zam singari yozuvchilar asarlari matni lingvistikaning zamonaviy aspektlarida qancha ko‘p o‘rganilsa, til birliklarining ifoda xususiyatlari shuncha ko‘p ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Akademnashr, 2012.
4. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. –T.: Fan, 2008.
5. Safarov SH. Pragmalingvistika. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Серл Дж.Р. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17: Теория речевых актов. – М., 1986.
7. Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17: Теория речевых актов. – М., 1986.
8. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2011.
9. Qurbonova M. Bolalarga xos nutqiy akt turlarining pragmalingivistik tahlili // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2016. 4-son.
10. Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. Kinoqissa. – T., 2001.
11. Erkin A'zam. Anoyining jaydari olmasi. Kinoqissa. – T., 2001.

NAFOSAT OLAMI
O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI NASHRI
№1 2022

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiya huzuridagi Axborot va ommaviy kommukatsiyalar agentligi tomonidan 17.02.2022 yilda № 1567 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Toxtasimov

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Mirmuxsin Gapurov

TAHRIR HAY'ATI:
Nozim Qosimov
Jahongir G'aniyev
Hulkar Hamroyeva
Ravshan Jomonov
Matluba Murodova
Po'lat Tashkenbayev
Dildora Kasimova
Tumaris Butunboyeva
Gulasal Usmonova

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Muhabbat Tulyaxodjayeva
Ildar Muxtarov
Oqilxon Ibragimov
Baxtiyor Ashurov
Dilafruz Qurbonova

DIZAYNER:
Muhammadxon Yusupov

BOSISHGA RUXSAT ETILDI:
.....

BICHIMI:
60/84 $^{1}/_{8}$

ADADI:
.....

Tahririyatning ruxsatisiz jurnal materiallaridan foydalanish taqiqlanadi. Materiaallar ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Yuborilgan materiallar taqriz qilinmaydi va qaytarib berilmaydi.